matning u yoki bu fakt asosidagi konstitutsiyaviy-huquqiy normalarni buzishi emas, balki uning umummilliy siyosatdagi oqsashi, o'zining vazifa va vakolatlarini lozim darajada bajara olmasligining o'zi ham uning iste'fosini vujudga keltiruvchi asos sifatida qaralishi mumkin, deb hisoblaymiz. Shu sababli ham parlament hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirishda konstitutsiyaviy huquqbuzarlik faktini emas, umumdavlat siyosiy maqsadlariga erishishdagi hukumat faoliyatining o'rni va rolini ko'rsatishi bilan kifoyalanishining o'zini yetarli asos deb qarashi mumkin. Aynan mana shu nuqtada konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik siyosiy javobgarlik sifatida yaqqol namoyon bo'lishi mumkin.

Shunga ko'ra, Oliy Majlis tomonidan Vazirlar Mahkamasining yillik ma'ruza-si yuzasidan va davlat dasturi ijrosi holati bo'yicha faoliyatidan qoniqmaslikni siyosiy motiv sifatida qarash mumkin. Sababi hukumatning umumiy faoliyati natijasida mam-

lakatda fuqarolarning yakdillik, hamjihatlik va farovonlikda hayot kechirishi ta'minlanib, bu, o'z navbatida, siyosiy barqarorlikni kafolatlaydi. Demak, bunday sharoitda hukumatga nisbatan parlament tomonidan bildiriladigan ishonchsizlik votumi ijro hokimiyatining faoliyati siyosiy jihatdan maqsadga nomuvofiqligi bilan izohlanadi. Siyosiy motiv va maqsadlarni qonunchilikda ifoda etib bo'lmaganligi sababli ham biz bu javobgarlikni yuridik javobgarlik sifatida qabul qilamiz. Bu, aslida, o'z mazmuniga ko'ra siyosiy javobgarlikdir. Lekin har qanday holatda ham javobgarlikka tortish uchun huquqiy asos zarur. Hukumatning faoliyati davlat rahbari va Oliy Majlis tomonidan amalga oshirilayotgan umumdavlat siyosatiga nomuvofiq kelganda, uning iste'fosini talab qilishda ishonchsizlik votumi tarzidagi huquqiy ta'sir chorasini qo'llash bo'yicha jarayonni boshlash uchun, avvalo, uni qonunda muayyan bir ko'rinishda ifodalash lozim.

REFERENCES

1. Covello V., McCallum D.B., Pavlova M.T. Effective risk communication: the role and responsibility of government and nongovernment organizations. *Springer Science, Business Media*, 2012, vol. 4.
2. Cutler F. Government Responsibility and Electoral Accountability in Federations. *Publius: The Journal of Federalism*, 2004, Spring, vol. 34, iss. 2, pp. 19–38. DOI: 10.1093/oxfordjournals.pubjof.a005028/.
3. Cohen S. A strategic framework for devolving responsibility and functions from government to the private sector. *Administration review*, 2001, pp. 432–440.
4. Sheyan A.N. Institut pravitel'svennoy otvetstvennosti v Rossii [Institute of Government Responsibility in Russia]. Abstract of PhD dissertation. Volgograd, 2007, pp. 8–9.
5. Kondrashev A.A. Teoriya konstitutsionno-pravovoy otvetstvennosti v Rossiyskoy Federatsii [The theory of constitutional and legal responsibility in the Russian Federation]. Abstract of Doctoral dissertation. Moscow, 2011, 12 p.
6. Yuridicheskaya entsiklopediya [Legal Encyclopedia]. Ed. B.N. Topornin. Moscow, 2001, p. 153.
7. Nechkin A.V. Konstitutsionno-pravovoy status pravitel'stv stran sodruzhestva nezavisimyykh gosudarstv (sravnitel'noye issledovaniye) [The constitutional and legal status of the governments of the Commonwealth of Independent States (comparative study)]. Abstract of PhD dissertation. Yekaterinburg, 2015, 16 p.

8. Chepus A. Parlamentskaya otvetstvennost` pravitel'stva: konstitutsionno-pravovoye i sravnitel'noye issledovaniye [Parliamentary Responsibility of the Government: Constitutional-Legal and Comparative Research]. Abstract of Doctoral dissertation. Penza, 2020, 34 p.
9. Turdiyev X. Parlament va hukumat munosabatlarining tashkiliy-huquqiy mexanizmini takomillashtirish masalalari [Issues of improving the organizational and legal mechanism of parliamentary and government relations]. Abstract of PhD dissertation. Tashkent, 2021, 15 p. Available at: https://www.akorda.kz/ru/official_documents/constitution/.
10. Divayeva G.Yu. Institut parlamentskogo kontrolya: konstitutsionno-pravovoy aspekt [Institute of Parliamentary Control: constitutional and legal aspect]. Abstract of PhD thesis. Kazan, 2004, p. 13.
11. Toporkova M.K. Konstitutsionno-pravovoy status chlenov Pravitelstva Rossiyskoy Federatsii [Constitutional and legal status of members of the Government of the Russian Federation]. Abstract of PhD dissertation. Moscow, 2004, 24 p.
12. Hoschimkhanov A. Rechtliche Aspekte des Status und der Stellung des Premierministers im Ausland: Eine vergleichende rechtliche Analyse [Legal Aspects of the Prime Minister's Status and Position Abroad: A Comparative Legal Analysis]. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 2022, vol. 2, iss. 1.4, Legal sciences, pp. 113–118. ISSN 2749-0866 DOI: 10.5281/zenodo.6458119/. Available at: <https://berlinstudies.de/index.php/berlinstudies/article/download/362/350/>.
13. Constitution of the Republic of Lithuania. Available at: https://www.lrs.lt/home/Konstitucija/Konstitucija_RU.htm/.
14. Hoshimkhonov A.M. Mechanisms for ensuring the powers of the Cabinet of Ministers. *Journal of Law Research*, 2022, vol. 7, iss. 4, pp. 5–11. DOI: 10.5281/zenodo.6545054/. Available at: <https://www.tadqiqot.uz/index.php/law/article/download/4572/4331/>.
15. Strelnikov A.O. Responsibility of the Government to the Parliament in the Russian Federation under Constitutional Law. *Actual Problems of Russian Law*, 2018, no. (1), pp. 35–40. DOI: 10.17803/1994-1471.2018.86.1.035-040/.

UDC: 342.5 (045) (575.1)

DAVLAT BOSHQARUVI SHAKLIGA HOKIMIYAT TARMOQLARI O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNING TA'SIRI MASALALARI

Turdiyev Hayitjon Usmonqul o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b.,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD).

ORCID: 0000-0003-1123-2678

e-mail: x.turdiyev@tsul.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlatning boshqaruv shakliga hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi munosabatlarning ta'siri masalalari tahlil etilgan. Davlat hokimiyati tizimida parlament va hukumat o'rtasidagi oqilona muvozanat muammosi bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat va ijro etuvchi hokimiyat o'rtasidagi munosabatlar har bir davlatning boshqaruv shakliga bevosita ta'sir qiluvchi muhim vositadir. Muallifning fikricha, hokimiyat tarmoqlari kuzatuvchi vazifasini bajarmasdan, bir-birini nazorat qilishi va o'zaro hamkorlikda davlat mexanizmini amalga oshirishi muhim hisoblanib, bu jarayonda hokimiyat tarmoqlari o'z vakolatlarini mustaqil amalga oshirishlari lozim. Shuningdek, muallif mazkur munosabatlarning zamonaviy modellarini hokimiyatlar bo'linishi prinsipi hamda o'zaro muvozanat va bir-birini tiyib turish tamoyiliga ko'ra quyidagi turlarga ajratadi: prezidentlik, parlamentar va aralash. Maqolada xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasi hamda huquqshunos olimlarning davlat boshqaruvi shakliga oid yondashuvlarini tahlil qilgan holda, hokimiyat tarmoqlari funksiyalari, vazifalari va vakolatlari hamda javobgarligi va bir-birini nazorat qilish darajasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi shaklining o'ziga xos xususiyatlari ham yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: hokimiyatlar bo'linishi prinsipi, davlat boshqaruvi shakli, parlament, prezident, hukumat, o'zaro muvozanat va bir-birini tiyib turish tamoyili, davlat mexanizmi.

ВОПРОСЫ ВЛИЯНИЯ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ВЕТВЯМИ ВЛАСТИ НА ФОРМУ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ

Турдиев Хайитжон Усмонкул угли,

доктор философии по юридическим наукам (PhD), и. о. доцента
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье проводится комплексный анализ роли государственного управления в эффективной реализации принципа разделения властей. На сегодняшний день актуальна проблема рационального баланса между парламентом и правительством в системе государственной власти. Взаимоотношения между законодательной и исполнительной властью являются важным инструментом, который напрямую влияет на форму правления государства. По мнению автора, важно, чтобы ветви власти осуществляли контроль друг друга и реализовывали государственный механизм во взаимном сотрудничестве, но при этом должны осуществлять свои полномочия самостоятельно. Также автор квалифицирует современные модели этих отношений по типам в зависимости от принципа разделения властей и системы сдержек и противовесов: президентские, парламентские и смешанные.

Проанализированы передовой опыт зарубежных стран и подходы ученых-правоведов о форме государственного правления, учитывая специфику формы государственного управления Республики Узбекистан, задач и полномочий ветвей власти и уровня ответственности и взаимного контроля.

Ключевые слова: принцип разделения властей, форма правления, парламент, президент, правительство, система сдержек и противовесов, государственный механизм.

ISSUES OF INFLUENCE OF RELATIONS OF THE BRANCHES OF POWER FOR THE FORM OF STATE GOVERNMENT

Turdiyev Khayitjon Usmonkul ugli,

Acting Associate Professor of
Tashkent State University of Law, PhD in Law

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the role of public administration in the effective implementation of the principle of separation of powers. The problem of rational balance between parliament and government in the system of state power is relevant today. The relationship between the legislature and the executive is an important tool that directly affects the form of governance of each state. According to the author, the control and interaction of the branches of government without acting as an observer is important in the implementation of the state mechanism, but in the process, the branches of government must exercise their powers independently. The author also divides modern models of these relations into the following types depending on the principle of separation of powers and the principle of mutual balance and restraint: presidential, parliamentary and mixed. Analyzing the best practices of foreign countries and the approaches of legal scholars to the form of governance, given the specifics of the form of governance of the Republic of Uzbekistan in terms of functions, tasks and powers of the branches of government and the level of responsibility and mutual control.

Keywords: separation of powers, the form of government, parliament, president, government, a system of checks and balances, mechanism of the state.

Kirish

Davlatning boshqaruv shakli bevosita hokimiyatlar bo'linishi prinsipini amalga oshirishga bog'liq bo'lib, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi munosabatlar boshqaruv modellari shakliga ta'sir qiluvchi eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. Parlament va ijro etuvchi hokimiyat o'rtasidagi munosabatlarni bir-biriga o'zaro bog'liq bo'lgan aloqalar sifatida xarakterlash mumkin. Mazkur masalada huquqshunos olim R. Xakimovning fikricha, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar "davlat oldida turgan umummilliy vazifa va funksiyalarni hal qilish uchun ular o'rtasida mustahkam va samarali hamkorlik hamda uzviy aloqadorlik o'rnatish zaruratini ham taqozo etadi" [1, 76-b.].

Ko'rinib turibdiki, parlament va hukumat o'rtasidagi aloqalar hokimiyatlar bo'linishi prinsipida davlat o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishish uchun o'zaro muvozanat, hamkorlik va nazorat asosida amalga oshiriladi. O'z o'rnida davlat hokimiyati tizimida parlament va hukumat o'rtasidagi oqilona muvozanat muammosi xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy qonunchiligi va huquqshunos olimlar tadqiqotlarida dolzarbligicha qolmoqda.

Material va metodlar

Mazkur tadqiqot ishida quyidagi masalalar tahlil qilindi: birinchidan, davlat boshqaruvi shakli modellariga hokimiyatlar bo'linishi prinsipi sharoitida qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat munosabatlari-ning ta'sirini tahlil qilish; ikkinchidan, xorijiy davlatlarda davlat boshqaruvi shakllarining

rivojlanishida parlament va hukumat munosabatlari takomillashuvi tendensiyalarini tadqiq qilish va milliy qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish.

Yuqorida sanab o'tilgan masalalarga javob topish maqsadida mazkur tadqiqot ishida tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Tadqiqot ishida tahlil qilingan birinchi masala davlat boshqaruvi shakli modellari-ga hokimiyatlar bo'linishi prinsipi sharoitida qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat munosabatlarning ta'sirini tahlil qilishdir. Mazkur masala zamonaviy sharoitlarda hokimiyat tarmoqlari munosabatlari mazmunini tadqiq etishni taqozo etadi.

Huquqshunos olimlar hokimiyat tarmoqlari munosabatlari-ga oid turli qarashlarni ilgari surishgan. Rossiyalik huquqshunos olim S. Avakyaning fikriga ko'ra, hokimiyatlar tarmoqlari munosabatlari mazmuni quyidagilarni qamrab oladi: 1) har bir hokimiyat tarmog'i o'z vakolatlariga ega bo'ladi; 2) hokimiyat tarmoqlari o'zaro mustaqil va bir-birining vakolatlariga aralashmagan holda faoliyat olib boradi; 3) har bir hokimiyat tarmog'i boshqalariga ta'sir etish vositalariga ega bo'ladi [2, 1978-b.]. M.Bartoning fikricha, zamonaviy davlatlar hokimiy aloqalarning "hokimlik qilish va o'zaro ta'sir etish, majburlov va hamkorlik" tiplarini o'zida mujassamlashtiradi [3, 20-b.]. Demak, zamonaviy davlat mexanizmidagi hokimiyatlar bo'linishining mavjudligi hokimiyat tarmoqlari vakolatlarini amalga oshirishda ular o'rtasidagi doimiy qarama-qarshilik, siyosiy nizolar masalalari dolzarb ahamiyat kasb etayotganligini ko'rsatmoqda.

Hokimiyat tarmoqlari kuzatuvchi vazifasini bajarmasdan, bir-birini nazorat qilishi va o'zaro hamkorlikda ish yuritishi davlat mexanizmini amalga oshirishning muhim shartidir. Biroq bu jarayonda hokimiyat

tarmoqlari o'z vakolatlarini mustaqil amalga oshirishlari lozim. Klassik hokimiyatlar bo'linishi tamoyilidagi asosiy masala qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat vakolatlarining oqilona muvozanatidir. Parlament va hukumat munosabatlari bevosita davlat boshqaruvi shakliga ta'sir ko'rsatadi.

Y. Popovanning fikricha, "hokimiyatlar-ni bo'linishi prinsipi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlar o'rtasida raqobat va nizolarning vujudga kelishini nazarda tutadi. Raqobat aholining ishonchini qozonishga erishishga intilish orqali davlat hokimiyati organlarining samarali faoliyatini kuchaytiradi. Nizo, o'zining salbiy qarama-qarshiligiga qaramay, har ikkala hokimiyat tarmoqlarining o'zaro hamkorligi uchun muayyan ijobiy ta'sir ko'rsatadi. U qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlarni kelishmovchilik vujudga kelishiga bo'lgan sabablarini izlab, ularni bartaraf etishga undaydi" [4, 181-b.].

Davlat hokimiyati tizimida parlamentning tutgan o'rni hamda roli, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari o'rtasidagi munosabatlarga ko'ra, parlamentarizm qaror topishining o'ziga xos modellari-ni aniqlash mumkin.

Mazkur masala N. Musayevaning fikricha, quyidagi uch xil ko'rinishda namoyon bo'ladi: 1) monistik parlamentarizm – hukumat davlat boshlig'idan farqli o'laroq, faqat parlament oldida javobgar bo'ladi; 2) dualistik parlamentarizm – qarorlar qabul qilishda davlat rahbari va quyi palata mavjud bo'lgani holda, parlament va hukumat nisbiy muvozanatini anglatib, bunda ikki hokimiyat kelishuvi va ishonchi asosida hukumat faoliyat yuritadi; 3) ratsionallashtirilgan parlamentarizm – parlamentar respublika va monarxiyalarda qonun chiqaruvchi hokimiyat faqat hukumatning boshlig'ini tayinlaydi, u, o'z navbatida, mustaqil ravishda hukumatni shakllantiradi va konstruktiv ishonchsizlik votumiga ega bo'ladi [5, 17-b.]. Qayd etish lozimki, ratsionallashtirilgan parlamentarizm sharoitida siyosiy tanazzulning oldini olish uchun huku-

mat unga bildirilgan ishonchsizlikdan so'ng iste'foga chiqishni rad qilsa, parlamentni tarqatib yuborishi mumkin.

Huquqshunos olim Sh. Zulfiqarovning fikricha, parlament va hukumatning o'zaro hamkorligi quyidagi prinsiplar doirasida amalga oshadi: 1) davlat hokimiyati va ijro etuvchi tarmoqlari mustaqilligi prinsipi; 2) hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlari harakatlarining kelishilganligi prinsipi; 3) o'zaro hamkorlik prinsipi; 4) o'zaro javobgarlik prinsipi; 5) qarama-qarshiliklarni kelishuv asosida bartaraf etish prinsipi [6, 181-b.]. Bizningcha, parlament va hukumat o'rtasidagi munosabatlar yangi davrda o'ziga hos modifikatsiyalarga uchradi hamda o'zaro raqobatdan o'zaro kelishuvga aloqalariga aylandi. Barcha davlatlarda hukumat siyosiy partiyalar saylovchilar ishonchiga ega bo'lish orqali o'zaro bir maqsadni ko'zlovchi quyi palata va hukumatni hosil qilmoqda.

Ma'lumki, davlat hokimiyati va boshqaruvining tashkiliy-huquqiy masalalarida hukumatni shakllantirish eng muhim masala hisoblanadi. K. Djumabayevning fikricha, qonun chiqaruvchi hokimiyat organlari ijro hokimiyati ustidan turli usullarda nazoratni amalga oshiradi. Ulardan biri sifatida parlament ijro hokimiyatini tashkil etuvchi organlar va mansabdor shaxslarni shakllantirishda ishtirok etadi. Zamonaviy demokratik davlatlarda ijro hokimiyatining dualistik shakli mavjud: butun xalq manfaatlarini ifoda etuvchi davlat boshlig'i va davlat boshqaruvi ishlari bilan shug'ullanuvchi vazirlar mahkamasi [7, 52-b.].

Xorijiy tajriba

Mazkur tadqiqot doirasidagi ikkinchi masala xorijiy davlatlarda davlat boshqaruvi shakllarining rivojlanishida parlament va hukumat munosabatlari takomillashuvi tendensiyalarini tadqiq etishdir. Xorijiy mamlakatlarda boshqaruv tizimi tendensiyalari davlat boshqaruvi shaklining o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. N. Blajichning fikricha, aralash shakldagi respublikalarda

prezident parlamentdagi ko'pchilik (ular ortida turgan siyosiy kuchlar) hukumatni shakllantirish huquqi uchun raqobatga kirishadi. Bunday davlatlarda ko'p holatlarda prezident boshchiligida, parlament ko'pchiligi va davlat boshlig'i tomonidan shakllantirilgan hukumatdan iborat "partiya hokimiyati" vujudga keladi. Masalan, Fransiya prezidentlik-parlamentar respublika bo'lgani uchun bunday ayrim siyosiy vaziyatlarda prezident parlament ko'pchiligiga ega partiyaning nomzodini bosh vazir lavozimiga tayinlashga majbur.

Qayd etish lozimki, Fransiyadan farqli ravishda Buyuk Britaniyada monarx ramziy ma'noda saylovlarda parlament asosiy o'rinlarni olgan partiya liderini tasdiqlaydi, xolos. Bosh vazir esa o'z partiyasidan hukumat a'zolarini shakllantiradi. Bundan tashqari, an'anaga ko'ra, mag'lubiyatga uchragan partiya hukumatni nazorat qilish uchun muxolifat kabineti tuzishi mumkin bo'lib, u "soyadagi kabinet" (Shadow Cabinet) deb ataladi [8].

Chexiyalik olim M. Brunchikning fikricha, Yevropaning ko'plab mamlakatlarida hukumatni shakllantirish uchun bosqich: dastlab Bosh vazir lavozimiga nomzod ilgari suriladi, ikkinchi bosqichda hukumat a'zolari tasdiqlansa, so'nggi bosqichda hukumat parlament ishonchiga ega bo'lishi lozim [9, 30-b.]. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida hukumatni shakllantirish jarayonida koalitsion hukumat tuzilishi keng tarqalgan. Koalitsion hukumat shakllanishi Yevropa mamlakatlari amaliyotida juda ko'p uchraydi. Norvegiyalik olim, Kaliforniya universiteti professori Kaare Stryomning fikricha, parlamentda biron-bir partiyada hukumatni shakllantirish uchun ko'pchilik o'rin mavjud bo'lmasa, "kamchilik holati" (Minority situation) vujudga keladi hamda partiyalararo koalitsiya tuzilishi talab etiladi [10, 293-b.].

M. Axmedshayevaning fikricha, ijro hokimiyati o'z tizimi va tarkibining kengligi bilan boshqa hokimiyat tarmoqlaridan ajralib turadi hamda bu hokimiyat tarmog'i juda

katta boshqaruv va moliyaviy resurslar, tashkiliy imkoniyatlarga ega [11, 111-b.]. Bu esa hokimiyat vakolatlarini suiiste'mol qilishning oldini olish zaruriyatini vujudga keltiradi. Bunda hukumatning birlamchi manbayi bo'lgan, uni shakllantirgan parlament nazorati samarali usul hisoblanadi.

R. Xakimovning fikricha, ko'plab davlatlar tajribasida parlament va hukumat munosabatlarida, odatda, "nisbat ijro etuvchi hokimiyat tomon og'ishini kuzatish mumkin" [12, 75-b.]. Fikrimizcha, buning sababi sifatida hukumat o'zining tuzilmasi yirikligi va moliyaviy resurslar, tashkiliy-boshqaruv imkoniyatlarga egaligi bilan boshqa hokimiyat tarmoqlaridan ajralib turadi. Parlamentning asosiy vazifalaridan biri ham hukumatning qonunlar ijrosi jarayonida hokimiy vakolatlarni monopol-lashtirishga yo'l qo'ymaslikdir.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida hukumatni shakllantirish jarayonida koalitsion hukumat tuzilishi keng tarqalgan. Koalitsion hukumat shakllanishi Yevropa mamlakatlari amaliyotida juda ko'p uchraydi. Parlamentda biron-bir partiyada hukumatni shakllantirish uchun ko'pchilik o'rin mavjud bo'lmasa, "kamchilik holati" (Minority situation) vujudga keladi hamda partiyalararo koalitsiya tuzilishi talab etiladi.

Jadval

Yevropa mamlakatlarida hukumatni shakllantirish dinamikasi XX asrning ikkinchi yarmida

Mamlakat nomi	Ko'pchilik hukumati	
	Bir partiya	Koalitsiya
Avstriya	4	16
Belgiya	3	26
Buyuk Britaniya	19	0
Germaniya	1	22
Ispaniya	2	0
Italiya	0	25
Niderlandiya	0	19
Fransiya	1	15
Shvetsiya	2	5
Jami	32	128

Mazkur jadvaldan ko'rinib turibdiki, Yevropaning ko'plab davlatlarida (60 %dan ortiq) hukumat koalitsion shakllantiriladi. So'nggi yillarda ham Buyuk Britaniya, Germaniya kabi davlatlarda parlamentga saylovlarda yagona partiya ko'pchilik ovozga ega bo'lgani yo'q. Xulosa qilish mumkinki, koalitsion hukumat shakllanadigan mamlakatlar parlamentar boshqaruv shakliga ega.

Biroq yuqoridagi fikrlardan bir qarashda parlament va hukumat munosabatlari o'zaro raqobatga asoslangan hamda hokimiyatni egallashga qaratilgan kurash sifatida tushunilmasligi lozim. Zamonaviy yondashuvlar ushbu aloqalar o'zaro hamkorlik va ratsional raqobat orqali bir-birini tiyib turish va muvozanatda saqlash, pirovardida huquqiy demokratik davlatda xalq manfaatlarini himoya qilish orqali ro'yobga chiqishini ko'rsatmoqda.

Tadqiqot natijalari va tahlili

Mazkur tadqiqot ishi yuzasidan tahlillar davlat boshqaruvi shaklini aniqlash hokimiyatlar bo'linishi prinsipida qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyati munosabatlarida davlat boshlig'ining ishtiroki bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasiga muvofiq, davlat hokimiyati tizimi uch tarmoqqa bo'linishi prinsipi tan olingan. Shu bilan bir qatorda, prezident ham konstitutsiyaga muvofiq, davlat boshlig'i sifatida davlat hokimiyatini amalga oshiradi. Bunda davlat rahbarini qaysi hokimiyat tarmog'iga kiritish masalasi bahsli hisoblanadi. Parlament va hukumat o'rtasidagi munosabatlarda prezidentning ishtiroki davlat boshqaruv shakliga bevosita ta'sir qiladi. Masalan, prezidentlik respublikasida ijro hokimiyatining parlament oldida javobgarligi mavjud bo'lmaydi. Shu jihatdan qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlar munosabatlarini to'liq yoritish mamlakat prezidentining ishtirokini o'rganishni taqozo qiladi.

I. Tulteevning fikricha, O'zbekiston Respublikasi misolida prezident parlament

va hukumat o'rtasidagi bog'lovchi "zanjir" (Konstitutsiyada prezidentga bag'ishlangan bob parlament va Vazirlar Mahkamasi oralig'ida joylashganligi ham buni isbotlaydi) hisoblanadi [13, 45-b.].

Rossiyalik huquqshunos olim I. Xutinayev prezidentni cheklovlar va muvozanat harakat doirasidan butunlay chiqarib, uni "arbitr" sifatida tushuntiradi. Uning fikricha, hokimiyatlar bo'linishida hokimiyatning uch tarmog'i nafaqat bir-birini tiyib turishi, balki funksional jihatdan teng bo'lishi lozim [14, 6-b.]. O.Ye. Kutafinning fikricha, neytral hokimiyat sifatida "har qanday siyosiy inqiroz sharoitida boshqa davlat hokimiyati tamroqlari mamlakatni boshqara olmagan davrda, aynan davlat boshlig'i hokimiyatning o'ziga xos zaxirasi sifatida vaziyatdan olib chiqish yo'lini topishi lozim" [15, 6-b.].

Bu borada huquqshunos olimlar orasida ikki xil yondashuvni ko'rish mumkin. Birinchi yondashuv tarafdorlari O. Voloshuk, A. Kotenkov, B. Lazerevlar mamlakat prezidenti birona hokimiyat tarmog'iga kirmaydi, deb ta'kidlasa, ikkinchi yondashuv vakillari M. Baglay, V. Nersesyans, Z. Islomov, G. Malikovalar prezident ijro hokimiyati organi hisoblanishi haqidagi fikrni ilgari suradilar [16, 25-b.].

Dastlabki yondashuv tarafdorlari prezident formal jihatdan biron-bir hokimiyat tarmog'iga kirmasligi, ulardan yuqori turishi, alohida "to'rtinchi hokimiyat" – "prezident hokimiyati" g'oyasini ilgari suradilar. Ammo bu yondashuv klassik hokimiyatlar bo'linishi nazariyasiga zid. Ikkinchi yondashuv tarafdorlari esa prezident ijro hokimiyati rahbari hisoblanmasa-da, uning farmon va qarorlari ijro xarakteriga egaligi, hukumatning dasturlari prezident qarorlariga asoslanishi, uning vakolatlarida ijro hokimiyatining ayrim organlari bo'ysunuvi mavjudligi sababli uni ijro hokimiyatining bir qismi deb hisoblaydilar.

Prezidentlik instituti masalalari bo'yicha tadqiqot ishlari olib borgan huquqshunos olim M. Mirakulovning fikricha, O'zbekiston

Respublikasida davlat boshlig'ining huquqiy maqomi va davlat hokimiyatini amalga oshirishdagi uning faktik roli davlat boshqaruv shakli va siyosiy rejim bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasida Prezident davlat hokimiyati organlari tizimida markaziy o'rinni egallaydi. O'zbekistonda aralash respublika boshqaruv shakli shakllangan. Prezidentlik instituti mazmunga ko'ra ijro hokimiyati tarmog'i instituti hisoblanadi [17, 25-b.]. Z. Askarovning fikricha, "O'zbekistonda hokimiyatlar bo'linishi tamoyilini amalga oshirishda davlat hokimiyati tizimi va mexanizmini isloh qilishga asoslangan boshqaruvning aralash modeliga o'tish kuzatilmoqda" [18, 21-b.].

Xulosalar

Yuqorida muhokama qilingan nazariy masalalar va xorijiy davlat tajribasi quyidagi xulosalarni ishlab chiqishga xizmat qildi:

Birinchidan, davlat hokimiyati tizimida parlament va hukumat o'rtasidagi munosabatlar hokimiyatlar bo'linishi prinsipida vujudga keluvchi, o'zaro muvozanat va bir-birini tiyib turish tizimiga asoslangan, davlatning maqsad va vazifalarini bajarishga qaratilgan, mamlakat hayotidagi eng muhim munosabatlar sifatida davlatning boshqaruv shakliga ta'sir qiladi.

Ikkinchidan, xorijiy mamlakatlarda davlat hokimiyati tizimida parlament va hukumat o'rtasidagi munosabatlarning zamonaviy modellari hokimiyatlar bo'linishi prinsipi, o'zaro muvozanat va bir-birini tiyib turish tamoyili hamda davlat rahbarining konstitutsiyaviy vakolatlariga qarab, quyidagi turlarga ajratish mumkin: prezidentlik, parlamentar va aralash respublika modellari. Bunda hokimiyat tarmoqlari funksiyalari, vazifalari, vakolatlari, javobgarligi va bir-birini nazorat qilish darajasi o'zaro farq qilib, natijada yagona davlat hokimiyati turli ko'rinishda amalga oshiriladi.

Jahon mamlakatlarida davlat boshlig'i vakolatlarining bir qismi hukumatga o'tkazilishi va hukumatni shakllantirish jarayonida

parlamentning ishtiroki hamda partiyaviy demokratiyani yanada kuchaytirishga intilish kuzutilmoqda. Mazkur jarayonlar davlat boshqaruvi turli shakllari rivojlanish tendensiyalariga jiddiy ta'sir etayotganligi natijasida har bir davlat uchun samarali, barqaror davlat boshqaruvi tizimi va siyosiy rejimini ta'minlashning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat boshlig'i sifatida ijro hokimiyatiga oid vakolatlarga ega hamda mazkur hokimiyat tarmog'iga yaqin, ammo uning organlari tizimiga kirmaydi, shu bilan birga, barcha hokimiyat tarmoqlari orasida hakamlilik vazifasini bajarib, ularning hamkorligini ta'minlaydi hamda parlament va hukumat munosabatlarining ajralmas qismi sanaladi.

Xulosa qilish mumkinki, qonunchilik va davlat hokimiyati qurilishi tizimini yanada demokratlashtirishga oid islohotlarni inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi prezidentlik-parlamentar respublika shaklida rivojlanmoqda, hukumat-

ni shakllantirish va faoliyatiga ta'sir doirasi prezident va parlament o'rtasida bo'linib, kuchli davlat boshlig'i, ijro hokimiyati rahbari sifatida Bosh vazir lavozimining mavjudligi, hukumatning parlament va prezident oldida javobgar ekanligi va hukumat faoliyati usidan parlament nazoratining turli shakllari mavjudligi kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

To'rtinchidan, davlat boshqaruvi huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va demokratlashtirish maqsadida hukumatni shakllantirish jarayonida rivojlangan davlatlar tajribasi asosida parlament ishtirokini kuchaytirish, Vazirlar Mahkamasining harakatlar dasturining parlament tomonidan qabul qilinishi va nazorat qilinishi asoslarini qonunchilikda belgilash, parlament eshituvlari ("hukumat soati")da dolzarb savollar berish amaliyotini qo'llash va parlament tekshiruvini qo'zg'atish asoslarini qonunchilikda mustahkamlash hamda parlament nazoratining yangi shakllarini joriy etish, Vazirlar Mahkamasining parlament oldida javobgarligini kuchaytirish taklif qilinadi.

REFERENCES

1. Xakimov R. Davlat hokimiyati tizimida parlament: nazariya va amaliyot muammolari [Parliament in the system of state power: problems of theory and practice]. PhD thesis. Tashkent, 2009, p. 76.
2. Avakyan S. Konstitutsionnoye pravo Rossii [Constitution Law of Russia]. Moscow, TK Velby, Prospekt Publishing House, 2007, pp. 56–57.
3. Avdeev D. Rossiyskiy variant printsipa razdeleniya vlastey [Russian version of the principle of separation of powers]. *Law and Politics*, 2013, no. 13 (168), p. 1798.
4. Barto A. Vzaimodeystviye organov zakonodatel'noy i ispolnitel'noy vlasti v realizatsii politicheskikh reform (po materialam Krasnodarskogo kraya i Rostovskoy oblasti) [Interaction between legislative and executive authorities in the implementation of political reforms (based on the materials of the Krasnodar Territory and the Rostov Region)]. Abstract of PhD dissertation. Krasnodar, 2010, p. 20.
5. Popova Yu.Yu. Organizatsionno-pravovye formy vzaimootnosheniy organov zakonodatel'noy (predstavitel'noy) i ispolnitel'noy vlasti sub'yektov Rossiyskoy Federatsii: na primere Dal'nevostochnogo okruga [Organizational and legal forms of relations between the legislative (representative) and executive authorities of the subjects of the Russian Federation: on the example of the Far Eastern District]. Abstract of PhD dissertation. Vladivostok, 2010, p. 8.

6. Zulfiqorov Sh. et al. Parlament va hukumatning o'zaro munosabatlari: qiyosiy-huquqiy tahlil [The relationship between parliament and government: a comparative-legal analysis]. Tashkent, TSU Publ. House, 2015, p. 181.
7. Musayeva N. Jamiyatni demokratlashtirishda ikki palatali parlamentning ahamiyati [The role of a bicameral parliament in democratizing society]. PhD thesis. Tashkent, UzSWLU, 2007, p. 12.
8. Djumabayev K. Zakonodatel'naya i ispolnitel'naya vlasti: vzaimosvyaz' i vzaimodeystviye [Legislative and executive power: relationship and interaction]. PhD thesis. Tashkent, TSUL, 1993, pp. 52–53.
9. Blazhich N. Modeli razdeleniya vlastey v pravovom gosudarstve [Models of separation of powers in a rule of law state]. Abstract of PhD dissertation. Moscow, 2004, p. 18
10. The UK Parliament. Available at: <https://www.parliament.uk/site-information/glossary/shadow-cabinet/>.
11. Brunclik M. Patterns of Government Formation in Europe: the role of the head of state. *Czech Journal of Political Science*, 2015, no. 1, p. 30.
12. Strom K. Minority government and majority rule. Cambridge, Cambridge Univ. Press, 1990, 293 p.
13. Sidorov V. Dinamika koalitsionnykh pravitel'stv v parlamentskikh demokratiyakh [Dynamics of coalition governments in parliamentary democracies]. *Uchenye zapiski Kazanskogo universiteta, Gumanitarnye nauki – Scientific notes of Kazan University, Humanities*, 2011, vol. 153 (1), p. 192.
14. Akhmedshayeva M.A. Davlat hokimiyati tizimida ijro hokimiyati [Executive power in the system of state power]. Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2010, p. 111.
15. Xakimov R. Davlat hokimiyati tizimida parlament: nazariya va amaliyot muammolari [Parliament in the system of state power: problems of theory and practice]. PhD thesis. Tashkent. 2009, p. 75.
16. Tul'teev I.T., Toshkanboyev U.T. Pravovoy mekhanizm vzaimodeystviya Oliy Mazhlisa i Kabineta Ministrov: sostoyaniye, problemy i resheniya [Legal mechanism of interaction between the Oliy Majlis and the Cabinet of Ministers: status, problems and solutions]. Tashkent, 2014, p. 45.
17. Khutinayev I. Institut prezidentstva i problemy formy gosudarstva [Institute of presidency and problems of the form of the state]. Moscow, 1994, p. 31–32.
18. Krasnov M.A. "Neytral'naya vlast'" B. Konstana i "prezidentskiy arbitrazh" Sh. de Gollia ["Neutral power" by B. Constant and "presidential arbitration" by Charles de Gaulle]. *State and Law*, 2017, no. 6, pp. 60–69. EDN YSRZPF.
19. Mirakulov M. Pravovoye polozheniye Prezidenta Respubliki Uzbekistan v sisteme gosudarstvennoy vlasti [Legal status of the President of the Republic of Uzbekistan in the system of state power]. Law: history, theory, practice. Proceedings of the III Intern. scientific conf. St. Petersburg, 2015, July. St. Petersburg, Own Publ. house, 2015, p. 25.
20. Askarov Z.S. O'zbekiston Respublikasida milliy davlatchilik shakllanishining nazariy-huquqiy masalalari [Theoretical and legal issues of formation of national statehood in the Republic of Uzbekistan]. Abstract of PhD dissertation. Tashkent, SPbPU, 2018, p. 21.

UDC: 339.5(045)(575.1)

BOJXONA TARTIB-TAOMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Habibov Rustam Izatullayevich,
O'zbekiston Respublikasi DBQ
Bojxona instituti boshlig'i o'rinbosari
ORCID: 0000-0002-0646-6552
e-mail: tiger.1974@list.ru

Annotatsiya. Maqolada chegara bojxona postlari inspektorlari yukli transport vositalarini bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazish amaliyoti tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida Bojxona kodeksida ko'zda tutilmagan bo'lsa-da, turli normativ hujjatlar bilan kirib qolgan protseduralar, masalan, tranzit transporti mamlakat yo'llaridan foydalangani uchun yig'im, tusi o'zgartirilgan foyda uchun yig'im yoki yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun jarima undirish kabi vazifalar bojxonaga yuklanganligi aniqlangan. Qonunchilikda transport vositasining chegaradan o'tish reglamenti belgilangan, bojxona nazorati obyekti tovar, bojxona to'lovi va qonunbuzarlik ekanligi aniq belgilangan. Ammo asosiy ishdan ko'ra, qo'shimcha ish ulushi umumiy jarayonda vaqtni olmoqda. Bojxonada tirbandlik masalasi ko'tarilganda, bojxona protseduralarini soddalashtirishga e'tibor qaratiladi, ortiqcha vazifalarni tegishli organlarga qaytarib berish takliflardan tushib qoladi. Ushbu maqolada ko'tarilgan masala qiymati bojxona imiji, mamlakatimizning xalqaro savdoni erkinlashtirish sa'y-harakatiga teng.

Kalit so'zlar: chegara bojxona postlari, bojxona tartib-taomillari, bojxona yig'implari, vaqtni qisqartirish, bojxona rasmiylashtiruvi, xalqaro yuk tashuvlari.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТАМОЖЕННЫХ ПРОЦЕДУР

Хабибов Рустам Изатуллаевич,
заместитель начальника
Таможенного института
ГТК Республики Узбекистан

Аннотация. В статье анализируются время и содержание таможенного оформления грузовых транспортных средств инспекторами таможенных постов. В ходе исследования установлено, что инспекторы вынуждены осуществлять процедуры, не предусмотренные Таможенным кодексом, но возложенные на них другими нормативными актами, такими как взимание платы за эксплуатацию дорог в транзите и тонированные стекла, штрафа за нарушение правил дорожного движения. Законодательством установлено предельное время пересечения транспортом границы, четко определены объект таможенного контроля, это – товары, таможенные платежи и правонарушения. Но зачастую на основную работу тратится меньше времени, чем за дополнительную. Когда поднимается вопрос о перегруженности таможенного поста, акцент делается на упрощение таможенных процедур, а перераспределение не свойственных функций упускается из перечня предложений. Значение вопроса, рассмотренного в рамках данной статьи, равнозначно имиджу таможни, усилиям нашей страны по либерализации международной торговли.

Ключевые слова: приграничный таможенный пост, таможенные процедуры, таможенные сборы, сокращение времени, таможенное оформление, международные перевозки.

IMPROVEMENT OF CUSTOMS PROCEDURES

Khabibov Rustam Izzatullaevich,
The Deputy Director of Customs Institute under
SCC of the Republic of Uzbekistan

Abstract. The article analyzes the time and content of customs clearance of cargo vehicles by inspectors of customs posts. The study found that inspectors are forced to carry out procedures not provided for in the Customs Code, but imposed by other regulations, such as charging for the operation of roads in transit, fees for tinted windows, or fines for traffic violations. The legislation establishes the maximum time for crossing the border by transport, and the object of customs control is clearly defined, these are goods, customs payments, and offenses. But sometimes, less time is spent on the main work than additional. When the issue of congestion of the customs post is raised, the emphasis is on simplifying customs procedures, and the redistribution of unusual functions is omitted from the list of proposals. The price of the problem considered in the framework of this article is equivalent to the image of the customs, and the efforts of our country to liberalize international trade.

Keywords: border customs post, customs procedures, customs fees, time reduction, customs clearance, international transportation

Kirish

Mamlakatimizda so'nggi yillarda bojxona ishi samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, chegara bojxona postlari vazifalariga bojxona maqsadlaridan uzoq tartib-taomillar ham kirib qolganligini ham ta'kidlash joiz. Bu esa, o'z navbatida, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, rasmiylashtirishga sarflanayotgan vaqtni yanada qisqartirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, bojxona postlarida xizmat olib borayotgan inspektorlar vazifalarini ham qayta ko'rib chiqish kerak.

Material va metodlar

Tadqiqot maqsadi chegaralarda yuk mashinalarining navbatda turib qolishi bilan bog'liq tirbandlik muammosi har doim ham bevosita bojxona bilan bog'liq emasligiga e'tibor qaratishdan iborat.

Tadqiqot jarayonida bojxona rasmiylashtiruv jarayonlari samaradorligi qanday; ularni ixchamlashtirishga ehtiyoj bormi; bir-birini takrorlovchi funksiyalar yo'qmi; chegara bojxona postlari inspektorlariga boj-

xona maqsadlariga kirmaydigan ortiqcha ishlar yuklanmaganmi; ularni xalqaro normalarga moslashtirishga zarurat bormi kabi savollar atroflicha o'rganildi. Mazkur savollarga javob tariqasida mualliflik pozitsiyasi ishlab chiqilib, takliflar kiritildi. Demak, maqola bojxona rasmiylashtiruv jarayonlarini ixchamlashtirish, xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy, statistik, tizimli-tuzilmaviy kabi usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

JBT Bosh kotibi K.Mikuriya bojxona rasmiylashtiruvda yuklarni bojxonadan muomalaga chiqarish vaqtini qisqartirish og'riqli va munozarali masalalardan biri bo'lib qolayotganligini ta'kidlagan [1].

Olim va mutaxassislarning mavzuga oid tadqiqotlari, bildirgan fikr va mulohazalarida ko'proq bojxona organlari vazifalari klasifikatsiyasi, davlatning nazorat funksiyasi sifatidagi fiskal va huquqni muhofaza qiluvchi xususiyatlari, ularni ixchamlashtirish va raqamlashtirish masalalariga e'tibor qaratil-

gan (A.Shadmankulov, D. Xo'jamqulov va E. Nigmanov). Ammo milliy bojxona tizimimizdagi ortiqcha funksiyalar masalasi deyarli o'rganilmagan [2-4].

Barcha bojxona xizmatlari uchun xalqaro muhim hujjat hisoblangan Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish Kioto Konvensiyasi (26-iyun 1999-yil tahriri) bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va amalga oshirishni tezlashtirishni bojxona ma'muriyatchiligining asosiy prinsipi sifatida belgilaydi [5].

A. Barotov rasmiylashtiruv vaqtini qisqartirish xalqaro savdoga ko'maklashish orqali mamlakatimizning Doing Businessdagi reytingini oshirish va TIF subyektlari xarajatlari tejashga yordam berishi mumkin, deb hisoblaydi. BMT ma'lumotiga ko'ra, xalqaro savdoda rasmiylashtirish xarajatlari tovar qiymatining 3,5 %dan 7 %gacha qiymatini tashkil etmoqda [6]. O.V. Markina tovarlar logistikasi va bojxona chegarasida yo'qotilgan vaqt, foydaning yo'qotilishi, iste'molchi bo'yniga tushadigan tovar qiymatidagi xarajatlarga to'g'ri proporsional bog'liqligini tahlil qilgan [7]. S.A. Agamagomedova TIF ishtirokchilari uchun tovarlarning bojxona rasmiylashtiruviga sarflanadigan vaqtning qisqarishi bojxona tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar sifati darajasini belgilovchi muhim mezon deb ta'kidlagan [8].

O. Donokulovning fikricha, bojxona tartib-taomillari samaradorligini baholashga ham turlicha yondashilgan [9]. Masalan, Jahon banki ochiq internet saytiga joylashtirgan tadqiqot natijasiga ko'ra, Singapurda import yukini bojxonaga rasmiylashtirish uchun ko'pi bilan 4 kun, O'zbekistonda esa 92 kun sarflanadi. DBQ Raisining Oliy Majlis Qonunchilik Palatasida "2020–2023-yillarda bojxona ma'muriyatchiligini isloh qilish va bojxona organlari samaradorligini oshirish" konsepsiyasi ijrosi bo'yicha bergan hisobotida esa xavfni boshqarish tizimi yordamida eksportning 84 foizi, importning 74 foizi soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirilayot-

ganligi, har bir tovar partiyasi uchun o'rtacha eksportda 1 soatgacha (avval 2 kun) va importda 4-5 soatgacha (avval 3 kun) vaqt sarflanayotganligi ma'lum qilingan. Demak, ko'rinib turibdiki, bojxona tartib-taomillarini qayta ko'rib chiqish, ularni baholashning yagona uslubi va mezonlarini aniqlab olish lozim.

Yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev 2022-yil 17-fevral kuni bojxona xodimlari bilan o'tkazgan yig'ilishda "Bojxona tizimi mamlakatimizni jahon iqtisodiyoti bilan bog'laydigan muhim ko'pri. Bu tizim to'g'ri va ochiq-oshkora ishlamasa, tadbirkorlik va investitsiyalarga to'siq bo'ladi", deb ta'kidlagan edilar [10].

Joriy yilda mamlakatimizda Jahon savdo tashkilotiga (JTS) a'zo bo'lish bo'yicha Ishchi guruhning 5-6-yig'ilishlari o'tkaziladi. Yetakchi ekspertlar, shu jumladan, xorijiy mutaxassislar qonunchiligimizni JSB bitimlari normalariga muvofiqlashtirish ishlarini olib boradilar. Savdodagi texnik to'siqlar yuzasidan axborot-tahliliy ma'lumotlar tayyorlanadi. Demak, xalqaro savdo va biznes yuritishni yanada erkinlashtirish, tartib-taomillarni soddalashtirish, ma'muriy to'siqlarni qisqartirish dolzarb masalalar qatorida turibdi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Bojxona chegarasida soddalashtirilgan va samarali bojxona tartib-taomillari amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotiga investitsiya kiritish imkoniyatini oshiruvchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.


2026-yilda mamlakat eksporti hajmi 30 milliard AQSh dollariga yetkaziladi (2021-y. 16,6 mlrd dollar). Eksportchi korxonalar soni 6 500 tadan 15 000 taga, tovarlar eksport geografiyasi 115 tadan 150 taga yetkaziladi. MDH mamlakatlar bozorlariga eksport hajmi va nomenklaturasi oshiriladi.

2021-yilda O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi 2020-yilga nisbatan 16 %ga o'sib, 42,1 mlrd.ni dollar tashkil etgan. Eksport hajmi 10 %ga oshgan bo'lsa, import 20,4 %ga

o'sib, 25,46 mlrd.ni dollar tashkil etgan. Sanoat tovarlari eksporti oltin eksportidan o'zib ketgan [11].

Mamlakat iqtisodiyotining dinamik rivojlanishi, chegara bojxona postlari ish hajmi oshishi yukli transport vositalari tirbandligiga ta'sir etadi.

Xalqaro iqtisodiy forum bayonotida xalqaro yuklarni yetkazib berish zanjirida ma'muriy va transport xarajatlari kamayishi orqali jahon YIM o'sishida tariflarni bekor qilganga nisbatan yuqoriroq natijaga erishilishi prognoz qilingan (1-rasm) [1].



1-rasm. Xalqaro savdoni erkinlashtirish orqali erishiladigan natija prognozi

Hummels tadqiqotlariga ko'ra, 1 kun tashuvlar uchun ketgan vaqt iqtisodi 0,8 % tovar qiymatiga teng.

Qonunchilikda chegarada nazorat texnik vositalarini qo'llagan holda, yuklar nazorat tartib-taomillaridan o'tishi uchun kirish vaqti 30 daqiqa (shundan bojxona rasmiylashtiruv uchun 15 daqiqa), chiqish vaqti esa 20 daqiqa (10 daqiqa) etib belgilangan.

Qonunchilikka muvofiq, chegara bojxona postida kirish yo'nalishidagi yukli transport vositasini bojxona rasmiylashtiruv jarayoni elektronlashtirilganligiga qaramay, murakkab, ko'p vaqt va e'tibor talab etadi [12]. Buni tasavvur etish uchun inspektor bajaradigan quyidagi amallarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Chunki elektron rasmiylashtiruv birinchisi ikkinchisini to'ldiruvchi ikki

bosqichda amalga oshiriladi: bojxona nazorati (aslini tekshirish) va bojxona rasmiylashtiruv (hujjatlarni tekshirish va ma'lumotlarni tizimga kiritish).

1. Bojxona nazorati turkumidagi tartib-taomillar

1) tovar va transport vositasi hujjatlari, yuk va yo'lovchi xalqaro tashish ruxsatnomalarini qabul qilish, tekshirish; 2) bojxona xizmatlari tomonidan qo'yilgan belgi, shtamp, muhrlar mavjudligi, to'liqligi, o'zgarma-ganligini tekshirish; 3) transport vositasini IKMdan o'tkazish; 4) radiatsion fon darajasini o'lchash; 5) transport vositasi vaznini o'lchash; 6) transport vositasi nazoratda turganligi, qidiruv e'lon qilinmaganligi, TIR-karnet kitobchasi yo'qolgan yoki bekor bo'l-maganligini tekshirish; 7) haydovchi va yukka

javobgar shaxs bilan og'zaki so'rov o'tkazish; 8) plombalar buzilmaganligini tekshirish; 9) bojxona hududiga olib kirish, tranzit olib o'tish, olib kirish taqiqlangan, ruxsatnoma taqdim qilish shart tovar va transport vositalarini tekshirish; 10) bojxona ko'zdan kechiruv va bojxona ko'rigini amalga oshirish; 11) avtotransport vositasi respublikaga kirishi yoki harakatlanishi uchun yig'imlar undirish; 12) yuk-kuzatuv hujjatlari va nusxalariga shtamp va imzo qo'yib, shaxsiy muhr bilan tasdiqlash; 13) avtomobilda yuk va yo'lovchilarni xalqaro tashish uchun berilgan ruxsatnomalarga ma'lumotlar kiritib, shaxsiy muhri bilan tasdiqlash; 14) transport vositasiga plomba ilib, yuk hujjatlariga qayd etib, imzo va shaxsiy muhr qo'yish.

2. Bojxona rasmiylashtiruv turkumidagi tartib-taomillar


1) tovar va transport vositalari haqidagi ma'lumot "AVTO" YAATdagi "Tovar va transport vositalarini elektron ro'yxatga olish" kitobida avvaldan internet tarmog'i orqali yuborilgan elektron ma'lumot (1 soat avval yuboriladi) asosida shakllanadi va elektron ro'yxatga olinadi (yoki tegishli hujjatlar asosida qo'lda kiritiladi). Jo'natiladigan dastlabki ma'lumot tarkibi 10 ta bo'lim, 83 ta ma'lumotdan iborat. Elektron kitobga yig'imlar, xalqaro tashuvlar ruxsatnomasi, plomba raqamlari kiritiladi (11 paragraf, jami 80 ta katak). "AVTO" YAAT DBQ YAAT subtizimi hisoblanadi. Yuborilgan ma'lumot dastlab DBQ YAATga kelib tushadi va axborotlarni mantiqan o'zaro taqqoslash yoki bojxona or-

ganlaridagi mavjud ma'lumotlar bilan solishtirish hamda ularning belgilangan formatga muvofiqligini dastlabki tekshiruvdan o'tkazish maqsadida format-mantiqiy nazoratdan o'tkazilib, identifikatsiya raqami beriladi; 2) bir vaqtning o'zida yuksiz hamda yuk tashiyotgan xorijiy avtotransport vositalariga qaytarib olib chiqish to'g'risida majburiyatinoma va XYT/YENB (26 ta katak) kitobchalari formulyalari ma'lumotlar bilan avtomatik ravishda shakllanadi. Eksportda elektron kitobga BYD raqami kiritilganda, avtomatik ravishda YEENK shakllanadi. XYT kitobchasi-ning tegishli varag'i qo'lda to'ldiriladi. XYT kitobchasi yo'q bo'lsa, YUEENK shakllantirilib, nazoratga qo'yiladi.

Yuqoridagilar standart jarayon, nomuvofiqlik yuzaga kelganda, inspektor qo'shimcha funksiyani bajarishi uchun vaqt talab etilishi mumkin.

Ko'rinib turibdiki, bojxonada amalga oshiriladigan bojxona rasmiylashtiruv tartib-taomillari katta hajmni tashkil etadi va amaliyotda vaqt me'yorlari chegarasidan ham chiqib ketadi.

Bundan tashqari, bojxona maqsadlaridan uzoq, ammo muayyan vaqt talab etadigan, bojxonaga xos bo'lmagan quyidagi funksiyalar ham inspektor zimmasida ekanligi ma'lum bo'ldi. Bojxona rasmiylashtiruv uchun belgilangan maksimal reglament vaqt 15 daqiqani tashkil etsa, shundan 10 daqiqa bevosita bojxona maqsadlariga (67 %), qolgan 5 daqiqa (33 %) boshqa funksiyalar uchun sarflanmoqda (2-rasm).



2-rasm. Bojxona rasmiylashtiruv taomillari tarkibi tahlili

Quyida bojxona xodimlari bojxona rasmiylashtiruv jarayoniga kiritilgan, biroq bojxona maqsadlariga qaratilmagan ayrim funksiyalar va ular qaysi me'yoriy hujjatlar bilan kiritilganligi bilan tanishamiz:

1. Avtomobilda yuk va yo'lovchilarning xalqaro tashishlarini ruxsatnomalar asosida amalga oshirish (VM-202 15.03.2018)

Milliy va xorijiy tashuvchilar O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlat hududi bo'ylab avtomobilda yuk va yo'lovchilarni tashish vakolatli organlar (Transport vazirligi) bergan bir marotabalik ruxsatnoma asosida harakatlanadi.

Tashuvlarni tartibga solishdan maqsad milliy tashuvchilarni himoyalash, mamlakatimiz transport-logistika salohiyatini oshirish, tashuv narxlari barqarorligini ta'minlashdir. Ruxsatnomalar bojxona organlari tomonidan nazorat qilinadi.

2. Avtomobilda xorijiy yuk tashuvchilarning O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishlari, bo'lishlari, yuk olib o'tishlari va undan chiqib ketishlari tartibi (VM-11 11.01.1995)

Milliy qonunchilikka ko'ra, kirib kelgan avtotransportning texnik holati, yo'l qo'yila-

digan og'irlik va gabarit parametrlari, taxograflar mavjudligini tekshirish, respublika hududida harakatlanish yo'nalishlariga rioya qilishini nazorat qilish, hujjatlarni rasmiylashtirish, kirganligi hamda tranzit o'tishi uchun davlati va yuk ko'tarish quvvatiga ko'ra (\$)50–400 miqdorida yig'implarni undirish bojxona organiga yuklangan.

Bojxona xodimlari quyidagi instrumental nazoratni amalga oshiradi; transport vositasining hajmini o'lchash (og'irlik, uzunlik, kenglik va balandlik kabilar); o'qlar o'rta-sidagi masofani o'lchash; yaqin joylashgan o'qlar va o'qlar guruhini aniqlash; podveska turini aniqlash (pnevmatik yoki unga ekvivalent); transport vositasining har bir o'qida-gi g'ildiraklar sonini aniqlash; yakka o'qqa yaqin joylashgan o'qlar va o'qlar guruhiga tushadigan og'irlikni o'lchash; umumiy og'irligini o'lchash va boshqalar.

Ruxsat berilgan yuk hajmlari 5 %gacha bo'lsa, to'lov undirgan holda, 5 %dan oshsa, Transport vazirligi maxsus ruxsatnomasi hamda to'lov undirgan holda harakatlanishiga ruxsat beriladi. To'lovning 4 xil turi mavjud.

3. Tusi o'zgartirilgan oynali avtotransport vositalaridan foydalanishni tartibga solish (VM-547 18.07.2018)

Chegara bojxona postida xorijiy davlatning tusi o'zgartirilgan oynali yengil avtotransport vositalari O'zbekiston hududiga vaqtincha kirishi va tranzit harakatlanishi uchun davlat byudjetiga 15 AQSh dollari miqdorida majburiy yig'im undiriladi.

Bundan tashqari, xorijda ishlab chiqarilgan, tusi o'zgartirilgan oynalar o'rnatilgan avtotransport vositalarini import va vaqtincha olib kelish, bojxona rejimiga joylashtirishda ham undirilgan yig'im 40 % davlat byudjetiga, 60 % Yo'l harakati xavfsizligi xizmati jamg'armalariga o'tkazib beriladi.

4. O'zbekiston Respublikasi hududida yo'l harakati qoidalarini buzgan xorijiy avtotransport vositalari haydovchilaridan jarimalar undirish tartibi (VM-463 5.08.2020)

Chegara bojxona postida O'zbekiston hududida yo'l harakati qoidalarini buzgan, vaqtincha olib kirilgan xorijiy avtotransport vositasidan chiqib ketayotganda, bojxona organlari tomonidan jarimalar undiriladi. Jarima undirish ham bojxona xodimi uchun vaqt talab etadigan jarayon. Masalan, chegara bojxona posti xodimi Ichki ishlar idoralari taqdim etgan ma'lumotlar bazasi orqali onlayn rejimda transport vositalarini mustaqil ravishda tekshirib boradi. Tegishligiga ko'ra, qarordan ikki nusxa chop etadi. Jarima to'langach, DBQ YAATga tegishli ma'lumotlarni kiritadi. Yoki jarima to'langunga qadar uni vaqtincha saqlovga oladi (eksport yuklar tashuvchi transportlar bundan mustasno).

Xulosalar

Chegara bojxona postida amalga oshiriladigan bojxona rasmiylashtiruv taomillari orasida bojxona maqsadlariga mos bo'lmagan ortiqcha funksiyalar mavjud. Bu funksiyalar xalqaro yuklar hajmi yildan-yilga oshib borayotgan bir vaqtda, bojxona rasmiylashtiruvini qisqartirish, soddalashtirishga to'siq bo'ladi.

Ikki yo'lakli tizim, xavfni boshqarish, tovarni avtomatlashtirilgan ravishda chiqarish, yagona darcha, bojxona auditi, vakolatli iqtisodiy operatorlar, bojxonasiz nazorat kabi yangi texnologiyalarga o'tish orqali vaqtni qisqartirishga erishilsa-da, xos bo'lmagan funksiyalar bojxona inspektorining asosiy ishiga aylanib qolishi mumkin. Masalaning muhimligi – bu vazifalar Bojxona kodeksida yo'q (ruxsatnomadan tashqari).

Bundan tashqari, bojxona rasmiylashtiruv uchun sarflanayotgan vaqt va umuman rasmiylashtiruv taomillari, mamlakatimiz JSTga a'zo bo'lishi masalasi kun tartibiga qo'yilgan vaqtda, xalqaro ekspertlar tomonidan tahlil qilinsa, past indeks belgilanishiga sabab bo'lishi mumkin.

KPIga o'tishda ular bojxona postlari faoliyatini baholash mezoniga kirishi mantiqsiz hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflar kiritiladi:

1) yuklarni gabariti bo'yicha tekshiruvlar o'tkazish, transport vositalari ruxsatnomalarini tekshirishni Transport vazirligi vakolatiga berish;

2) yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun jarimalar undirishni ichki ishlar idoralari tomonidan o'zaro davlatlararo keli-shuv asosida undirish vakolatiga berish;

3) tusi o'zgartirilgan oynalar uchun yig'im undirish maqsadga muvofiqlik masalasini qaytadan o'rganib chiqib, ichki ishlar idoralari vakolatiga berish;

4) chegara bojxona postlarida amalga oshiriladigan bojxona tartib-taomillarini o'rganib chiqib, ularni xalqaro tan olinishi mumkin bo'lgan, bir-birini takrorlamaydigan, Yangilangan Kioto Konvensiyasi, SAFE hadli standartlari va JBTning tegishli tavsiya va kompendiumlari normalariga muvofiqlashtirish;

5) bojxona nazorati va rasmiylashtiruv tartib-taomillarini inson omilisiz, mantiqiy nazoratga asoslangan, raqamlashtirilgan texnologiyalar asosida amalga oshirishni jadal-

lashtirish maqsadida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish ishlarini davom ettirish;

6) JBT tomonidan ishlab chiqilgan "Chiqish vaqtini o'rganish" (Time release study)

qo'llanmasi uslublari asosida chegara bojxona postlarida yuk va transport vositalarining chegaradan o'tish vaqtlarini tahlil qilish amaliyotini kiritish.

REFERENCES

1. The World Economic Forum. Available at: <http://weforum.org/global-enabling-trade-2013/executive-summary/>.
2. Shadmankulov A. Iqtisodiy integratsion jarayonlarning O'zbekiston eksportini rag'batlantirishda tarif kvotasini amaliyotga joriy etish istiqbollari [Prospects of implementation of the tariff quota in the promotion of Uzbekistan's export of economic integration processes]. *O'zbekiston bojxona axborotnomasi – Customs bulletin of Uzbekistan*, 2021, no. 2, p. 52.
3. Xo'jamqulov D. Davlat bojxona organlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmat sifatini boshqarish [Management of the quality of service provided by the state customs authorities]. 2019, no. 1, p. 78.
4. Nigmanov E. O'zbekistonda bojxona tizimidagi islohotlar va ular samaradorligini oshirish yo'nalishlari [Reforms in the customs system in Uzbekistan and directions for improving their efficiency]. *O'zbekiston bojxona axborotnomasi – Customs bulletin of Uzbekistan*, 2019, no. 1, p. 83.
5. International Convention on the simplification and harmonization of customs procedures. Protocol of amendment to the International Convention on the simplification and harmonization of customs procedures. Brussels, 1999, June 26. Available at: http://www.wcoomd.org/en/topics/facilitation/instrument-and-tools/conventions/pf_revised_kyoto_conv/kyoto_new/protocol-of-amendment.aspx/.
6. Barotov A. Bojxona tartib-taomillarini xalqaro standartlar va xorijiy davlatlar tajribasi asosida takomillashtirish masalalari [Issues of improvement of customs procedures based on international standards and experience of foreign countries]. *O'zbekiston bojxona axborotnomasi – Customs bulletin of Uzbekistan*, 2021, no. 1, p. 26.
7. Markina O.V. Sovershenstvovaniye servisnoy funktsii tamozhennoy sluzhby kak prioritetnoye napravleniye yeyo razvitiya [Improvement of the service function of the entire service as priority direction and development]. Organization and technology of customs activity. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/sovershenstvovanie-servisnoy-funktsii-tamozhennoy-sluzhby-kak-prioritetnoe-napravlenie-ee-razvitiya/viewer/>.
8. Agamagomedova S.A. Optimizatsiya tamozhennykh operatsiy v projekte Tamozhennogo kodeksa Yevraziyskogo Ekonomicheskogo Soyuza [Optimization of customs operations in the draft Customs code of the Eurasian Economic Union]. *Vestnik Rossiyskoy tamojennoy akademii – Bulletin of the Russian Customs Academy*, 2015, no. 4, p. 80. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/optimizatsiya-tamozhennykh-operatsiy-v-proekte-tamozhennogo-kodeksa-evraziyskogo-ekonomicheskogo-soyuza/viewer/>.
9. Donoqulov A. Bojxona postlari faoliyatini baholash mezonlari va nazorat qilish algoritmi [Evaluation criteria and control algorithm of customs posts]. *O'zbekiston bojxona axborotnomasi – Customs bulletin of Uzbekistan*, 2020, no. 1, p. 47.
10. Bojxona tizimini korrupsiyadan xoli qilish – eng ustuvor vazifa [Making the customs system free of corruption is a top Folk]. *Xalq so'zi – People's Word*. Available at: <https://xs.uz/uzkr/post/bozhkhona-tizimini-korrupsiyadan-kholi-qilish-eng-ustuvor-vazifa/>.
11. 2021-yilda O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi 16 %ga o'sdi [In 2021, Uzbekistan's foreign trade turnover increased by 16 %]. Available at: <https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/21/trade/>.

12. Ramochnye standarty SAFE [Frame standards SAFE] Available at: http://www.wcoomd.org/-/media/wco/public/ru/pdf/topics/facilitation/instruments-and-tools/tools/safe-package/ru_safe_framework_2012.pdf?la=fr/.
13. Salimonenko E.N., Stepanov E.A. Business-process modelling of basic customs procedures in EAEU. Peer-review under responsibility of SIM 2017, 14th International Symposium in Management. DOI: 10.1016/j.sbspro.2018.03.007/.
14. Role of WCO in simplification of Customs procedures in India in terms of Revised Kyoto Convention – Lessons learnt. Submitted as a part of MCTP, Phase IV, Group VII, NACEN, Faridabad by Dr. R.K.Verma Vinay Kumar Singh Dr.S.S.Mahli Amita Singh and Khaderoo Virendra Kumar Suman. Available at: <https://nacin.gov.in/resources/file/downloads/56976cc376881.pdf/>.
15. Shujie Zh., Shilu Zh. The implication of customs modernization on export competitiveness in China. Available at: https://www.unescap.org/sites/default/d8files/7-THEI~1_0.PDF/.

UDC: 347(045)(575.1)

FUQAROLIK HUQUQ VA BURCHLARINING VUJUDGA KELISHI HAMDA ULARNI HIMOYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Imomov Nurillo Fayzullayevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik huquqi kafedrası mudiri,
yuridik fanlar doktori, professor
ORCID: 0000-0002-5961-9970
e-mail: nurillo_1212@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi F-5464-son farmoyishi bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasidan kelib chiqib, fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelishi hamda ularning himoya qilinishi masalalari tahlil qilingan. Unda fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelish asoslari sifatida yig'ilish qarorlarining huquqiy tabiati, yuridik fakt sifatidagi o'rni va mohiyati xorijiy davlatlar qonunchiligi asosida o'rganilgan hamda FKning yangi tahririga yig'ilish qarorlariga oid qoidalarini kiritish bo'yicha takliflar asoslantirilgan. Shuningdek, fuqarolik huquqlarining siyosiy huquqlardan mustaqilligiga oid qoidalar ham fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelishiga ta'siri nuqtayi nazaridan tahlil etilgan va bu haqdagi normalarni ham yangi tahrirdagi FKga kiritish g'oyasi ilgari surilgan. Bundan tashqari, mazkur maqolada shaxs o'zining fuqarolik huquqlari buzilganda, tan olinmaganda yoki nizolashilayotganda, ushbu huquqlarni himoya qilishga haqliligi normasini FKga kiritish muammosi ham tahlil etilgan. Qolaversa, maqolada FKga shaxsning o'z huquqini o'zi himoya qilishning shartlari, mezonlari va chegaralari masalalari ham o'rganilib, bu boradagi yangi talablarni qonunchilikda ifodalash zarurligi asoslantirilgan. Fuqarolik huquqlarini himoya qilishda boy berilgan foyda institutiga oid qoidalarini aniqlashtirish masalalari ham bugungi kunda dolzarb tusga ega va bunda ham boy berilgan foydaning mavjudligi va uning miqdorini belgilashning aniq shartlarini belgilash zarur. Shu bilan birga, fuqarolik huquqlarini himoya qilishda davlat organlari va mansabdor shaxslari tomonidan yetkazilgan zararlarni qoplashga oid qoidalarining ham bugungi kunda zamonaviy voqeliklar negizida aniq huquqiy tartibga solinishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: fuqarolik huquqi, majburiyat, himoya, yuridik fakt, yig'ilish qarori, siyosiy huquq, mulkiy huquq, zarar, boy berilgan foyda, shaxsning huquqini o'zi himoya qilishi.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ ГРАЖДАНСКИХ ПРАВ И ОБЯЗАННОСТЕЙ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИХ ЗАЩИТЫ

Имомов Нурилло Файзуллаевич,
доктор юридических наук, профессор,
заведующий кафедрой «Гражданское право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье проводится анализ возникновения и защиты гражданских прав и обязанностей на основе Концепции совершенствования гражданского законодательства Республики Узбекистан, утвержденной распоряжением Президента Республики Узбекистан от

5 апреля 2019 года № P-5464. На основе исследования законодательства зарубежных стран изучена правовая природа решений собрания как основы формирования гражданских прав и обязанностей, их место и значение как юридического факта, обосновываются предложения о включении положений о решениях собрания в проект новой редакции Гражданского кодекса. Также были проанализированы нормы о независимости гражданских прав от политических прав с точки зрения их влияния на возникновение гражданских прав и обязанностей и выдвинута идея включения их в новую редакцию Гражданского кодекса. Кроме того, в данной статье анализируется вопрос о включении в ГК нормы о праве лица на самозащиту своих гражданских прав в случае их нарушения, непризнания или спора. Также в статье рассматриваются условия, критерии и пределы самозащиты прав лица по ГК и обосновывается необходимость отражения данных требований в законодательстве. Сегодня актуален вопрос определения правил института упущенной выгоды при защите гражданских прав, поэтому необходимо установить четкие условия определения наличия и размера упущенной выгоды. В то же время в современных реалиях актуально определение точных правил возмещения вреда, причиненного государственными органами и должностными лицами в сфере защиты гражданских прав.

Ключевые слова: гражданское право, обязательство, защита, юридический факт, решение собрания, политическое право, право собственности, ущерб, упущенная выгода, самозащита прав лица.

IMPROVING THE EMERGENCE AND PROTECTION OF CIVIL RIGHTS AND OBLIGATIONS

Imomov Nurillo Fayzullaevich

Head of the Department of Civil Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Law (DSC) , Professor

Abstract. This article analyzes the formation and protection of civil rights and duties based on the Concept of improving the civil legislation of the Republic of Uzbekistan, approved by the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No F-5464 dated April 5, 2019. It analyzes the legal nature of the decisions of the meeting as a basis for the formation of civil rights and duties, their place and essence as a legal fact based on foreign law, and substantiates proposals to include provisions on the decisions of the meeting in the new edition. The rules on the independence of civil rights from political rights were also analyzed in terms of their impact on the emergence of civil rights and duties, and the idea of including them in the new edition of the Civil Code was put forward. In addition, this article analyzes the issue of including in the FC the norm of the right of a person to the protection of his civil rights in case of violation, non-recognition, or conflict. In addition, the article examines the conditions, criteria, and limits of self-protection of the individual to the FC, and argues that the new requirements in this regard should be reflected in the legislation. The issue of defining the rules for the institution of lost profits in the protection of civil rights is also relevant today, and it is necessary to establish clear conditions for determining the existence and amount of lost profits. At the same time, the rules on compensation for damages caused by state bodies and officials in the protection of civil rights are also relevant today, as they are regulated on the basis of modern realities.

Keywords: civil law, obligation, protection, legal fact, the decision of the meeting, political law, property law, damage, lost profit, self-defense.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (keyingi o'rinlarda – FK)ning “Umumiy

qoidalar” nomli I bo'limi 12 ta bobni qamrab oladi va fuqarolik huquqi hamda qonunchiligi uchun asosiy va markaziy o'rin tuta-

digan qoidalarni nazarda tutadi. Mazkur bo'limda fuqarolik huquqining asosiy prinsiplari, fuqarolik qonun hujjatlarini tartibga solish predmeti doirasiga kiruvchi ijtimoiy munosabatlarning doirasi va chegaralari, fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelish asoslari, amalga oshirilishi, himoya qilish asoslari va usullari kabi muhim qoidalar belgilangan.

FKning 2-bobi 8 ta moddadan iborat. 2-bo'limda fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelish asoslari ro'yxati nazarda tutilgan. Biroq bu ro'yxatni to'liq deb bo'lmaydi. Zero, FKning predmeti doirasi kengayishi va unga korporativ munosabatlar kiritilishiga oid takliflar bildirilayotganligidan kelib chiqib, yig'ilish qarorlarining huquqiy tabiatini o'rganish, ularni huquq va burchlarining vujudga kelish asosi sifatida belgilash zarurati yuzaga keladi. Chunki amaliyotda turli tashkilotlar yig'ilishlarining qarorlari fuqarolik huquq va burchlarini vujudga keltiradi, o'zgartiradi yoki bekor qiladi. Shu bois FKning 8-moddasida belgilangan fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelish asoslari ro'yxatiga yig'ilish qarorlarini kiritish masalasi muhimdir. Bundan tashqari, FKning 2-bobini takomillashtirish, bunda fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullarini kengaytirish va takomillashtirish masalalari dolzarbdir.

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida quyidagi masalalarni tahlil qilish va ularning yechimiga oid takliflar ishlab chiqishga harakat qilindi: birinchidan, fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelish asosi sifatida yig'ilish qarorlarining huquqiy tabiatini tahlil qilish va uni FKga kiritish; ikkinchidan, fuqarolik huquqlarining siyosiy huquqlardan mustaqilligi masalasini o'rganish va uning mazmuni hamda qonunchilikda ifodalashning zaruratini yoritish; uchinchidan, fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullari, jumladan, shaxsning o'z huquqini o'zi himoya qilishi, boy berilgan foyda, davlat organi va mansabdor shaxs to-

monidan yetkazilgan zararni qoplashni tahlil qilish asosida ularni huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga oid takliflarni shakllantirish.

Maqolada ushbu masalalar mahalliy olimlar tomonidan O'zbekiston qonunchiligini xorijiy davlatlar qonunchiligi bilan qiyosiy tahlil qilish asosida o'rganilib, fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelish asoslari hamda ularni himoya qilishga oid FK normalarini takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqildi. Shuningdek, tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy bilishning huquq normalarini amaliy va nazariy sharhlash, mavjud muammolarni yoritish va ularning yechimlarini berish, umumlashtirish, mantiqiy yondashuv, tizimli tahlil usullaridan ham foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelishi muayyan yuridik faktlarga asoslanadi. Shu sababli huquq va burchlarning vujudga kelish asoslari sifatida qonunchilikda yuridik faktlar muayyan asoslarga ko'ra tizimlashtirilgan. FKning 2-bobida fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelish asoslari sifatida keltirib o'tilgan holatlar (8-moddada) xatti-harakatlar va hodisalar sifatida yuridik faktlarning asosiy turlarini qamrab olgan. Biroq bugungi kunda fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelish asoslari bu boradagi eng muhim asoslarining barchasi hamda hozirda huquqni qo'llash amaliyotida keng qo'llanilayotgan holatlarni nazarda tutmaydi. Ana shunday asoslardan biri sifatida "yig'ilish qarorlari" instituti alohida o'rin tutadi.

Ma'lumki, turli tuzilmalar: yuridik shaxslar, korporativ tuzilmalar, kreditorlar yig'ilishi, yig'inlar, majlislar yakunda muayyan qaror qabul qiladi. Masalan, dissertatsiya yuzasidan kafedra yig'ilishining qarori, aksiyadorlik jamiyatlari umumiy yig'ilishining qarori, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining qarori, kasaba uyushmasi yig'ilishining qarori, universitet kengashining qarori va hokazo. Mazkur qarorlar, o'z navbatida, fuqarolar

uchun muayyan huquq va majburiyatlarni vujudga keltirishi mumkin. Masalan, tadqiqotchining doktorlik dissertatsiyasi kafedra yig'ilishida muhokama qilinib, dissertatsiya himoyasining keyingi bosqichiga tavsiya etilishi u tomonidan dissertatsiyani himoyaga qabul qilishni so'rab, Ilmiy kengashga murojaat qilish huquqini vujudga keltiradi. Bunga asos esa kafedra yig'ilishining qarori hisoblanadi.

Yuridik adabiyotlarda yig'ilish qarorlarining fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelish asosi hisoblanishiga oid fikrlar bildirilgan. Xususan, S.S. Krivusheva talqiniga ko'ra, "yig'ilish qarorini qabul qilish fuqarolik-huquqiy hamjamiyatni boshqarishni amalga oshirish usuli hisoblanadi va yig'ilish qarorini qabul qilish orqali boshqaruvni amalga oshirish qonunchilikda shu turdagi fuqarolik-huquqiy hamjamiyat uchun nazarda tutilgan yoki tutilmaganligidan qat'i nazar, bitta obyektga (intellektual faoliyat natijalaridan foydalanish bo'yicha huquq egalari bo'lgan hammaulliflar qarori; ulushli mulk ishtirokchilarining qarori) nisbatan huquqlarni amalga oshirish yoki birgalikda faoliyat to'g'risidagi shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlar bo'yicha huquqlarni amalga oshirish (sheriklarning umumiy ishlariga oid qaror)da namoyon bo'ladi" [1]. Fikrimizcha, yig'ilish qarori ushbu yig'ilish ishtirokchilarining barchasi yoki ulardan bir nechtasi yoxud bittasining huquq va manfaatlar doirasidagi masala yuzasidan qaror qabul qilish orqali muayyan fuqarolik huquq va majburiyatlarni yuzaga keltiradi. Masalan, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati yig'ilishining qarori bilan qo'shnilaridan biriga shirkat a'zolari umumiy mulkining muayyan qismidan foydalanishga oid qaror qabul qilinishi ushbu qo'shniga muayyan huquqni vujudga keltiradi.

Yig'ilish qarorini fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelish asosi sifatida FKning 8-moddasida sanab o'tiladigan alohida bandda ifodalash va mazkur moddada keltirilganlaridan alohida mustaqil bandda

belgilash, avvalo, ushbu asosning fuqarolik huquq va burchlarini vujudga keltirishning boshqa asoslaridan farq qiluvchi jihatlar bilan ajralib turishidan kelib chiqadi. Ko'pchilik mutaxassislar [2] "yig'ilish qarorlari"ni huquqiy tabiatiga ko'ra bitimlarga yaqin deb hisoblaydi va ushbu yuridik fakti ko'p tomonlama bitimlar doirasida tahlil qiladi. V.K. Andreev bu borada o'z munosabatini bildirar ekan, yig'ilish qarorlari va ko'p tomonlama bitimlarning farqli jihatlariga to'xtalib o'tadi va quyidagi mulohazalarni bildiradi: "Qaror yig'ilishda ko'rib chiqish uchun qo'yilgan masala yuzasidan ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi. Buni bitim tuzish usuli sifatida e'tirof etish mumkin emas. Qaror qabul qilishning har bir ishtirokchisi "ha" yoki "yo'q" tarzida o'z erkini ifodalashi mumkin. Yig'ilish qarorini qabul qilish ishtirokchisining erkini ifoda etish bitim tomonlarining xohishini ifoda qilishdan farq qiladi, chunki ular turli xildagi huquqiy oqibatlarga qaratiladi. Muayyan masalada yig'ilish ishtirokchilari tomonidan uning vakolati doirasiga kiradigan masalalar bo'yicha qabul qilingan qarorlar, qoidaga ko'ra, boshqaruvga oid qarorlar hisoblanadi. Yig'ilish ishtirokchilarining erki bitim tuzishdagi kabi muxtor emas, zero, fuqarolik hamjamiyati ishtirokchilarining huquqi, birinchi navbatda, korporatsiya ishtirokchilarining huquqi odatdagi subyektiv huquqlardan farqli ravishda korporatsiyaning har bir a'zosi-ga boshqasini xabardor qilgan holda tegishli bo'ladi" [3].

A.V. Yegorovning fikricha, aksiyadorlar yig'ilishining qarori bitimlarning alohida turi hisoblanadi, chunki bitimlarning umumiy belgilariga javob bergani holda, yig'ilish qarorlari bitimlardan yig'ilishda ishtirok etayotganlarning umumiy nuqtayi nazarini shakllantirishda qaror istaklarning to'liq mos kelishi (an'anaviy bitim) asosida yoki ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinishi mumkin [4].

Fikrimizcha, yig'ilish qarorlari va bitim ham fuqarolik huquq va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish va bekor qilishga

qaratilgan harakat hisoblanadi. Biroq yuridik faktlarning mazkur ikkala usuli muayyan jihatlarga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Birinchidan, yig'ilish qarorlari kun tartibidagi masala yuzasidan o'tkaziladigan muhokamalar va fikrlar xilma-xilligi asosida qabul qilinishi, bunda qaror uchun ovoz berishning turli usullari qo'llanilishi mumkin. Bu jihat har doim ham bitimlarda kuzatilmaydi. Shuningdek, bitimlarda erkni ifodalash usuli sifatida harakat og'zaki yoki yozma shakllarda namoyon bo'lsa, yig'ilish qarorlarida harakat yig'ilish o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat bo'lgan bayonnomada ifodalanadi. Qolaversa, yig'ilishda qabul qilingan qaror tegishincha asoslantirilishi, bunday qarorga kelinganligining sababi va shartlari tushuntirilishi hamda ovoz berish natijasiga qarab ijobiy yoki salbiy mazmundagi yoki rozilik berish yoki inkor etish ma'nosidagi erk-irodaga kelinganligi bildirilishi lozim. Bitim esa unda ishtirok etayotgan shaxs yoki shaxslarning erkini ifoda etishi orqali amalga oshiriladi.

Ta'kidlash lozimki, FKga yangi institut sifatida kiritilishi taklif etilayotgan "yig'ilish qarorlari" xorijiy mamlakatlar qonunchiligida ancha vaqtlardan buyon qo'llanib kelinadi. Jumladan, Germaniya Grajdanlik Tuzuklari (GGT) va german sivilistik adabiyotlarida "qaror" termini ancha faol qo'llaniladi va quyidagilarda namoyon bo'ladi: turli birlashmalarning boshqaruvi (Verein) – 28-§ va 70-§; birlashma ishtirokchilarining umumiy yig'ilishida – 32-§; shirkat ishtirokchilarida – 712-§; bitta huquq tegishli bo'lgan shaxslar tomonidan boshqaruv va foydalanishga oid qarorlarda – 745-§.

Bundan tashqari, ushbu termin ko'pincha korporativ huquqda aksiyadorlik jamiyatlari umumiy yig'ilishi, ishtirokchilari va boshqalar tomonidan qabul qilingan hujjatlarni ifodalashda qo'llaniladi. Zero, qarordagi erkning ifodalanishi korporativ huquqning barcha jabhalari uchun an'anaviy ko'rinish hosil qiladi. Shu sababli qarorni bitim sifatida talqin etish muayyan ma'noda qiziqish

uyg'otishi mumkin [5]. Aksiyador (ishtirokchi)lar umumiy yig'ilishining qarorini qabul qilish uchun bitimdagi kabi barcha ishtirokchilarning roziligi talab etilmaydi. Bunda ushbu qarorga qarshi bo'lgan yoki betaraf qolgan ishtirokchilarning irodasi ko'pchilikning xohishiga bo'ysundirilishi prinsipi amal qiladi.

German huquqida ham yig'ilish qarorlarining huquqiy tabiati borasida turlicha qarashlar borligini kuzatish mumkin. Bir qator mualliflar [6] yig'ilish qarorlarini fuqarolik-huquqiy bitimlar va shartnomalarning bir turi sifatida talqin etsa, boshqa adabiyotlarda [7] yig'ilish qarorlari shartnomalar va umumiy harakatlar bilan birga ko'p tomonlama bitim deb hisoblanadi.

Avstriya fuqarolik huquqiga oid darsliklardan birida yozilishicha, "bitimlarning alohida turini qarorlar nomli bitimlar tashkil etadi. Ular jamoaviy uyushma (birlashma, jamiyat)larning erkini ifodalashi natijasi bo'lib, bunday natijaga ishtirokchilar yoki organlarning xohishi asosida kelinadi. Faqat taraflarni bog'lab turadigan shartnomalardan farqli ravishda, qarorlar tegishli tartibda xabar berilganiga qaramasdan, qarorni qabul qilishda ishtirok etmagan yoki unga qarshi ovoz bergan boshqa ishtirokchilarni ham bog'laydi. Odatda, qarorlar ichki munosabatlarni tartibga soladi, masalan, tegishli organning ko'rsatmalari. Qarorlar uchinchi shaxslarga nisbatan ham huquqiy ta'sirga ega bo'lishi uchun bu holat qarorning o'zida yoki qonunchilikda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan bo'lishi talab etiladi" [8].

Fikrimizcha, yig'ilish qarorlari bitim to'g'risidagi an'anaviy tasavvurlar va qarashlardan farq qiladi. Shu sababli yuridik faktning mazkur turini fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelish asosida sifatida FKda nazarda tutish muhim ahamiyatga ega. Chunki yig'ilish qarorlarini qabul qilish, ularni yuridik sifatida tan olish, ular yuzasidan nizolashish, haqiqiy emas deb topish turlicha qoidalar, asosan, ichki tartib qoidalarga

bo'ysundirilganligi bilan bitimlardan farq qiladi.

FKning yangi tahririga kiritish taklif etilayotgan novellardan biri “fuqarolik huquqlaridan raqobatni cheklash, shuningdek, bozorda ustun mavqeni suiiste'mol qilish, insofsiz raqobat maqsadida foydalanishga yo'l qo'yilmasligi” hisoblanadi. Ma'lumki, fuqarolik huquqlari to'sqinliksiz amalga oshiriladi va bunda shaxs o'z xohishi va manfaatlaridan kelib chiqib, o'ziga tegishli huquqni amalga oshirishi yoki amalga oshirish vakiliga yuklashi yoki umuman bu huquqlarni amalga oshirmasligi mumkin. Bunda huquqlarini amalga oshiruvchining insofli harakat qilishi hamda suiiste'mollikka yo'l qo'yilmasligi talab etiladi. Biroq fuqarolik huquqlarini amalga oshirishga oid qoidalarini belgilagan FK amaldagi tahririning 9-moddasida monopol subyektlar hamda insofsiz raqobat yo'lida huquqlardan foydalanishga yo'l qo'yilmasligiga oid qoida nazarda tutilmagan. Bundan farqli ravishda Qozog'iston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 11-moddasida fuqarolik-huquqiy munosabatlarda raqobatni cheklash va ustun mavqeni suiiste'mol qilishga yo'l qo'yilmasligi kabi qoidalar belgilangan. Bu qoidalarining belgilanishi, o'z navbatida, monopoliyaga qarshi kurashning qo'shimcha usullarini belgilash hamda bu holat fuqarolik-huquqiy nuqtayi nazardan ham inkor etilishini mustahkamlaydi.

FKning yangi tahririga kiritilishi nazarda tutilayotgan yangi qoidalardan yana biri – bu fuqarolik huquqlarining siyosiy huquqlardan mustaqilligidir. Har qanday hollarda ham fuqarolik huquqi subyektlariga tegishli bo'lgan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlar siyosiy huquqlardan mustaqil bo'lishi hamda ularning amal qilishi siyosiy huquqlarga bog'liq bo'lmasligi lozim. M.K. Suleymenovning fikricha, “inson yoki fuqaroning yoki fuqaroga mansub asosiy huquqlar Konstitutsiyada belgilangan. Ushbu huquqlarning aksariyat qismi u yoki bu darajada fuqaro-

lik huquqi bilan tartibga solinadi va bundan faqat siyosiy huquqlar mustasnodir” [9].

Fikrimizcha, siyosiy huquqlar FKning tartibga solish predmeti tarkibiga kirmaydi va ularni belgilash, o'rnatish va huquqiy tartibga solish boshqa huquq sohalari tomonidan amalga oshiriladi. Biroq ayrim o'rinlarda siyosiy huquqlar fuqarolarning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari bilan bog'liq bo'lishi, ularga ta'sir ko'rsatishi va ularni huquqiy tartibga solish yo'nalishini belgilash mumkinki, bu holat huquqiy tartibot hamda demokratik nuqtayi nazardan o'rin-sizdir. Chunki siyosiy huquqlar shaxsning fuqarolik huquqlari, ya'ni mulkiy huquqlaridan mustaqil holda amal qilishi lozim. Shaxsning siyosiy huquqlari cheklanishi yoki siyosiy huquqlari amalga oshirilishi uning mulk huquqiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatmasligi hamda unga qonun nuqtayi nazaridan daxl etmasligi lozim. Shu sababli fuqarolik huquqlari (sivil huquqi, xususiy huquq)ni siyosiy huquqlardan mustaqilligini FKda belgilash o'rinlidir.

Shaxslarning o'z huquqlarini himoya qilishga bo'lgan huquq turli usul va yo'llar bilan amalga oshiriladi. Shaxsning huquqlarini himoya qilishga bo'lgan huquqi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim normalarida muayyan huquqlar doirasida (13-, 26-, 27-, 37-moddalar) yoki sud orqali himoya qilinish huquqi sifatida kafolatlangan (44-modda). Biroq shaxsning fuqarolik huquqlarini himoya qilishga bo'lgan huquqi mavjudligi va bu himoya ayni paytda shaxsning manfaatlarini ham qamrab olishi fuqarolik qonunchiligida asosiy qoida sifatida belgilanmagan va nazarda tutilmagan. Albatta, amaldagi FKning 10-moddasida sud orqali himoya va 11-moddasida himoya usullari belgilangan. Biroq bu qoidalar shaxsning himoyaga bo'lgan muhim va asosiy huquqi mavjudligini to'liq ifoda etmaydi, aksincha, muayyan aniq olingan holatlarga qarshi usullarni nazarda tutadi, xolos. Shu sababli ham shaxsning o'z fuqaro-

rolik huquqlarini himoya qilish huquqi va bu huquq qaysi holatlarga nisbatan yuzaga kelishi borasidagi qoidani FKning yangi tahririda ifodalash zarur. Bunda shaxs o'z huquqlarini quyidagi hollarda himoya qilishga haqli:

- 1) fuqarolik huquqlari buzilganda;
- 2) fuqarolik huquqlari tan olinmaganda;
- 3) fuqarolik huquqlari yuzasidan nizolashilayotganda.

Mazkur uchala holatda shaxs o'z huquqlarini himoya qilish yuzasidan tegishli organlar, tashkilotlar yoki shaxslarga murojaat qilish hamda himoyaning qonunchilikda belgilangan mutanosib usuli qo'llanilishini talab qilishga haqli [10]. Masalan, shaxsning huquqlari buzilishi davom etayotgan bo'lsa, bunday buzilish to'xtatilishi va buzilish oqibati yetkazilgan zarar qoplanishini talab qilish huquqiga ega.

Qonuniy manfaatlarni himoya qilish huquqni himoya qilishdan biroz farq qiladi. Chunki qonuniy manfaat hali huquq darajasida mavjud bo'lmaydi, balki shaxsning huquqni amalga oshirish uchun qaratilgan qiziqishi va harakatlarini ifodalaydi. Manfaatni himoya qilish orqali manfaatdor shaxs o'z huquqini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, ruhiy kasal shaxsning kreditorlari yoki oila a'zolari uni muomalaga layoqatsiz deb topish va unga vasiy tayinlanishdan manfaatdor hisoblanadi. Vasiy tayinlanishi ushbu shaxslarning muomalaga layoqatsiz shaxsga nisbatan o'z talablarini bildirish huquqini yuzaga keltiradi. Shu bois qonunchilikka manfaatni himoya qilish huquqining kiritilishi shaxsga kelajakda o'zining subyektiv huquqlarini ta'minlash imkonini beradi.

Fuqarolik huquqlarini shaxsning o'zi himoya qilish instituti – huquqni himoya qilishning eng qadimiy usullaridan biri hisoblanadi [11]. Hali davlat va jamiyatda huquqni himoya qilishning muayyan usullari shakllanmagan davrlardan o'z mol-mulki, hayoti va sog'lig'i, yaqinlarini har qanday tajovuz va buzilishlardan himoya qilishgan

va bunda himoyaning muayyan chegaralari keyinchalik, ya'ni davlat va huquq rivojlaniishi bilan belgilangan [12]. Bugungi kunda ham shaxsning o'z huquqlarini himoya qilish borasida umumqabul qilingan muayyan qoidalar va ushbu himoyaning chegarasi borasida shartlar mavjud. Xususan, FKning 13-moddasida quyidagi shartlar belgilangan:

- himoya huquqni buzishga mutanosib bo'lishi kerak;

- himoya huquq buzilishining oldini olish uchun zarur harakatlar doirasidan chetga chiqmasligi zarur.

Biroq mazkur shartlar shaxsning o'z huquqini o'zi himoya qilish bilan bog'liq harakatlar doirasi, ularning chegaralarini to'liq ifoda etmaydi. Ayrim davlatlarda shaxsning o'z huquqlarini o'zi himoya qilish usuliga oid qoidalar birmuncha kengroq belgilanganligini ko'rish mumkin. Jumladan, Germaniya Grajdanklik tuzuklarining 229–230-§lari [13], Gruziya Grajdanklik kodeksining 118–119-moddalarida [14] shaxsning o'z huquqini himoya qilish bilan birga huquqni himoya qilishda “o'z-o'ziga yordam” sifatida qarzdor shaxsni “ushlab turish” hamda qarzdorga tegishli ashyoni “olib qo'yish”ga yo'l qo'yilishi va uning chegaralari belgilangan. Bunda “ushlab turish” va “olib qo'yish” muayyan shartlar va qat'iy chegara doirasida amal qilishi mumkinligi o'rnatilgan. Xususan, qarzdor shaxs yashirinishi yoki uning zimmasidagi harakatni bajarishga nisbatan huquqqa xilof harakatining oldini olish maqsadida “ushlab turilishi” mumkin. Qarzdorga tegishli ashyoni “olib qo'yish” chorasini ham majburiyatni bajarish yoki qarzdor shaxsning kreditorga nisbatan noqonuniy xatti-harakati payini qirqish maqsadida qo'llanilishi mumkin [15]. “Ushlab turish” va “olib qo'yish” choralarini faqatgina vakolatli organlar o'z vaqtida himoyani ta'minlamagan va ushbu choralarini zudlik bilan qo'llamaslik huquqni amalga oshirish imkoniyatining yo'qotilishi yoki sezilarli darajada qiyinlashishiga olib kelsa, tatbiq etilishiga yo'l qo'yiladi.

Fikrimizcha, shaxsning o'z huquqlarini o'zi himoya qilish usulini "ushlab turish" va "olib qo'yish" choralari bilan to'ldirish hamda ularning aniq va qat'iy chegaralarini ifodalash lozim. FKning yangi tahririga "ushlab turish" va "olib qo'yish"ni shaxsning o'z huquqini o'zi himoya qilishning choralari sifatida kiritish kreditor va huquqlari buzilgan shaxsning manfaatlariga xizmat qilishi bilan birga, turli suiiste'molliklarga sabab bo'lishining oldi olinishiga oid shartlarni belgilash ham talab etiladi. Shu bois shaxs o'z huquqining vakolatli davlat organlari tomonidan o'z vaqtida himoya taqdim etilmaganida va o'z huquqini zudlik bilan himoya qilmasa, "keyin kech bo'lishi" yaqqol ko'rinib turgan hollardagina amal qilishi va bu choralarga haqida zudlik bilan shu organlarga xabar berish sharti bilan yo'l qo'yilishi lozim. Mazkur choralarga ayni paytda "ushlab turilgan" shaxsning umuminsoniy huquqlarini buzmasligi, odob-axloq qoidalari doirasida qo'llanilishi zarur. Bunday qoida Ukraina Grajdanklik kodeksining 19-moddasi 1-qismi ikkinchi xatboshisida ham o'z ifodasi topgan va o'z huquqini o'zi himoya qilish tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "O'z huquqini o'zi himoya qilish shaxs tomonidan qonun bilan taqiqlanmagan va jamiyatning axloq asoslariga zid bo'lmagan huquqqa xilof harakatga qarshi vositalar hisoblanadi" [16].

FKning yangi tahriri loyihasiga kiritilishi taklif etilayotgan fuqarolik huquqlarini himoya qilishning yana bir muhim usuli zarar tarkibidagi boy berilgan foydani aniqlashtirishga oid qoidalar hisoblanadi. Amaldagi FK "boy berilgan foyda"ni odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olinishi nazarda tutilgan daromad sifatida talqin etadi (14-moddaning ikkinchi qismi) hamda uning mavjudligi va miqdorini aniqlashga oid quyidagi mezonlarni belgilaydi:

1) huquqni buzgan shaxs buning natijasida qo'lga kiritgan daromadi miqdori – boy berilgan foydaning miqdoriga teng bo'lishi mumkin (14-moddaning uchinchi qismi);

2) kreditor tomonidan foyda topish maqsadida ko'rilgan choralarga va tayyorgarlik holati – boy berilgan foyda mavjud yoki mavjud emasligini belgilovchi identifikator hisoblanadi (324-moddaning uchinchi qismi).

Biroq mazkur ikki qoida boy berilgan foydaning mavjud yoki mavjud emasligi hamda uning miqdorini aniqlash uchun yetarli hisoblanmaydi. Chunki bu umumiy qoidalar boy berilgan foyda xususida nizo kelib chiqqanda, talabni isbotlash va unga huquqiy baho berish uchun aniq huquqiy mexanizmni ifodalaymaydi. Bu holatda boy berilgan foydani talab qilayotgan huquqi buzilgan shaxs foyda olinishi mumkinligi ehtimolini aniq dalillar va tegishli hujjatlar asosida isbotlashi lozim bo'lganidek [17], sud boy berilgan foyda bo'yicha talabga baho berishda muayyan qoidalar hamda mezonlarga tayanishi zarur. Masalan, bunday mezonlar sifatida boy berilgan foydada boshqa shaxs aybining mavjudligi, aybli harakat va boy berilgan foyda o'rtasidagi sababiy bog'lanish hamda huquqi buzilgan shaxsning boy berilgan foydadan mahrum bo'lganligini isbotlovchi hujjatlar (masalan, kelajakda bajarilishi nazarda tutilgan, biroq huquqi buzilganligi sababli ijro etilmay qolgan shartnomalar, yuk xati, tovarlarni jo'natish yuzasidan tayyorlangan boshqa hujjatlar va shu kabilar)ni sanab o'tish mumkin. Boy berilgan foydani talab qilishda huquq buzilish payti emas, balki boy berilgan foydani qoplash to'g'risidagi talabni bajarish payti muhim ahamiyat kasb etadi [18]. Chunki boy berilgan foydani qoplash to'g'risidagi talabni bajarish paytiga kelib, sud tomonidan voqealar rivoji qanday kechganligiga baho berish hamda taraflarning xatti-harakatlari tizimini "tarozi"ga solish mumkin [19]. Masalan, sotuvchi xomashyoni yetkazib berishni kechiktirganligi sababli sotib oluvchi o'zining boshqa kontragenti bilan tuzgan tayyor sotish to'g'risidagi shartnomasi bekor qilindi va sotib oluvchi bu vaziyat ishlab chiqargan tayyor mahsulotini arzonroq bahoda qismlarga bo'lib, reali-

zatsiya qilishiga to'g'ri keldi. Bu holatda sotib oluvchining kontragenti bilan tuzgan tayyor mahsulotni sotish to'g'risidagi shartnomasidan oladigan daromadi hamda mahsulotni qismlarga bo'lib, bir nechta kontragentlarga realizatsiya qilishidan olingan daromadi o'rtasidagi farq uning mahsulot kechiktirib yetkazib berilganligi munosabati bilan boy berilgan foydasi sifatida ko'riladi.

FKning yangi tahriri 2-bobiga kiritish taklif etilayotgan navbatdagi o'zgartirish davlat organlari va mansabdor shaxslari tomonidan yetkazilgan zararni qoplashga oid qoidalar bilan bog'liq. Ma'lumki, davlat organlari va mansabdor shaxslari tomonidan yetkazilgan zararlar ushbu organlar va shaxslarning no-qonuniy, shuningdek, qonuniy xatti-harakatlari natijasida yuzaga kelishi mumkin [20].

Tadqiqot natijalari tahlili

Amaldagi qonunchilik davlat organlari va ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy xatti-harakati uchun zararni qoplash majburiyatini yuklaydi (15, 990-moddalar). Biroq fuqarolik huquqlarini himoya qilish usuli sifatida zararni qoplash u qanday harakat natijasida yetkazilishiga emas, asosan, uni qoplashga qaratiladi va zararni qoplashdan ozod etish asoslari masalaning ikkinchi jihati sifatida qaraladi. Albatta, zararni qoplashdan ozod etish asoslari FKning 57-bobi qoidalarida o'z ifodasini topgan. Lekin ushbu bobda qonuniy harakatlar natijasida yetkazilgan zararni qoplashga oid aniq qoida belgilangan (985-moddaning beshinchi qismi). Biroq bu holat fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullarini nazarda tutuvchi FKning 2-bobida nazarda tutilmagan. Mazkur bo'shliqni to'ldirish maqsadida davlat organlari va ular mansabdor shaxslarining qonuniy harakatlari natijasida yetkazilgan zararni qoplashga oid qoidalarni FKning yangi tahririda alohida moddada ifodalash lozim [21].

Xulosalar

Shu bilan birga, amaldagi FKning 15-moddasi zararni qoplash majburiyati bevosita zararni yetkazgan mansabdor

shaxs zimmasiga yuklatilishi mumkinligi qoidasi borasida keyingi paytlarda ko'plab fikrlar bildirilmoqda. Bir qator mutaxassislar davlat organlari va mansabdor shaxslari tomonidan yetkazilgan zararlarini qoplash majburiyati sudning qarori bilan aybdor bo'lgan mansabdor shaxsning zimmasiga yuklanishiga oid norma "ishlamaydigan" va amalda o'zini "oqlamasligi"ni bildirishgan. Gap shundaki, mansabdor shaxs o'zining davlat xizmatchisi sifatidagi vazifalarini bajarishda bevosita davlat nomidan faoliyat yuritadi va shu sababli uning xatti-harakatlari oqibatida yuzaga keladigan huquq va majburiyatlar fuqarolik huquqi subyekti sifatida davlatda vujudga keladi. Shu bois davlatning vakili bo'lgan mansabdor shaxsning xatti-harakatlari uchun javobgarlik davlatning zimmasida bo'lishi lozim. Shu sababli FKning yangi tahririda davlat organlari va mansabdor shaxslari tomonidan yetkazilgan zarar davlat tomonidan qoplanishiga oid qoida bilan cheklanish o'rinli bo'ladi.

Xulosa sifatida aytganda, FKning yangi tahririni "fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelishi hamda ularni himoya qilish" deb nomlangan 2-bobiga kiritish taklif etilayotgan yangi qoidalar sivilistik tafakkurning bugungi rivojlanish darajasi hamda fuqarolik-huquqiy tartibga solishdagi mavjud muammo va bo'shliqlarni to'ldirish zaruratidan kelib chiqib taklif etilmoqda. Zero, hozirgi kunda fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelish asoslari hamda ularni himoya qilish usullari yangi qoidalar va huquqiy mexanizmlar bilan boyib bormoqda. Bunda fuqarolik huquqlarining vujudga kelish asosi sifatida "yig'ilish qarorlari"ni belgilash hamda huquqni himoya qilishda "fuqarolik huquqlarining siyosiy huquqlardan mustaqilligini" belgilash, boy berilgan foydani aniqlash mezonlarini nazarda tutish hamda davlat organlari va mansabdor shaxslari tomonidan yetkazilgan zararni qoplash asoslari va tartibotini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. Krivusheva S.S. Resheniya sobraniy kak yuridicheskiye fakti v rossiyskom grajdanskom prave [Assembly Decisions as Legal Facts in Russian Civil Law]. Abstract of PhD dissertation. Yekaterinburg, 2018.
2. Krashennnikov Ye.A., Baygushev Y.V. Odnostoronniye i mnogostoronniye sdelki [Unilateral and multilateral transactions]. *Vestnik VAS RF – Bulletin of the Supreme Arbitration Court of the Russian Federation*, 2012, no. 7. Available at: <https://center-bereg.ru/b3355.html/>.
3. Andreyev V.K. Resheniya sobraniy [Meeting decisions]. *Sivilist – Sivilion*, 2013, no. 3, pp. 63-72.
4. Yegorov A.V. Zakon i praktika: ot bor'bi k yedinstvu [Law and practice: from struggle to unity]. *Ej-Yurist*, 2004, no. 3.
5. Gesellschaftsrecht [Company law]. Von Hueck, 2003, p. 145.
6. Wolf M. Allgemeiner Teil des Rechts von Dr. Karl Larenz [General part of the law of Dr. Karl Larenz]. Revised. and ext. Ed., 2004, pp. 406–408.
7. Brox H. Allgemeiner Teil des BGB [General part of the Civil Code]. Revised. ed. Berlin, 1999, p. 56.
8. Grundriss des Rechts: Band I. Auf Grundlage der von Dr. Helmut Koziol und Dr. Rudolf Welser [Outline of Law: Based on Dr. Helmut Koziol and Dr. Rudolph Welser]. 13 ed. Vienna, 2006, vol. 1, p. 114.
9. Suleymenov M.K. Grajdanskoye pravo i obespecheniye prav lichnosti v sovremennykh usloviyakh [Civil law and ensuring the rights of the individual in modern conditions]. *Vestnik Instituta zakonodatelstva RK – Bulletin of the Institute of Legislation of the Republic of Kazakhstan*, 2017, no. 1, p. 84.
10. Grazhdansko-pravovaya zashhita imushchestvennykh prav subyektov grazhdanskikh pravootnosheniy [Civil legal protection of property rights of subjects of civil legal relations]. Ed. V.P. Kutinoy. St. Petersburg, Publishing house of St. Petersburg University of Management and Economics, 2014, p. 148.
11. Izmaylova Ye.V. Zashhita grazhdanskikh prav: podhody k ponimaniyu [Civil Rights Protection: Approaches to Understanding]. *Zhurnal o prave – Law Journal*, 2018, no. 2.
12. Bogdanov D.Ye. Analiz pravovykh podhodov k vozmeshheniyu chistykh ekonomicheskikh poter' v zarubezhnom prave [Analysis of legal approaches to compensation for net economic losses in foreign law]. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/analiz-pravovyh-podhodov-k-vozmescheniyu-chistykh-ekonomicheskikh-poter-v-zarubezhnom-prave/>.
13. Grajdanskiy Ulojeniyе Germanii [Civil Code of Germany]. Available at: <http://oceanlaw.ru/wp-content/uploads/2018/02/1900-1.pdf/>.
14. Grajdanskiy kodeks Gruzii [Civil Code of Georgia]. Available at: <https://matsne.gov.ge/ru/document/view/31702?publication=117/>.
15. Shevtsov S.G. Conceptual basis for determination of limits of free discretion for the subjects of civil relations. *Defects in Russian legislation*, 2012, no. 3, pp. 82–86.
16. Grajdanskiy kodeksi Ukraini [Civil Code of Ukraine]. Available at: <https://urst.com.ua/ru/act/gku/>.
17. Van Boom W.H. Pure Economic Loss. A Comparative Perspective. Pure Economic Loss. Wien, N.Y., 2004.
18. Palandt. Buergerliches Gesetzbuch [Civil Code]. Revised ed. Publisher C.H. Beck, Munich, 1998, p. 288.
19. Markesinis B.S., Unberath H. The German Law of Torts: A Comparative Treatise. 4th ed. Oxford, 2002.
20. Shemelev K.S. K voprosu o vozmeshhenii ubytkov, prichinyonnykh gosudarstvennymi organami i organami mestnogo samoupravleniya kak mery grazhdansko-pravovoy otvetstvennosti [On the issue of compensation for losses caused by state bodies and local governments as a measure of civil liability]. Available at: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=25644340/>.
21. Kuldashev N.A. Ichki ishlar organlari delikt munosabatlar subyekti sifatida [The law enforcement agencies as a subject of tort relations]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2021, p. 30.

UDC: 341.632.8(045)(575.1)

ISSUES OF LEGAL REGULATION OF ONLINE DISPUTES IN DIGITAL ARBITRATION

Bakhromova Mokhinur Bakhromovna,

Senior lecturer at Intellectual Property
Law Department of Tashkent State University of Law,
PhD in Law

ORCID: 0000-0001-8686-6005

e-mail: s0000000613@ud.ac.ae

3) jinoyat-ijroiya faoliyati sohasida qonun hujjatlari ishlab chiqish va jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish;

4) mahkumlarga gumanitar va xayr-ehson yordamlari berish, tarqatish va ushbu jarayon-ni kuzatishda ishtirok etish;

5) jinoyat-ijroiya tizimi faoliyatini takomil-lashtirish va mahkumlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish yo'nalishida dasturlar va loyihalarni ishlab chiqish hamda amalga oshi-rishda ishtirok etish;

6) jazo va boshqa jinoyat-huquqiy ta'-sir choralari ijro etuvchi muassasalarga O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turda yordam ko'r-satish.

Mazkur moddaning birinchi qismida qayd etilgan jamoatchilik vakillari o'zlariga ma'lum bo'lgan mahkumlarning shaxsiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarni ularning rozilgisiz oshkor qilishi mumkin emas".

O'z navbatida, JIKni **"Jamoatchilik kuzatuv kengashi"** deb nomlangan **4¹-bob** bilan to'ldirish, mazkur bobda jamoatchilik kuzatuv kengashining faoliyati asoslari, tashkil etish tartibi, kengash a'zoligiga qo'yiladigan talablar, jamoatchilik kuzatuv kengashi a'zosining huquq va majburiyatlari, kengash faoliyati shakllari, bu borada jazo va boshqa

jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini ijro etuvchi muassasalarning majburiyatlarini aks ettirish zarur.

Yuqorida ta'kidlangan takliflar, o'ylaymizki, penitensiar tizim funksiyalari tizimida profilaktik funksiyaning ahamiyati va o'rni oshishi, ushbu funksiya samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Gerasimov A.P. Pravovye formy osushestvleniya gosudarstvennoy vlasti [Legal forms of exercising state power]. Moscow, 1996.
2. Struchkov N.A., Viktorova I.B. Obsuzhdeniye penitentsiarnykh problem na mezhdunarodnom urovne [Discussion of penitentiary problems at the international level]. Ryazan, 2011.
3. Melentyev M.P. Problemy vyrazheniya i zakrepleniya v ugovno-ispolnitel'nom zakonodatel'stve politicheskoy i vospitatel'noy funktsii prava [Problems of Expression and Consolidation in the Penitentiary Legislation of the Political and Educational Functions of Law]. Moscow, 1991.
4. Ponomarev S.N., Medvedeva N.T. Karat' ili preduprezhdad'? [Punish or warn?]. *Chelovek: Prestupleniya i nakazaniya – Man: Crime and punishment*, Ryazan, 2013, no. 1.
5. Remenson A.L. Teoreticheskiye voprosy ispolneniya lisheniya svobody i perevospitaniya zaklyuchennykh [Theoretical issues of execution of imprisonment and re-education of prisoners]. Abstract of PhD thesis. Tomsk, 1965.
6. Brilliantov A.V. Differentsiatsiya nakazaniya: ugovno-pravovye i ugovno-ispolnitel'nye problemy [Differentiation of punishment: criminal law and penitentiary problems]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Moscow, 1998.
7. Chernov A.D. Lisheniye svobody kak vid ugovnogo nakazaniya (ugovno-pravovye i ugovno-ispolnitel'nye aspekty) [Deprivation of liberty as a type of criminal punishment (criminal-legal and penitentiary aspects)]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 1998.
8. Rybak M.S. Resotsializatsiya osuzhdyonnykh k lisheniyu svobody: problemy teorii i praktiki [Resocialization of convicts sentenced to deprivation of liberty: problems of theory and practice]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Saratov, 2001.
9. Surovsev V.A. Organizatsiya upravleniya ispravitel'nym protsessom v tsentre psikhologo-pedagogicheskoy i sotsialnoy raboty s osuzhdyonnymi [Organization of management of the correctional process in the center of psychological, pedagogical and social work with convicts]. Abstract of PhD thesis. Ryazan, 2002.
10. Struchkov N.A. Kurs ispravitel'no-trudovogo prava. Problemy Obshey chasti [Correctional labor law course. Problems of the General Part]. Moscow, 1984.
11. Shmarov I.V. Effektivnost' ugovnogo nakazaniya [Effectiveness of criminal punishment]. *Gosudarstvo i pravo – State and law*, 2013, no. 6.
12. Shamis A.V. Osnovnyye sredstva vozdeystviya na osuzhdyonnykh i mekhanizm ikh realizatsii [The main means of influencing convicts and the mechanism for their implementation]. Domodedovo, 1996.
13. Marsev A.I. Teoreticheskiye voprosy obshego i spetsial'nogo preduprezhdeniya prestupleniy [Theoretical issues of general and special prevention of crimes]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Sverdlovsk, 1975.
14. Maksimov S.V. Effektivnost obshego preduprezhdeniya prestupleniy [The effectiveness of general crime prevention]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Moscow, 1993.

15. Shamis A.V. Osnovnyye sredstva vozdeystviya na osuzhdennykh i mekhanizm ikh realizatsii [The main means of influencing convicts and the mechanism for their implementation]. Domodedovo, 2006.
16. Drovosekov G.V. Osnovnyye voprosy ispolneniya nakazaniya v vide lisheniya svobody po sovetскому уголовному праву [The main issues of the execution of punishment in the form of deprivation of liberty under Soviet criminal law]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 1965.
17. Tumanov G.A. Rezhim lisheniya svobody [Deprivation of liberty regime]. Moscow, 2016.
18. Kovalev V.M. Soderzhaniye i tseli nakazaniya, ikh vliyaniye na naznacheniye ispolneniya lisheniya svobody [The content and purpose of sentencing, their impact on the appointment of the execution of deprivation of liberty]. *Problemy ispolneniya ugovolnykh nakazaniy – Problems of execution of criminal penalties*, Ryazan, 2011.
19. Tkachevskiy Yu.M. Progressivnaya sistema ispolneniya ugovolnykh nakazaniy [Progressive penitentiary system]. Moscow, 1998.
20. Belyayev N.A. Tseli nakazaniya i sredstva ix dostizheniya [Purpose of punishments and means to achieve them]. St. Petersburg, 2013.
21. Speranskiy I.A. Nekotoryye teoreticheskiye problemy pravovogo regulirovaniya ispolneniya nakazaniya i primeneniya k osuzhdennym mer vospitatel'nogo vozdeystviya [Some theoretical problems of legal regulation of the execution of punishment and the application of measures to convicts of educational influence]. Moscow, 1990.
22. Cherny V.Ye. Mekhanizm realizatsii nakazaniya v vide lisheniya svobody [The mechanism of implementation of punishment in the form of deprivation of liberty]. Abstract of PhD thesis. Ryazan, 1996.
23. Pavlov V.G. Subyekt prestupleniya [Subject of the crime]. St. Petersburg, 2011.
24. Korolev I.I. Obespecheniye rezhima v ispravitel'no-trudovoy kolonii (pravovye i organizatsionnyye voprosy) [Ensuring the regime in the correctional labor colony (legal and organizational issues)]. PhD thesis. Ryazan, 1996.
25. Tumanov G.A. Rezhim lisheniya svobody po sovetскому исправител'no-trudovому праву (Obshkiye voprosy) [Regime of deprivation of liberty under the Soviet corrective labor law. (General questions)]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 1964.
26. Noy I.S. Teoreticheskiye voprosy lisheniya svobody [Theoretical issues of imprisonment]. Saratov, 2015.
27. Alekseev S.S. Problemy teorii prava [Problems of the Theory of Law]. Sverdlovsk, 2012.
28. Igoshev K.Ye. Tipologiya lichnosti prestupnika i motivatsiya prestupnogo povedeniya [Typology of criminal personality and motivation of criminal behavior]. Moscow, 2014.
29. Xomlyuk V., Pozdnyakov V. Puti realizatsii osnovnykh napravleniy sovershenstvovaniya vospitatel'noy raboty s osuzhdyonnymi [Ways to implement the main directions for improving educational work with convicts]. *Vedomosti ugovolno-ispolnitel'noy sistemy – Records of the penitentiary system*, 2001, no. 4.
30. Alferov Yu.A. Obshhiy krizis ugovolno-ispolnitel'noy sistemy Rossii i osnovnyye puti yego preodoleniya v sovremennykh usloviyakh [The general crisis of the penitentiary system of Russia and the main ways to overcome it in modern conditions]. Ryazan, 2013.
31. Ilyushin N.N. Provovye i organizatsionnye voprosy stimulirovaniya truda osuzhdyonnykh v ispravitel'nykh koloniyakh [Legal and organizational issues of stimulating convicts there in correctional colonies]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 1998.
32. Radkevich B.C., Matrosov V.A. Organizatsiya trudovoy deyatel'nosti osuzhdyonnykh v usloviyakh rynochnoy ekonomiki [Organization of labor activity of convicts in a market economy]. Moscow, 2015.
33. Alferov Yu.A., Baydakov G.P., Lakeveev A.A. et al. Vospitatel'noye vozdeystviye obshheobrazovatel'nogo obucheniya na osuzhdyonnykh [The educational impact of general education on convicts]. Moscow, 2010.
34. Bagreeva Ye.G. Ob organizatsii penitentsiarnykh sistem v mezhdunarodnoy praktike [On the organization of penitentiary systems in international practice]. *Ugovolno-ispolnitel'naya sistema: pravo, ekonomika, upravleniye – Penitentiary system: law, economics, management*, 2012, no. 5.

UDC: 343.1(045)(575.1)

TIBBIY YO'SINDAGI MAJBURLOV CHORALARINI QO'LLASH TO'G'RISIDAGI ISHLARNI YURITISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Sayfullayev Bahodir Bahromovich,
IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi,
ORCID: 0000-0002-0108-7860
e-mail: bahodirsayfullayev0001@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada aqli noraso yoki ruhiyati vaqtinchalik buzilgan shaxslar tomonidan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilganda, ularga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha qonunchilik va amaliyotda vujudga kelayotgan muammolar o'rganilgan. So'nggi yillarda O'zbekiston sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash tartibi, uning aniq belgilab qo'yilganligi, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilayotgan shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlash yo'lidagi ishlar e'tibordan chetda qolmoqda. Davlatimiz tomonidan "Inson qadri uchun" amalga oshirilayotgan islohotlar yo'lida aqli noraso shaxslarni jamiyat hayotiga qaytarish, ularni davolash va ular tomonidan huquqbuzarlik hamda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishining oldini olish e'tibordan chetda qolmasligi va ushbu institutni qo'llash tartibini takomillashtirish zarur. Mazkur muammolarni huquqiy tartibga solish uchun O'zbekistonning tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash sohasi va sog'liqni saqlash tizimi qonunchiligini xalqaro talablarga moslashtirish hamda sud-huquq tizimi shaffofligini ta'minlash darkor. Muallif ushbu masalalarning huquqiy yechimini topishning asosiy yo'nalishi qonunlar va huquqiy adabiyotlarga tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashning aniq chora-tadbirlari va tushunchalarini kiritish zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: tibbiy yo'sindagi majburlov choralari, aqli norasolik, ruhiy holatning buzilishi, yuridik mezon, tibbiy mezon, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash.

ОСОБЕННОСТИ ПОРЯДКА ПРИМЕНЕНИЯ ПРИНУДИТЕЛЬНЫХ МЕР МЕДИЦИНСКОГО ХАРАКТЕРА

Сайфуллаев Баходир Бахромович,
лейтенант, самостоятельный искиатель
Академии МВД Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье исследуются проблемы, возникающие в законодательстве и на практике при применении принудительных мер медицинского характера в отношении лиц, страдающих умственной отсталостью или временно больных психическим заболеванием, при совершении ими общественно опасных деяний. Несмотря на проведенные реформы в последние годы в судебной системе Узбекистана, порядок применения принудительных мер медицинского характера, его четкое определение и практическая работа по обеспечению прав и свобод лица, к которому применены принудительные меры медицинского характера, должным образом не рассматриваются. Реформы, проводимые государством, где главная ценность – достоинство человека, не должны пренебрегать процессом возвращения в общество умственно отсталых людей, их лечения и предупреждения правонарушений и общественно опасных деяний,

необходимо совершенствовать применение этого института. Для правового регулирования этих проблем необходимо привести в соответствие с международными требованиями законодательство и систему здравоохранения Узбекистана в сфере принудительных медицинских мер, а также обеспечить прозрачность судебной системы. Автор подчеркивает, что основным направлением в поиске правового решения данных вопросов является необходимость включения в законы и юридическую литературу конкретных мер и понятий применения принудительных мер медицинского характера.

Ключевые слова: принудительные меры медицинского характера, умственная отсталость, психические расстройства, правовые критерии, медицинские критерии, применение принудительных мер медицинского характера.

SPECIAL ASPECTS OF PROCEDURE ON THE APPLICATION OF COERCIVE MEDICAL MEASURES

Sayfullayev Bahodir Bakhromovich,
Independent researcher of the Academy
of the Ministry of Internal Affairs

Abstract. This article examines the problems that arise in law and practice in the application of coercive medical measures against persons who are mentally retarded or temporarily mentally ill when socially dangerous acts are committed. Despite the reforms in the judicial system of Uzbekistan in recent years, the procedure for the application of coercive medical measures, its clear definition, and the lack of work to ensure the rights and freedoms of the person subject to coercive medical measures are neglected. The reforms carried out by the state "for the dignity of humans" should improve the return of mentally retarded people to society, their treatment and prevention of delinquency and prevent socially dangerous acts, and the application of this institution. In order to legally regulate these problems, it is necessary to bring the legislation of Uzbekistan in the sphere of coercive medical measures and the health care system in line with international requirements and ensure the transparency of the judicial system. The author emphasizes that the main direction in finding a legal solution to these issues is the need to include specific measures and concepts of application of coercive medical measures in the laws and legal literature.

Keywords: coercive medical measures, mental retardation, mental disorders, legal criteria, medical criteria, application of coercive medical measures.

Kirish

Mamlakatimizda olib borilayotgan sud-huquq islohotlarining mazmun-mohiyati aynan inson huquqlarini yanada mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, xususan, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov chorasini qo'llashning maqsad va mohiyati jamiyatni aqli noraso yoki ruhiyati vaqtincha buzilgan shaxslarning huquqbuzarlik harakatlaridan himoyalash, bunday shaxslarni jamiyat hayotiga qaytarishga ko'maklashish, ularni davolash yoki ruhiy holatini jamiyat uchun xavf tug'dirmaydigan darajagacha yaxshilash va o'sha shaxslar tomonidan yangi ijtimoiy

xavfli qilmish sodir etilishining oldini olishdan iboratdir. Ushbu turdagi majburlov chorasini qo'llashda shaxs va jamiyat manfaatlarini birlashadi.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning isboti sifatida O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-maydagi "Psixiatriya yordami to'g'risida"gi O'RQ-690-sonli Qonunining yangi tahrirda qabul qilinishini keltirib o'tish mumkin. Ushbu Qonunda ruhiy holati buzilgan shaxslarga yordam ko'rsatish tartibi, ularni ijtimoiy himoya qilish kafolatlari, shuningdek, ruhiy holati buzilgan shaxslarning huquqlari belgilangan. Eng quvonarlisi, ruhiy holati buzilgan shaxslar O'zbekiston

Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarda nazarda tutilgan fuqarolarning barcha huquq va erkinliklariga ega ekanliklari qonun bilan mustahkamlangan. Ushbu Qonunning 18-moddasida belgilanganidek, ruhiy holati buzilgan shaxslar ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganda, ularga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual va Jinoyat-ijroiya kodekslarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha hamda sud qaroriga ko'ra qo'llaniladi.

Jinoyat qonuni bilan taqiqlangan qilmishni sodir etgan shaxsning ruhiy holatini aniqlash va to'g'ri baholash, dastlabki tergov sifatini oshirish, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha qonuniy va oqilona qaror qabul qilish, shuningdek, ushbu institutni tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish mamlakatimizdagi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlarining muhim faoliyat yo'nalishlaridan biridir. Yu.A. Gerasina ta'kidlaganidek, "tibbiy yo'sindagi majburlov choralari to'g'ri tayinlanishi ushbu jinoiy-huquqiy institutning maqsadiga erishishga hissa qo'shadi" [1]. Bu borada, birinchi navbatda, shaxsni jinoyat sodir etilganidan keyin aqli noraso yoki ruhiy kasal deb topish tushunchasi, maqsadi, asoslari hamda mezonlari haqidagi savollar tug'iladi.

T.Z.Rzayev o'z tadqiqotlarida belgilab o'tganidek, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari kamida uchta jihati mavjud: jinoyat huquqi, jinoyat-protsessual huquqi va jinoyat-ijroiya huquqi. Jinoyat huquqida tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashning huquqiy tabiati, uning mohiyati, asoslari va muhim jihatlari o'rganiladi. Jinoyat-protsessual huquqi esa jinoyat-protsessual qonunning umumiy qoidalari bilan belgilangan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi ish yuritish tartibini o'rganadi. Jinoyat-ijroiya huquqining predmeti majburlov chorasining bajarilish tartibi hisoblanadi [2].

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida aqli norasolik institutining rivojlanish tarixi va bugungi ahvoli, aqli norasolikning tibbiy va yuridik mezonlari hamda aniq tushunchalari taqqoslov metodi bilan amalga oshirildi.

Aqli norasolik institutining rivojlanish tarixi chuqur ildizlarga ega bo'lib, u ruhshunoslar aqli norasolarni "ruhiy nosog'lom" deb hisoblashni to'xtatgan va jinoyat huquqida "aqli rasolik" tushunchasi vujudga kelgan paytda sud psixiatriyasining fan sifatida shakllanishi bilan bog'liq. Dastlab ruhiy xastalik alomatlari jinoyatlar uchun jazodan ozod etuvchi omillar sifatida Rim qonunlarida uchraydi, shuningdek, "yorqin" davrlarda ruhiy kasallar tomonidan jinoyat sodir etilganda, ularning huquq layoqati darhol tiklangan va ular jazoga loyiq deb hisoblangan [3]. Yustinian davri qonunchiligida ruhiy kasalliklarning aqliy zaiflik (instanta), ruhiy kamchiliklardan aziyat chekish (dementia), aqliy qoloqlik (fatuius) va ongga ta'sir qilish (mentai sapti) kabi turlari ajratilgan [4]. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan va ruhiy kasallikdan aziyat chekkan shaxslarga nisbatan maxsus choralarni qo'llash to'g'risidagi birinchi qo'llanma 1649-yildagi Sobor tuzuklarida nazarda tutilgan, biroq qonun hujjatlarida ushbu shaxslarning davolanishi nazarda tutilmagan [5].

Bugungi kunga kelib, aqli norasolik tushunchasi ham, uni aniqlash mezonlari ham rivojlandi, biroq ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha ayrim kamchiliklar yuzaga kelmoqda.

Shaxsning ruhiy holati buzilganlik, ya'ni aqli norasolik tushunchasi yuridik adabiyotlarda ikki mezon: tibbiy (biologik) va huquqiy (psixologik) mezonlar bilan tavsiflangan. Shaxsning aqli noraso deb e'lon qilinishi uchun bu ikki mezon aniqlanishi zarur.

Yuridik mezon sud, prokuror, tergovchi tomonidan aniqlanadi, bunda shaxs tomoni-

dan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilayotgan vaqtda o'z harakatlarini anglaganligi yoki anglamaganligi baholanadi.

Tibbiy mezon esa shaxs ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan vaqtda, nima sababdan o'z harakatlarini boshqara olmaganligi ko'rib chiqiladi: masalan, shaxsning surunkali ruhiy kasalligi, ruhiy holatining vaqtinchalik buzilganligi, aqliy zaifligi yoki boshqa tarzdagi ruhiy kasalligi holati.

Jinoyat sodir etgan shaxsda faqat tibbiy mezonning (ya'ni ruhiy kasallikning) mavjudligi aqli norasolik holatini keltirib chiqarmaydi, chunki ko'plab ruhiy kasalliklar jaryonida "yuqori nuqtasi" deb ataladigan shaxs o'z harakatlaridan xabardor bo'lish va ularni boshqarish qobiliyatini saqlab qoluvchi chegaraviy holatlar mavjud.

Aqli norasolikning tibbiy mezoni shaxsning ruhiy holatini biologik me'yorga ko'ra belgilaydi va ruhiy kasalliklarning umumiy tarkibini ifodalaydi. Tibbiy (biologik) mezon faqat ruhiy kasallik mavjudligini ko'rsatadi, lekin uning murakkablik darajasini ifodalamaydi [6]. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, tibbiy mezon patologik holatning to'rt turi (shakli): surunkali ruhiy kasallik, ruhiy holatning vaqtinchalik buzilganligi, aqli zaiflik va boshqa tarzdagi ruhiy kasalliklarni o'z ichiga oladi.

Aqli norasolik – bu bir fuqaroda mavjud bo'lishi mumkin, ammo huquqiy mohiyati tomondan farq qiladigan holatdir. Ko'pincha ularning birlashishi uzoq vaqt davomida psixiatrlar kuzatuvi va klinik psixologlar tomonidan tashxis qo'yilgan hamda tasniflangan kasalliklarning mavjudligi natijasidir. Biroq huquqiy oqibatlar turlicha tasniflanadi [7]. Shaxsni aqli noraso deb tan olish uchun ruhiy kasalliklar alomatlari va psixiatrik sohada qabul qilingan standartlarga muvofiq tashxis qo'yish uchun diagnostika choralari ni ko'rish kerak. Shu jumladan, aqli norasolikning yuridik ahamiyati shaxs biror-bir jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etgan vaqtdan vujudga keladi.

Huquqiy (psixologik) mezon subyektning intellektual qobiliyatining darajasi va holati (uning o'z harakatlaridan xabardor bo'lish qobiliyati), ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan paytida ruhiyatining irodaviy tomoni (o'z harakatlarini yo'naltirish qobiliyati)ni tavsiflaydi. Shunday qilib, aqli norasolikning huquqiy mezoni ikkita belgi – intellektual va irodaviy faoliyatni o'z ichiga oladi.

Aqli noraso shaxsga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash jazo turi hisoblanmaydi, sababi O'zbekiston Respublikasi JKning 91-moddasida ko'rsatilgan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashning maqsadlari JKning 42-moddasi ikkinchi qismida ko'rsatilgan jazo tayinlashning maqsadlaridan farq qiladi. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari ruhiy buzilish vaqtida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan va ularning ruhiy holati tiklanishiga asosli imkon bo'lgan hamda ular tomonidan yangi jinoyat sodir etishning oldini olish maqsadida qo'llanilishi mumkin [8].

Aqli norasolik tushunchasi va uning mezonlari tibbiy yo'sindagi majburlov choralari ni qo'llash bo'yicha tergovchining protsessual faoliyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi JPK 576-moddasiga muvofiq, ruhiy nosog'lom holatda shaxs tomonidan ijtimoiy xavfli harakat sodir etilganligini ko'rsatuvchi barcha holatlar, ya'ni jinoyat sodir etilganmi yoki aqli norasolik holatida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilganmi; ushbu huquqbuzarlik yoki ijtimoiy xavfli qilmish ishi ko'rilayotgan shaxs tomonidan sodir etilganmi; hozirgi vaqtda mazkur shaxsning ruhiy holati buzilganmi; jinoyat sodir etganidan keyin ruhiy holatning buzilishi yuzaga kelgan yoki aqli noraso holda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash talab etiladimi va shu kabi masalalar sudning qaror qabul qilish paytidagi shaxs tomonidan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilganda, yuqoridagi holatlar mavjudligini tekshirish kabi mutlaq vakolatiga qaramay, dastlabki

tergov jarayonida surishtiruvchi, tergovchi va prokuror tomonidan aniqlanishi zarur.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash ham jinoiy-huquqiy hamda ma'lum umumhuquqiy oqibatlarga olib keladi. Shu bilan birga, agar fuqaro fuqarolik protsessual ravishda muomalaga layoqatsiz deb topilsa, bunday shaxs O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 5-moddasida belgilangan ovoz berish huquqidan mahrum qilinadi.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali ta'minlashga yordam berishi zarur. Ruhiy buzilish holati shaxsning hayoti, o'zi va jamiyatga bo'lgan munosabati, jamiyatning esa shaxsga bo'lgan munosabatini sezilarli darajada o'zgartirishi mumkin. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashning tegishli huquqiy tartibga solinmaganligi yoki to'liq bo'lmasligi ularni noqonuniy tibbiy maqsadlarda ishlatish, fuqarolar salomatligi, inson qadr-qimmatini va huquqlari, shuningdek, davlatning xalqaro maydondagi obro'siga zarar yetkazish sabablaridan biri bo'lishi mumkin. Mashhur ruhshunos I.N. Vvedenskiy o'z asarlarida shunday yozadi: "Majburiy davolanish masalasi, bu davolanishni shifokor emas, huquqshunos belgilagani, tibbiyot tomonidan emas, balki jinoyat qonuni bilan tartibga solingani sabab juda muhim va dolzarbdir. Ushbu majburiy davolash muayyan holatlarda amalga oshiriladigan ma'lum amaliy tadbir bo'lgani va hech qanday holatda mavhum va mutlaqo prinsipial tushuncha bo'lmaganligi bois, birinchi navbatda, ushbu shartli atamani tavsiflashda yuqori aniqlik, uning doirasi va chegaralarini aniqlash zarur [9].

Shu bois tibbiy yo'sindagi majburlov choralari jinoyat huquqining zamonaviy instituti sifatida, qonunchilik bo'yicha tub o'zgarishlar qilish lozim, deb hisoblaymiz.

Inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish muammosi sog'liqni saqlash

sohasida fuqarolarning alohida siyosiy va ijtimoiy xususiyatiga ega. Bu, ayniqsa, aholining ijtimoiy himoyaga mos qatlamlariga to'g'ri keladi [10].

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 91-moddasiga binoan, sud tomonidan quyidagi toifadagi shaxslarga tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilishi mumkin: 1) alkogolizm; 2) giyohvandlik; 3) zaharvandlikka yo'liqqan yoxud aqli norasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxslarga nisbatan. Shu bilan birga, qonun, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 92-moddasi quyidagi cheklovlarini nazarda tutadi, ya'ni ushbu choralar shaxsga nisbatan uning ijtimoiy xavfli qilmishni aqli norasolik holatida sodir etgan yoki hukm chiqarilguniga qadar yoxud jazoni o'tash vaqtida o'z harakatlarning ahamiyatini anglay olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan tarzda ruhiy holatining buzilishi yuzaga kelgan shaxsga nisbatan, agar u o'zining ruhiy holati va sodir etgan qilmishning xususiyatiga ko'ra jamiyat uchun xavf tug'dirsa, qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalari

Ta'kidlash joizki, Jinoyat-protsessual qonuni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual Kodeksining 61-bobi qoidalariga muvofiq amalga oshiriladigan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha maxsus chora-tadbirlarni belgilaydi.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha ishlarni yuritishning jiddiyligi va ahamiyati hamda fuqarolarning asosiy konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini sezilarli darajada cheklashiga qaramay, qonunchilik ushbu tushunchani qonuniy tartibga solishni ta'minlamaydi. Ushbu holat salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lib, bu hodisaning mohiyatini amorf tushunish nazariy jihatdan ko'plab tortishuvlarga olib keladi va natijada qonun amaliyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Farqli tushunchalar mavjud bo'lmasa, qonunda majburiy davolanish va ruhshunos ko'rigida davolanish o'rtasidagi chegara yo'qoladi.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha ish yuritish tushunchasini aniqlash uchun tibbiy yo'sindagi majburlov choralari kabi tarmoqlararo huquqiy tushunchaning mazmunini yoritish zarur. Bu tushunchaning ko'plab ta'riflari tahlili uning yagona tavsifi yo'qligini ko'rsatadi. Ushbu tushunchaning ilmiy xilma-xilligiga qaramay O'zbekiston Respublikasi Jinoyat va Jinoyat-protsessual Kodekslarida tibbiy yo'sindagi majburlov choralari aniq tushunchasiga ta'rif berilmagan, faqatgina ularni qo'llash asoslari, qo'llashning maqsadi va turlari, shuningdek, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari uzaytirish, o'zgartirish va tugatish asoslari ko'rsatib o'tilgan.

Faqatgina yuridik adabiyotlarda tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tushunchasini ko'rishimiz mumkin: "Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari deb, sud psixiatriya ekspertizasi xulosasiga asoslangan holda, muayyan ruhiy kasallikka chalingan va Jinoyat Kodeksining Maxsus qismida ko'rsatilgan ijtimoiy xavfli qilmishlardan birini sodir etgan, shuningdek, alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka chalingan shaxslarga nisbatan sud hukmi yoki ajrimi bilan qo'llaniladigan, majburiy ruhiy davolashga aytiladi"[11]. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tushunchasi ta'rifining murakkabligi hamda tibbiy va yuridik mezonlarni o'z ichiga olishi bilan ham bog'liq.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari – bu, birinchi navbatda, davlat majburlov turi; jinoyat-huquqiy xarakterga ega bo'lgan chora; u faqat odamlarning cheklangan doirasiga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Rus olimi A.A. Savinning fikricha, yana bir nuqtayi nazar mavjud, unga ko'ra, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash ruhiy nosog'lom bo'lgan shaxslarni ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishdan himoyalash chorasidir [12].

Biz Y.A. Popkov tomonidan bildirilgan munosabatga murojaat qilamiz: "Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari – bu ji-

noiy-huquqiy majburlov choralari bo'lib, sud tomonidan aqli norasolik holatida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan yoki aqli rasolik holatida jinoyat sodir etib, so'ng ruhiy kasallikka chalingan, jazo tayinlash yoki jazoni o'tashning imkoni bo'lmagan shaxslarni davolash hamda ruhiy holatini yaxshilash, ular tomonidan sodir etiladigan ijtimoiy xavfli qilmishlarning oldini olish, jamoat xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, ushbu shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish maqsadida majburiy davolash choralari sifatida qo'llaniladi".

A.N. Batanovning fikricha, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari davlat majburlov choralari hisoblanib, jinoyat yoki ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan, ruhiy kasallikdan aziyat chekadigan shaxsga sud ajrimi yoki hukmi bilan psixiatrik davolanishi uchun tayinlanishidir.

K.S. Sefikurbanovning fikricha, "Sudning maxsus jinoiy protsessual tartibda qarori yoki ajrimi bilan ruhiy kasallik holatida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning ruhiy holatini tiklash yoki yaxshilash, shaxsning xavfsizligini o'z xatti-harakatlaridan himoya qilish va ushbu shaxs yoki ijtimoiy xavfli qilmishdan keyin ruhiy kasallikka chalingan va jazoni tayinlash yoki ijro etishning iloji bo'lmagan, ruhiy holati va u tomonidan sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish nuqtayi nazaridan jamiyatga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan shaxsni ijtimoiy reabilitatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladigan davlat majburlov choralari qo'llash bo'yicha mutlaq huquqidir" [13].

Tadqiqot natijalari va tahlili

Bizning fikrimizcha, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha ish yurituv O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual Kodeksining 61-bobida ko'rsatilgan qonun bilan belgilangan, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan dastlabki tergovda tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi ishlar (jinoyat ishlari) va ularni keyinchalik o'zgartirish,

uzaytirish, tugatish jarayonida jinoyat qonuni bilan taqiqlangan qilmishni aqli norasolik holatida sodir etgan yoki jinoyat sodir etganidan keyin ruhiy kasallikka chalingan shaxslar hamda jabrlanuvchining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyasiga, shuningdek, jamiyatni ushbu shaxs sodir etishi mumkin bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining Maxsus qismida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishlar, shuningdek, ushbu ko'rib chiqilgan harakatlar tizimini ishlab chiqish ishtirokchilari o'rtasida yuzaga kelayotgan huquqiy munosabatlarni himoyalashga qaratilgan jinoyat ishini yuritishning alohida tartibini hisoblash mumkin.

Jinoyat qonunchiligi bilan taqiqlangan harakatni aqli norasolik holatida sodir etgan yoki jazo tayinlash hamda uni ijro etishni imkonsiz qiluvchi holatda, ya'ni jinoyat sodir etganidan keyin ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan davlat va fuqaro o'rtasida mavjud bo'lgan jinoiy-huquqiy munosabatlari, aslida, jinoyat huquqi normalarini amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Bunday munosabat mavjudligi tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llashning shartidir. Uni tekshirish ushbu toifadagi ishlar uchun maxsus nazarda tutilgan tartibda jinoyat ishini yuritish jarayonida amalga oshiriladi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi, 61-bob). Sud ushbu munosabatlarning mavjudligini qaror yoki ajrim bilan tasdiqlaydi.

Ushbu turdagi ishlarining xususiyatlari shundaki, sud tomonidan, birinchi navbatda, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning ayblilik yoki aybsizlik masalasasi ko'rilmaydi, buning o'rniga tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash asosligi hal etiladi.

T.Z. Rzayev tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llashning majburiy asoslarini: birinchidan, shaxs tomonidan Jinoyat Kodeksida ko'rsatilgan ijtimoiy xavfli harakat sodir etilishi; ikkinchidan, shaxsda o'z harakatlarini anglash va boshqarish qobiliyatidan mahrum qiladigan darajada ruhiy kasallik mavjudligi; uchinchidan, shaxsning

ruhiy holati va harakat xarakterlarining ijtimoiy xavfliligiga ko'ra belgilab o'tgan [14].

N.A. Zelinskaya tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llashning uchta asosi bor deb hisoblaydi:

- bu ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash imkoniyati;

- ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsda ruhiy buzilish belgilari borligi;

- ushbu shaxs tomonidan o'zi yoki boshqa shaxslarga jiddiy zarar yetkazish ehtimoli mavjudligi.

Biroq K.S. Sefikurbanov N.A. Zelinskaya-ni yuqorida ko'rsatib o'tilgan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash to'g'risidagi asoslariga qo'shilmasdan, faqatgina bitta asos, ya'ni uning fikricha, "tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llashning faqatgina birgina asosi bo'lib, jinoyat huquqi bilan taqiqlangan harakat sodir etgan, ruhiy holati buzilgan shaxsning ijtimoiy xavfliligi bo'lib, bu ikki mezon: tibbiy va yuridik mezon bilan tasniflanadi", deya ta'kidlab o'tgan [15].

Xulosalar

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llashning umumiy asoslari O'zbekiston Respublikasi JKning 92-moddasida ijtimoiy xavfli qilmishni aqli norasolik holatida sodir etgan yoki hukm chiqquniga qadar yoxud jazoni o'tash vaqtida o'z harakatlari-ni ahamiyatini anglay olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan tarzda ruhiy holatining buzilishi yuzaga kelgan shaxs-ga nisbatan, agar u o'zining ruhiy holati va sodir etgan qilmishining xususiyatiga ko'ra, jamiyat uchun xavf tug'dirsa, sud tomonidan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini tayinlanishi mumkin, deya ko'rsatilgan. Bizning fikrimizcha, ushbu asoslar faqat jinoyat huquqi tomonidan belgilangan. Jinoyat-protsessual huquqida esa tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash asoslari ko'rsatib o'tilmagan, buning o'rniga JPK 565-moddasida tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash to'g'risidagi masalalarni ko'rish tartibi, shu-

ningdek, JPKning 566-581-moddalari asosida belgilangan. Ushbu moddada tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash asoslari umuman yoritilmagan. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi JPKning 565-moddasiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish kerak, deb o'ylaymiz hamda **565-modda. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash asoslari hamda tartibi.**

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash asoslari:

1) *"O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 93-moddasining "b", "g" bandlarida ko'rsatilgan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi ish yuritish jinoyat huquqi bilan taqiqlangan qilmishni sodir etgan shaxsga nisbatan yoki shaxsda jinoyat sodir etgandan so'ng ruhiy holatining buzilishi yuzaga kelgan hamda jazo tayinlanishi va uning ijro etilishini istisno etadigan holatlar mavjud bo'lsa;*

2) *tibbiy yo'sindagi majburlov choralari, agar shaxsning ruhiy buzilishi unga yoki boshqa shaxslarga xavf tug'dirsa hamda atrofdagilarga xavf solishi ehtimoli bo'lsa;*

3) *ushbu bobning talablari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 18¹-moddasida ko'rsatilgan va aqli rasolikni istisno etmaydigan ruhiy holati buzilgan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi. Bunday holda sud tomonidan jazo bilan birga tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlanadi.*

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi masalalarni ko'rish tartibi ushbu Kodeksning umumiy qoidalari, shuningdek, 566-581-moddalari asosida belgilanadi.

Bundan tashqari, aqli norasolik holatida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha ish yuritish tegishli ishlar doirasida o'tkazilishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual Kodeksining 61-bobida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq olib borilgan dastlabki tergov davomida to'plangan hujjatlarni jinoyat ishi emas, balki *tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha ish deb atashni taklif qilamiz.*

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha ish yuritish murakkab huquqiy institutdir, chunki uni amalga oshirish jarayonida mansabdor shaxslar nafaqat jinoyat-protsessual, balki jinoyat, fuqarolik, fuqarolik protsessual huquq sohaslariga ham murojaat qilishlari zarur. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan hollarda, isbotlanishi shart bo'lgan holatlarni aniqlashda nafaqat huquq, balki sud psixiatriyasi sohasida ham chuqur bilim talab qilinadi.

Shunday qilib, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha ish yuritish murakkab huquqiy institut bo'lib, unga jinoyat-protsessual huquq normalari bilan bir qatorda, jinoyat va boshqa huquq sohalari normalari, shuningdek, sud psixiatriyasining ayrim qoidalari kiradi.

Yuqorida keltirib o'tilganlardan ko'rinib turibdiki, davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlar, birinchi navbatda, inson, uning qadri, bir so'z bilan aytganda, "Inson qadri uchun" degan tamoyilga asoslangan holda amalga oshirilmoqda.

REFERENCES

1. Gerasina Y.A. Obshestvennaya opasnost' kak kriteriy vybora vida prinuditelnykh mer meditsinskogo kharaktera, ikh izmeneniya i prekrasheniya [Social danger as a criterion for choosing the type of coercive measures of a medical nature, their change and termination]. Available at: <http://www.cyberleninka.ru/article/n/obschestvennaya-opasnost-kak-kriteriy-vybora-vida-prinuditelnyh-mer-meditsinskogo-harakter-a-ih-izmeneniya-i-prekrascheniya/viewer/>.

2. Rzayev T.Z. *Primeneniye prinuditel'nykh mer meditsinskogo kharaktera pri ogranichennoy vmenyayemosti* [The use of coercive measures of a medical nature with limited sanity]. Available at: http://www.elibrary.ru/download/elibrary_24075276_29768197.pdf/.
3. Bartoshek M. *Rimskoye pravo: ponyatiya, terminy, opredeleniya* [Roman law: concepts, terms, definitions]. Available at: <http://www.ancientrome.ru/dictio/bart/01.htm/>.
4. Shishkov S.N. *Nevmenyayemost (mirovovzrencheskiye, empiricheskiye, sotsialnye predposylki i stanovleniye v kachestve pravovoy kategorii)* [Insanity (ideological, empirical, social prerequisites and formation as a legal category)]. Available at: <http://www.search.rsl.ru/ru/record/01004707668/>.
5. Skripchenko N.Yu. *Istoriya razvitiya ugovnogo zakonodatel'stva, reguliruyushhego primeneniye prinuditel'nykh mer meditsinskogo kharaktera v otnoshenii nesovershennoletnikh* [The history of the development of criminal legislation governing the use of coercive measures of a medical nature in relation to minors]. Available at: <http://www.justicemaker.ru/view-article.php?id=21&art=3541/>.
6. Dmitriyev A.S., Klimenko T.V. *Sudebnaya psixiatriya* [Forensic Psychiatry]. Available at: <http://www.klex.ru/t6f/>.
7. Petrov D. *Pravovyye aspekty nevmenyayemosti, nedeеспosobnosti i netrudosposobnosti* [Legal aspects of insanity, incapacity and disability for work]. Available at: <http://www.rulaws.ru/articles/pravovye-aspekty-nevmenyaemosti-nedeеспosobnosti-i-netrudosposobnosti/>.
8. Tyajelnikova D.A. *Primeneniye prinuditel'nykh mer meditsinskogo kharaktera k litsam, sovershivshim obshchestvenno opasnoye deyaniye v sostoyanii nevmenyayemosti* [Application of coercive measures of a medical nature to persons who have committed a socially dangerous act in a state of insanity]. Available at: <http://www.cyberleninka.ru/article/n/primenenie-prinuditel'nyh-mer-meditsinskogo-harakter-a-k-litsam-sovershivshim-obshchestvenno-opasnoe-deyaniye-v-sostoyanii/>.
9. Vvedenskiy I.N. *Prinuditel'noye lecheniye dushevnobol'nykh. Dushevnobol'nyye pravonarushiteli i prinuditel'noye lecheniye* [Forced treatment of the mentally ill. Mentally ill offenders and compulsory treatment]. Available at: http://www.rusneb.ru/catalog/000199_000009_009028647/.
10. Soshina L.A. *K voprosu o zakonodatel'nom opredelenii termina "prinuditel'nyye mery meditsinskogo kharaktera"* [To the question of the legislative definition of the term "compulsory measures of a medical nature"]. *Sibirskiy yuridicheskiy vestnik – Siberian Legal Bulletin*, 2010. Available at: <http://www.cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-zakonodatel'nom-opredelenii-term-a-prinuditel'nyh-mer-meditsinskogo-harakter-a/>.
11. Ochilov X.R., Turg'unboyev E.O. *Jinoyat huquqi* [Criminal Law]. Tashkent, 2013, 141 p.
12. Savin A.A. *Sushchnost prinuditel'nykh mer meditsinskogo kharaktera* [The essence of compulsory medical measures]. Available at: <http://www.cyberleninka.ru/article/n/sushchnost-prinuditel'nyh-mer-meditsinskogo-harakter-a/>.
13. Sefikurbanov K.S. *Primeneniye prinuditel'nykh mer meditsinskogo kharaktera v ugovnom sudoproizvodstve Rossii* [The use of coercive measures of a medical nature in criminal proceedings in Russia]. Available at: <http://www.lawlibrary.ru/izdanie2092851.html/>.
14. Rzayev T.Z. *Primeneniye prinuditel'nykh mer meditsinskogo kharaktera pri ogranichennoy vmenyayemosti* [The use of coercive measures of a medical nature with limited sanity]. Available at: http://www.elibrary.ru/download/elibrary_24075276_29768197.pdf/.
15. Sefikurbanov K.S. *Obshchestvennaya opasnost' psikhicheskogo bol'nogo litsa kak osnovaniye primeneniya prinuditel'nykh mer meditsinskogo kharaktera* [The social danger of a mentally ill person as a basis for the application of coercive measures of a medical nature]. Available at: <http://www.cyberleninka.ru/article/n/obshchestvennaya-opasnost-psikhicheskogo-bol'nogo-litsa-kak-osnovanie-primeneniya-prinuditel'nyh-mer-meditsinskogo-harakter-a/>.

UDC: 343(045)(575.1)

QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILUVCHI HOLAT SIFATIDA ZARURIY MUDOFAA VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Choriyev Anvar Kuziyevich,

Buxoro viloyati Qorovulbozor tumani IIB xodimi

ORCID: 0000-0002-4785-3233

e-mail: anvar1982chq@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada muallif qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holat sifatida zaruriy mudofaa va uning o'ziga xos xususiyatlarini yoritgan. Muallifning qayd etishicha, shaxs, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash maqsadida jinoyat qonunchiligini liberallashtirish hamda takomillashtirish jinoyat-huquqiy siyosatda ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Muallif zaruriy mudofaa institutining eng muhim xususiyatlaridan yana biri zaruriy mudofaa faqat ijtimoiy xavfli tajovuzlarga qarshi qaratilgan bo'lishi, biroq qonun chiqaruvchi jinoyat qonunida bunday tajovuz turlarini bir-biridan farqlamasligiga e'tibor qaratadi. Shuningdek, qilmishni zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan deb baholashda birmuncha qiyinchiliklar mavjudligi yoritilgan. Bundan tashqari, zaruriy mudofaani asosli deb topishning yana bir sharti tajovuzda ijtimoiy xavfning mavjudligi ekanligi bayon qilingan. Shunga to'xtalib, muallif tajovuz bo'lmagan hollarda tajovuzchi ham bo'lmaydi, tajovuzchining yo'qligi esa zaruriy mudofaa huquqidan foydalanish imkoniyatini yo'qqa chiqarishini tushuntiradi. Maqolada nafaqat jinoiy huquqbuzarliklar, balki ma'muriy huquqbuzarliklardan mudofaa ham shaxsning zaruriy mudofaa huquqini keltirib chiqarishi asoslantirilgan. Zaruriy mudofaa shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod etuvchi holat emas, balki qonunga xilof tajovuzlarda tajovuzchiga qonun yo'l qo'yadigan usullar orqali hujum qilib, zarar yetkazgan hollarda qilmish jinoyat sanalmaydigan holatdir. Shu jihatdan ham zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan qilmish, agar uning chegaralaridan chetga chiqilmagan bo'lsa, tajovuz qiluvchi shaxsga zarar yetkazish orqali ijtimoiy xavfli tajovuzlarga faol qarshilik ko'rsatish bilan jinoyat obyektni muhofaza qilishga rag'batlantirishi asoslantirilgan.

Kalit so'zlar: qilmish, qilmishning jinoiyligini istisno qilish, zaruriy mudofaa, tajovuz, tajovuzchi, tajovuzning realligi, ijtimoiy xavf, shaxs, jamiyat yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari.

НЕОБХОДИМАЯ ОБОРОНА КАК ОБСТОЯТЕЛЬСТВО, ИСКЛЮЧАЮЩЕЕ ПРЕСТУПНОСТЬ ДЕЯНИЯ, И ЕГО ОСОБЕННОСТИ

Чориев Анвар Кузиевич,

сотрудник Караулбазарского РОВД

Бухарского управления внутренних дел

Аннотация. В данной статье автор рассмотрел необходимую оборону и ее особенности как условие, исключающее преступность деяния. Автор отмечает, что либерализация и совершенствование уголовного законодательства в целях обеспечения надежной защиты человека, его прав и свобод, законных интересов является одной из приоритетных задач уголовно-правовой политики. Еще одной важнейшей характеристикой института

необходимой обороны является тот факт, что необходимая оборона направлена только на общественно опасные посягательства, но законодатель обращает внимание на то, что в уголовном праве такие виды агрессии не различаются. Также подчеркивается, что существуют определенные трудности в оценке деяния как совершенного в состоянии необходимой самообороны. Кроме того, указано, что еще одним условием для признания необходимой обороны обоснованной является наличие общественной опасности в нападении. Акцентируя внимание на этом, автор поясняет, что в случаях ненападения агрессора нет, а отсутствие агрессора исключает возможность использования права на необходимую оборону. В статье обосновано, что защита от не только уголовных правонарушений, но и административных правонарушений порождает право на необходимую защиту лица. Необходимая оборона – это не ситуация, освобождающая лицо от уголовной ответственности, а ситуация, при которой деяние не считается преступлением в случаях, когда обороняющийся, подвергшийся нападению агрессора, причиняет вред разрешенными законом способами. В связи с этим обосновывается, что деяние, совершаемое в случае необходимой обороны, если оно не отклоняется от ее пределов, способствует защите объекта преступления путем активного сопротивления общественно опасной агрессии путем нанесения вреда агрессору.

Ключевые слова: деяние, исключение преступности деяния, необходимая оборона, посягательство, посягатель, реальность посягательства, общественная опасность, права и законные интересы человека, общества или государства.

NECESSARY DEFENSE AS A CONDITION THAT EXCLUDES THE CRIMINALITY OF THE ACT AND ITS PECULIARITIES

Choriyev Anvar Kuzievich,

An employee of the Karavulbazar District Department of
Internal Affairs of Bukhara region

Abstract. In this article, the author considered the necessary defense and its features as a condition excluding the criminality of the act. The author notes that the liberalization and improvement of criminal legislation to ensure reliable protection of a person, his rights and freedoms, and legitimate interests are the priorities of Criminal law policy. Another essential characteristic of the institution of necessary defense is the fact that the necessary defense is directed only against socially dangerous encroachments, but the legislator draws attention to the fact that in criminal law, such types of aggression do not differ from each other. This is also covered by presence of some difficulties in assessing the act as committed in a state of necessary defense. In addition, it is indicated that another condition for recognizing the necessary defense justified is the presence of public danger in aggression. Referring to this, the author believes that in cases where there is no aggression, there is no aggressor, and the absence of an aggressor will negate the possibility of using the necessary rights to defense. The article substantiates that protection not only from criminal offenses but also from administrative offenses generates the right of an individual to the necessary defense. The necessary state of defense is not a state that exempts a person from criminal liability, but a state in which the act is not considered a crime in cases of unlawful encroachment by attacking the aggressor by methods permitted by law and causing harm. In this regard, it is substantiated that an act committed in a state of necessary defense, if it does not deviate from its limits, stimulates the protection of the object of the crime with active resistance to socially dangerous encroachments by harming the aggressor.

Keywords: act, the exclusion of criminality of the act, the necessary defense, encroachment, attacker, the reality of encroachment, public danger, the rights and legitimate interests of a person, society or the state.

Kirish

Shaxs, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash maqsadida jinoyat qonunchiligini liberallashtirish hamda takomillashtirish jinoyat-huquqiy siyosatda ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Bugungi kunda mamlakatimizdagi islohotlar inson qadrini yuksaltirish, inson huquq va erkinliklarini jinoyat-huquqiy vositalar orqali muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham "... yangi turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish jarayonlarida fuqarolarning qadr-qimmati va erkinligini himoya qilishning samaradorligini yanada oshirish" ustuvor vazifa sifatida izchil davom ettirilishi belgilandi.

Yashash (24-modda), erkinlik va shaxsiy daxlsizlik (25-modda), turar joy daxlsizligi (27-modda) huquqi va boshqa konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni himoya qilish jinoyat-huquqiy normalar bilan amalga oshiriladi. Ushbu konstitutsiyaviy huquqlarni amalga oshirish va himoya qilish usullaridan biri sifatida zaruriy mudofaa huquqidan foydalanishni e'tirof etish mumkin. Negaki jinoyat qonunchiligida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishning eng muhim kafolatlaridan biri – zaruriy mudofaa instituti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida zaruriy mudofaa borasida zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan, ya'ni mudofaa-lanuvchi yoxud boshqa kishining shaxsi yoki huquqlari, jamiyat yoki davlat manfaatlarini qonunga xilof tajovuzlardan tajovuzchiga zarar yetkazgan holda himoya qilish chog'ida qilingan harakat, agar zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqilmagan bo'lsa, jinoyat deb topilmasligi mustahkamlangan.

Shuningdek, qonun chiqaruvchi mudofaa-lanish chog'ida boshqa shaxslar yoki hokimiyat organlariga yordam so'rab murojaat qilish yoxud tajovuzdan o'zga yo'sinda qu-

tulish imkoniyati bor-yo'qligidan qat'i nazar, zaruriy mudofaa huquqi shaxsга tegishli ekanligini ham belgilaydi.

Zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan qilmishni baholash jarayonida yo'l qo'yiladigan qonun normalarini qo'llash bilan bog'liq xatoliklar natijasida fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini buzilmoqda. Bundan tashqari, mazkur sohada ilmiy tadqiqotlar kam o'tkazilganligi ushbu mavzuni tadqiq etish zaruratini tug'diradi.

Zaruriy mudofaa holatida jinoyat qonunini qo'llashning amaliy muammolaridan biri tajovuzning xususiyati va xavfliligi darajasiga butunlay muvofiq kelmaydigan mudofaa hamda zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish holatlarida yuz beradi. Shu jihatdan ham jabrlanuvchida zarar yetkazish maqsadida qasddan hujum qilish istagini qo'zg'atish zaruriy mudofaa deb topilmaydi.

Bir so'z bilan aytganda, milliy jinoyat huquqi tizimida zaruriy mudofaa fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini qonun bilan taqiqlanmagan yo'llar bilan himoya qilish subyektiv huquqini amalga oshirishning muhim vositasi sanaladi.

Material va metodlar

Qilmishning jinoyatligini istisno qiluvchi holat sifatida zaruriy mudofaa va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, mazkur holatni nazarda tutuvchi qonun hujjatlari normalarini tahlil qilishda tahlil, tarixiy-qiyosiy uslub, abstraksiya va taqqoslash singari ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Zaruriy mudofaa institutining eng muhim xususiyatlaridan yana biri zaruriy mudofaa faqat ijtimoiy xavfli tajovuzlarga qarshi qaratilgan bo'lishidir. Biroq qonun chiqaruvchi jinoyat qonunida bunday tajovuz turlarini bir-biridan farqlamaydi. Bu esa qilmishni zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan deb baholashda birmuncha qiyinchiliklar tug'diradi. Shuningdek, zaruriy mudofaani asosli deb topishning yana bir sharti tajovuzda ijtimoiy xavfning mavjudligidir. Tajovuz bo'l-

magan hollarda tajovuzchi ham bo'lmaydi, tajovuzchining yo'qligi esa zaruriy mudofaa huquqidan foydalanish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi.

Yuridik adabiyotlarda zaruriy mudofaa tushunchasiga turli ta'riflar berilgan. Aksariyat adabiyotlarda zaruriy mudofaa – jinoyat huquqida ijtimoiy xavfli tajovuzdan tajovuzkorga zarar yetkazish orqali mudofaalanuvchi yoki boshqa shaxs huquqlari va manfaatlari yoxud jamiyat va davlatning qonuniy himoyalangan manfaatlarini himoya qilish sifatida talqin qilinadi [1].

E.F. Pobegaylo “Zaruriy mudofaa deganda, tajovuz qiluvchi shaxsga zarar yetkazish orqali ijtimoiy xavfli tajovuzlardan qonuniy himoyalaniş tushuniladi” [2], degan g'oyani ilgari surgan. N.S. Tagansev esa zaruriy mudofaa davlatning himoya faoliyatiga zaruriy madad bo'lib, tajovuzchining manfaatlariga zarar yetkazish noqonuniy emas, balki qonuniy ekanligiga ham urg'u beradi. Shuningdek, u ushbu tushunchaga “Zaruriy mudofaa mudofaalanuvchi yoki boshqa shaxslarga hujum qilayotgan shaxsning huquq va manfaatlariga jinoyatni istisno qiluvchi zarar yetkazish” [3], deb ta'rif berib o'tgan.

D. Persev esa “Zaruriy mudofaa – bu huquq-tartibot manfaatlariga tajovuz qilgan shaxsning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetkazish orqali ijtimoiy xavfli hujumdan o'zini himoya qilgan shaxs tomonidan shaxs, jamiyat yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlarini qonuniy himoya qilish” [4] ta'rifini ma'qul deb hisoblaydi.

Ko'plab olimlar V Tkachenkoning “zaruriy mudofaa ijtimoiy xavfli tajovuzlarga faol qarshilik ko'rsatish” [5], degan fikriga qo'shiladi. Uning ilgari surgan g'oyasiga ko'ra, faqatgina faol qarshilik bilangina ijtimoiy munosabatlarga tajovuzning oldini olish mumkin ekan. Biz ham ushbu fikrga qo'shilamiz, zero, faol bo'lmagan, ya'ni passiv mudofaa zaruriy mudofaani yuzaga keltirmaydi.

Shu bilan birga, shuni ham eslatib o'tish lozimki, barcha faol mudofaa ham zaruriy

mudofaa deb hisoblanishi mumkin emas. Mudofaalanuvchi ijtimoiy xavfli hujumning oldini olishga intilib, o'zi, huquq va manfaatlari yoki mol-mulkiga tajovuz qiluvchi shaxsga zarar yetkazmaydigan harakatlarni amalga oshirishi ham mumkin. Misol uchun, hujumdan qochishi ham mumkin. Bunday harakatlar zaruriy mudofaa emas, chunki ular tajovuzkorga hech qanday zarar yetkazmaydi. Tajovuzchiga zarar yetkazilmas ekan, mudofaalanuvchi shaxs zaruriy mudofaa huquqidan foydalanmagan hisoblanadi.

Shuningdek, tahlil etishimiz lozim bo'lgan masalalardan yana biri zaruriy mudofaaning shaxsning huquqi yoki yuridik majburiyati ekanligiga oydinlik kiritishdir.

I.I. Sluskiy [6], V.V. Mepkypev [7], V.A. Bikmashev [8] va V.I. Tkachenko [9]lar o'z ilmiy izlanishlarida zaruriy mudofaa, avvalo, shaxsning huquqi bo'lishi, biroq ba'zi subyektlar uchun yuridik majburiyat ham hisoblanishini isbotlashga urinadilar hamda ushbu subyektlarga misol qilib navbatchilik yoki patrul vaqtida harbiy xizmatchilarni ko'rsatishadi. Ular o'zlarining fikrlarini asoslash uchun navbatchilik yoki patrul xizmati xodimlarining amaldagi qonunchilikka muvofiq ijtimoiy xavfli tajovuzlarning oldini olish uchun majbur ekanligini ko'rsatib o'tishgan.

Yuqoridagi fikrga qarshi bo'luvchi olimlar ham mavjud bo'lib, ulardan biri N.G. Kadnikovdir. Uning fikricha, qonun fuqarolardan o'zi va boshqalarni noqonuniy hujumlardan himoya qilishni talab qila olmaydi. Zaruriy mudofaa shaxsning subyektiv huquqi bo'lib, undan foydalanish, tajovuzdan qochish yoki boshqalarning yordamiga murojaat qilish haqida qaror qabul qilish shaxsning o'ziga bog'liq deb hisoblaydi. Politsiya xodimi noqonuniy harakatlarni to'xtatish va jinoyatchilarni ushlab turish majburiyatiga egaligi, ammo noqonuniy hujumga qarshi o'zini himoya qilishga majbur emasligini asos sifatida ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi “Ichki ishlar organlari to'g'risida”gi Qonunining 16-mod-

dasida ichki ishlar organlarining majburiyat-lari belgilangan bo'lib, unga ko'ra, ichki ish-lar organlari fuqarolarning huquqlari, erkin-liklari va qonuniy manfaatlari, yuridik va jis-moniy shaxslarning mulki, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini himoya qilish bo'yicha o'z vakolatlari doirasida barcha zarur choralarni ko'rishi, jamoat joylari, shu jumladan, ko'cha-lar, maydonlar, istirohat bog'lari, transport magistrallari, vokzallar, aeroportlar, shu-ningdek, ommaviy tadbirlarni o'tkazish cho-g'ida fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashi, jinoyatlar, boshqa huquqbuzarlik va hodi-salar bo'yicha o'z vaqtida choralar ko'rishi ularning majburiyati sifatida belgilangan.

Demak, ichki ishlar organlari xodimi o'z vazifasini bajarish yuzasidan zaruriy mudo-faa holatiga yuridik majburiyat sifatida qa-rashi lozim. Shu holatdan kelib chiqib, biz zaruriy mudofaa shaxsning subyektiv huquqi ekanini tan olamiz, biroq ma'lum kasb egalari uchun yuridik majburiyat ham bo'la olishi fikriga qo'shilamiz.

Yuridik adabiyotlarda zaruriy mudofaa aynan qanday tajovuzlarga nisbatan mavjud bo'lishi haqida, ya'ni ma'muriy huquqbu-zarliklarga nisbatanmi yoki faqat jinoyatlar bilan bog'liq tajovuzlarga qarshi qo'llanilishi mumkinmi kabi turli fikrlar bildiriladi.

S.F. Milyukov "Zaruriy mudofaa instituti barcha mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarga qarshi mudofaa uchun universal asosga ega, shu jumladan, ma'muriy huquqbuzarlik ho-latlarida ham qo'llanilishi mumkin", degan qa-rashni ilgari surgan [9].

N.D. Durmanovning nuqtayi nazariga ko'ra esa "Ma'muriy yoki intizomiy huquqbu-zarliklar yoki kam ahamiyatli qilmishlarga qarshi mudofaada shaxs, umumiy qoidaga asosan, zaruriy mudofaadan foydalana ol-maydi" [10].

T.G. Shavgulidze "Zaruriy mudofaaga bo'l-gan huquqni barcha ijtimoiy xavfli tajovuzlar yarata olmaydi, faqatgina oz darajada bo'l-sa-da, ijtimoiy xavfi mavjud bo'lgan tajovuz-lar yuzaga keltirishga qodir, bunday tajovuz-

larga, asosan, jinoyat qonuni bilan taqiqlan-gan harakatlar kiradi. Shuningdek, aslida, jinoyat bo'lmasa-da (obyektiv ma'noda), uning ijtimoiy xavfliligiga shubha bo'lmay-digan tajovuzlar ham yarata oladi", deb ta'kidlaydi [11].

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 18-moddasida Ma'muriy javob-garlik to'g'risidagi kodeksida yoki ma'muriy huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgar-lik belgilovchi boshqa normativ hujjatlar-da nazarda tutilgan, lekin zaruriy mudofaa holatida, ya'ni shaxs yoki mudofaalanuvchi yoxud boshqa shaxsning huquqlari, jamiyat yoki davlat manfaatlarini g'ayrihuquqiy tajo-vuzlardan shunday tajovuz qilayotgan shaxs-ga zarar yetkazish yo'li bilan himoya qilish vaqtida, basharti, bunda zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib ketilishiga yo'l qo'yilma-gan bo'lsa, sodir etilgan harakatlar ma'muriy huquqbuzarlik deb hisoblanmasligi keltirib o'tilgan [12].

Xulosa qilish mumkinki, nafaqat jinoiy huquqbuzarliklar, balki ma'muriy huquqbu-zarliklardan mudofaa ham shaxsning zaruriy mudofaa huquqini keltirib chiqaradi.

Hozirda zaruriy mudofaa nazarda tutil-gan normaning amalida qo'llanilishi nafaqat qonuniy mexanizm yetishmasligi, balki ma'muriy huquqbuzarliklardan samarali hi-moya qilish, aksariyat hollarda shaxs, mulk, jamoat tartibi, shuningdek, qonun bilan muhofaza qilinuvchi manfaatlarga zid bo'lgan shaxslarga qarshi qaratilgan faol jismoniy ta'sir orqali ham amalga oshirilishni taqozo qiladi. Biroq bunday jismoniy ta'sir ma'muriy javobgarlikni nazarda tutuvchi qonun bilan emas, balki jinoyat qonuni bilan baholanadi (kaltaklash, sog'liqqa zarar yetkazish).

Chunki V.V. Luneev haqli ravishda ta'kid-laganidek, "Jinoyatlar va boshqa huquqbu-zarliklar o'zaro qarindosh hodisalar bilan bog'liq", ular orasidagi chegara ko'chma, shartli, nisbiy va o'ziga xos xususiyatlar ko'pincha baholovchi xarakterga ega bo'ladi.

Yuqorida qayd etilgan muammolardan biri zaruriy mudofaani oxirgi zaruratdan farqlash bilan ham bog'liq bo'lib, bu borada olimlarning qarashlari ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, M.X. Rustamboyev fikriga ko'ra, oxirgi zarurat huquqiy muhofaza qilinadigan manfaatlar to'qnashganda, ziddiyatlarni yechishning huquqiy mexanizmini o'zida ifodalaydi [13].

A.S. Yoqubov oxirgi zarurat uchinchi shaxslarning huquq bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga zarar yetkazishda ifodalana-di, deb hisoblaydi. Bunda mazkur zarar yetkazish shaxs yoxud yuridik yoki jismoniy shaxslarning huquqlari, jamiyat yoki davlat manfaatlariga tahdid solgan ko'proq yoki teng darajadagi xavfning oldini olish uchun eng so'nggi (birdan-bir) chora sifatida amalga oshiriladi [14].

M.M. Qodirov oxirgi zarurat deganda, shunday bir favqulodda holatni tushunishni taklif qiladiki, bunda ijtimoiy yoki muhim shaxsiy manfaatlariga amalga tahdid solayotgan xavf oldi olingan zarardan ozroq zarar yetkazish yo'li bilan qaytariladi [15].

Rus olimi N.N. Rozin oxirgi zaruratni harakat qiluvchining shunday bir holati sifatida tavsiflaydiki, bunda ma'lum ne'matni qutqarish yoki muayyan manfaatni amalga oshirishning birdan-bir yo'li boshqa ne'mat yoki manfaatga daxl etish hisoblanadi [16].

A.A. Piontkovskiy oxirgi zaruratga shaxsning shunday bir holati sifatida qaraydiki, bunda u qonun bilan qo'riqlanadigan muayyan manfaatlariga tahdid solayotgan xavfni faqat sirtida zaruriy mudofaa belgilari-ga ega bo'lmagan muayyan qilmishni sodir etish yo'li bilan qaytarishi mumkin [17].

S.A. Domaxin fikriga ko'ra, oxirgi zarurat – bu shunday bir holatki, bunda shaxs davlat, jamoat yoki individual manfaatlariga tahdid solayotgan xavfni huquq bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga ko'rilishi muqarrar bo'lgan zarardan kamroq zarar keltirish yo'li bilan qaytaradi [18].

Agar ijtimoiy xavfli tajovuz qilish vaqtida uni to'g'ri huquqiy baholashning hali imkoni bo'lmasa, biz belgilangan hujumdan o'zini himoya qiladigan odamdan o'zini himoya qilmasligi yoki bu maqsad uchun samarasiz usullarni qo'llashni talab qila olmaymiz. Ushbu mudofaa harakatlarini qonun doirasida joriy etish uchun ma'muriy huquqbuzarlikka qarshi zaruriy mudofaani imkon qadar tan olish lozim.

Fikrimizni davom ettirib, quyidagi normalarni misol sifatida keltirib o'tamiz. MJtKning 183-moddasida mayda bezorilik, jinoyat qonunining 277-moddasida esa bezorilik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. Ularning farqi shundaki, ma'muriy javobgarlik uchun jamoat joylarida uyatli so'zlar bilan so'kinish, fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibi va fuqarolar osoyishtaligini buzuvchi shu kabi boshqa xatti-harakatlarda ifodalangan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik kabi harakatlar sodir etilishi ko'rsatilgan bo'lsa, jinoiy javobgarlikka tortish uchun bezorilik, jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, urish-do'pposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki o'zganing mulkiga shikast yetkazish yoxud nobud qilish ancha zarar yetkazish bilan bog'liq holda sodir etilishi belgilangan.

Jinoyatlar va ma'muriy huquqbuzarliklar o'xshash normalarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning farqlari, asosan, jinoyatlarga nisbatan jiddiy, ahamiyatli, ma'muriy huquqbuzarliklar uchun esa, aksincha, jiddiy bo'lmagan va ahamiyatsiz zarar miqdorini tashkil etadi. Ushbu qilmishlar faqat jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar miqdori, ya'ni ijtimoiy xavflilik darajasi bilan farq qilishi bilan bir qatorda, har ikkisida ham ijtimoiy xavfli xususiyat mavjud bo'lib qolaveradi.

Bundan tashqari, ma'muriy huquqbuzarlik yuqori ehtimollik bilan jinoyatga aylanishi mumkin. Masalan, MJtKning 52-moddasi birinchi qismida ehtiyotsizlik orqasida

yengil tan jarohati yetkazish uchun javobgarlik belgilangani holda, mazkur modda ikkinchi qismida qasddan yengil tan jarohati yetkazish deb topilishi uchun sog'liqning qisqa muddatga yomonlashuvi yoki mehnat qobiliyatini uncha ko'p davom etmaydigan turg'un tarzda yo'qotishga olib kelmagan bo'lishi lozimligi mustahkamlangan. Jinoyat qonunining 109-moddasi "Qasddan badanga yengil shikast yetkazish" deb nomlanib, uning birinchi qismi sog'liqning qisqa muddatga yomonlashuvi yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo'lmagan muddatga yo'qolishiga olib kelmagan qasddan badanga yengil shikast yetkazish o'sha harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan holda jinoiy javobgarlikni belgilasa, ikkinchi qismi sog'liqning qisqa vaqt, ya'ni olti kundan ortiq, ammo yigirma bir kundan ko'p bo'lmagan muddatga yomonlashuvi yoki umumiy mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo'lmagan muddatga yo'qotilishiga sabab bo'lgan qasddan badanga yengil shikast yetkazish yuzasidan jinoiy javobgarlikni o'z ichiga olgan.

Mazkur holatdan shunday xulosa kelib chiqadiki, ya'ni ma'muriy huquqbuzarlik natijasida qasddan badanga yengil tan jarohati yetkazish bilan ifodalangan tajovuzni qaytarish maqsadida amalga oshirilgan mudofaa JK 109-moddasi ikkinchi qismida ko'rsatilgan jinoyat tarkibini keltirib chiqarmasligiga kafolat bermaydi.

Xulosalar

Zaruriy mudofaa shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod etuvchi holat emas, balki qonunga xilof tajovuzlarda tajovuzchiga qonun yo'l qo'yadigan usullar orqali hujum qilib, zarar yetkazgan hollarda qilmish jinoyat sanalmaydigan holatdir. Shu jihatdan ham zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan qilmish, agar uning chegaralaridan chetga chiqilmagan bo'lsa, tajovuz qiluvchi shaxsga zarar yetkazish orqali ijtimoiy xavfli tajovuzlarga faol qarshilik ko'rsatish bilan jinoyat obyektini muhofaza qilishga rag'batlantiradi.

Modomiki, zaruriy mudofaa tajovuzchiga qarshi qaratilar ekan, u faol ko'rinish kasb etadi. O'z navbatida, qonun chiqaruvchining shaxsga zaruriy mudofaadan foydalanish huquqini taqdim etishi fuqarolarning o'zi va boshqalarni jinoiy tajovuzlardan himoya qilish majburiyati yuklanishini anglatmaydi. Shuning uchun ham u subyektiv huquq bo'lib, undan foydalanish shaxsning o'ziga havola qilinadi.

Lekin u shaxsning professional xususiyatiga ko'ra (qutqaruvchi, HMQO xodimi va boshq.) majburiyatni yuzaga keltiradi.

Zaruriy mudofaadan foydalanish huquqi barqaror tajovuz mavjud bo'lgan hollarda yuzaga keladi.

Zaruriy mudofaa chegarasidan chiqish mavjudligining aniq chegarasi tajovuz qiluvchiga yetkazilgan har qanday zarar qonuniy deb hisoblanishi lozim bo'lgan obyektlar doirasini aniq belgilashni taqozo qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 37-moddasiga quyidagi o'zgartirishlarni kiritish maqsadga muvofiq:

- mudofaalanuvchi yoxud boshqa kishining shaxsi yoki huquqlari, jamiyat yoki davlat manfaatlarini aniqlashtirish, jumladan, jinsiy erkinlik, turar joy daxlsizligi hamda shaxsiy hayot daxlsizligini tushunish lozimligini aniqlashtirish;

- zaruriy mudofaa huquqi shaxsga tegishli ekanligini e'tirof etishda professional va boshqa tayyorgarlikka ega shaxslar differentsiatsiya qilinishi;

- zaruriy mudofaalanish yo'l qo'yiladigan tajovuz turlarini ham differentsiatsiya qilish.

Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holat sifatida zaruriy mudofaa holati bilan bog'liq jinoyat qonuni normalarini tadqiq etish mazkur yo'nalishdagi xato va kamchiliklar, shaxsning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari buzilishining oldini olishga xizmat qiladi. Shuningdek, shaxsga qonunga xilof tajovuzlardan qonun rux-

sat etgan usullar yordamida mudofaalanish huquqini berish orqali shaxs, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ishonch-

li himoya qilishni ta'minlash jinoyat qonunchiligini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

REFERENCES

1. Neobkhodimaya oborona. II Yuridicheskaya ensiklopediya [Necessary Defense And Legal Encyclopedia]. Ed. B.N. Topornin. Moscow, Yurist Publ., 2001, p. 613.
2. Lebedev V.M., Skuratov Yu.I. Kommentariy k ugolovnomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii [Commentary on the Criminal Code of the Russian Federation]. Moscow, 1996, p. 73.
3. Tagansev N.S. Russkoye ugolovnoye pravo [Russian criminal law]. 1994, p. 195.
4. Persev D.V. Ugolovno-pravovyye i kriminologicheskiye problemy neobkhodimoy oborony [Criminal law and criminological problems of necessary defense]. PhD thesis. Kaliningrad, 2004, p. 79.
5. Tkachenko V.I. Neobkhodimaya oborona po ugolovnomu pravu [Necessary defense in criminal law]. Moscow, Yuridicheskaya literatura Publ., 1979, p. 9.
6. Sluskiy I.I. Obstoyatel'stva, isklyuchayushhiye ugolovnuyu otvetstvennost' [Circumstances excluding criminal liability]. Leningrad, Leningrad University Publ., 1956, p. 46.
7. Merkur'yev V.V. Neobkhodimaya oborona: ugolovno-pravovyye i kriminologicheskiye aspekty [Necessary defense: criminal law and criminological aspects]. Abstract of PhD thesis. Ryazan, 1998, p. 11.
8. Bikmashev V.A. Ugolovno-pravovyye aspekty primeneniya ognestrel'nogo oruzhiya sotrudnikami organov vnutrennikh del [Criminal-legal aspects of the use of firearms by employees of internal affairs bodies]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 1997, p. 9.
9. Milyukov S.F. Rossiyskoye ugolovnoye zakonodatel'stvo: opyt kriticheskogo analiza [Russian criminal legislation: experience of critical analysis]. 2000, p. 106.
10. Durmanov N.D. Obstoyatel'stva, isklyuchayushhiye obshchestvennuyu opasnost' i protivopravnost' deyaniya [Circumstances excluding public danger and wrongfulness of the act]. Moscow, 1961, p. 12.
11. Shavgulidze T.G. Neobkhodimaya oborona [Necessary defense]. Tbilisi, Mesniyereba Publ., 1966, p. 51.
12. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi [Code of Administrative Responsibility of the Republic of Uzbekistan]. *Bulletin of the Supreme Council of the Republic of Uzbekistan*, 1995, no. 3.
13. Rustambayev M.X. Kommentariy k Ugolovnomu kodeksu Respubliki Uzbekistan [Commentary on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan]. A common part. Tashkent, Ukituvchi Publ., 2004, p. 341.
14. Ugolovnyy kodeks Respubliki Uzbekistan: nauchno-prakticheskiy kommentariy [Criminal Code of the Republic of Uzbekistan: scientific and practical commentary]. Tashkent, Adolat Publ., 1996, p. 71.
15. Yakubov A.S., Kabulov R. et al. Ugolovnoye pravo [Criminal law]. General part. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan Publ., 2005, p. 362.
16. Rozin N.N. O krayney neobkhodimosti [About extreme necessity]. 1899, p. 21.
17. Ugolovnoye pravo [Criminal law]. A common part. Moscow, Gosyurizdat Publ., 1938, p. 291.
18. Domakhin S.A. Kraynyaya neobkhodimost' po sovetskomu ugolovnomu pravu [Urgent necessity in Soviet criminal law]. Moscow, Gosyurizdat Publ., 1955, p. 14.

UDC: 343(045)(575.1)

JINOYAT ISHINI TUGATISH INSTITUTI TUSHUNCHASI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI

Mahmudov Sunnat Azim o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0000-0002-5397-4736

e-mail: s.maxmudov@tsul.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada sud-huquq islohotlarini amalga oshirish bosqichida jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilik normalari asosida jinoyat ishini tugatish instituti tushunchasi, uning o'ziga xos jihatlari va protsessual ahamiyati bayon etildi. Maqolada olimlar tomonidan jinoyat ishini tugatish instituti bo'yicha ilgari surilgan qarashlar orqali ushbu institutning qo'llanish doirasi o'rganildi. Olimlarning qarashlari va ilgari surgan g'oyalaridan kelib chiqqan holda, jinoyat ishini tugatish tushunchasi ilmiy, nazariy, amaliy va qonunchilik normalari orqali tahlil etildi. Shu bilan birga, maqolada jinoyat ishini tugatishning jinoyat protsessida tutgan o'rni va ahamiyati, uning o'ziga xos jihatlari, jinoyat protsessual qonunchilik va sud-tergov amaliyotida yuzaga kelayotgan ayrim muammolar tahlil etildi. Maqolada olimlarning jinoyat ishini tugatish bo'yicha bergan fikrlarini qiyosiy tahlil qilish, ularning bergan ta'riflaridagi tushunchalarni qonunchiligimizga asosan ko'rib chiqish orqali jinoyat ishini tugatish tushunchasi bo'yicha mualliflik ta'rifi berildi. Tahlil natijalari yuzasidan jinoyat protsessida jinoyat ishini tugatish institutining tushunchasi, uning o'ziga xos jihatlari hamda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikdagi ahamiyati yuzasidan tegishli xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: jinoyat ishi, jinoyat ishini tugatish, javobgarlik, rehabilitatsiya, javobgarlikdan ozod qilish, jinoyat ishini rehabilitatsiya qilinmaydigan asoslar bo'yicha tugatish, rehabilitatsiya qilinmaydigan asoslar.

ПОНЯТИЕ И ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИНСТИТУТА ПРЕКРАЩЕНИЯ УГОЛОВНОГО ДЕЛА

Махмудов Суннат Азим угли,

преподаватель кафедры «Уголовно-процессуальное право»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье были сформулированы понятие института прекращения уголовного дела, его специфика и процессуальное значение на этапе осуществления судебно-правовой реформы и на основе норм уголовного и уголовно-процессуального законодательства. В статье исследована область применения этого института на основе взглядов ученых относительно института прекращения уголовного дела. Исходя из взглядов и идей, выдвинутых учеными, проанализировано понятие прекращения уголовного дела через научные, теоретические, практические и законодательные нормы. Вместе с тем в статье исследованы роль и значение прекращения уголовного дела в уголовном процессе, его специфика и некоторые проблемы, возникающие в уголовно-процессуальном законодательстве и судебно-следственной практике. В статье дано авторское определение прекращению уголовного дела путем сравнительного анализа мнений ученых о прекращении уголовного дела, рассмотренного на основе

национального законодательства приведенных ими понятий. По результатам анализа были сделаны соответствующие выводы, предложения и рекомендации относительно понятия института прекращения уголовного дела в уголовном процессе, его специфики и значения в уголовном и уголовно-процессуальном законодательстве.

Ключевые слова: уголовное дело, прекращение уголовного дела, ответственность, реабилитация, освобождение от ответственности, прекращение уголовного дела по нереабилитирующим основаниям, нереабилитирующие основания.

THE CONCEPT OF THE INSTITUTION OF TERMINATION OF A CRIMINAL CASE AND PROCEDURAL SIGNIFICANCE

Makhmudov Sunnat Azim ugli,

Lecturer of the Department of Criminal Procedural Law,
Tashkent State University of Law

Abstract. *In this article, at the stage of implementation of the judicial and legal reform, on the basis of the norms of criminal and criminal procedural legislation, the concept of the institution of termination of a criminal case, its specificity, and procedural significance was formulated. The article explores the scope of this institution on the basis of the views put forward by scientists regarding the institution of termination of a criminal case. Based on the views and ideas put forward by scientists, the concept of termination of a criminal case was analyzed through scientific, theoretical, practical, and legislative norms. At the same time, the article analyzes the role and significance of the termination of a criminal case in the criminal process, its specificity, and some problems that arise in criminal procedure legislation and judicial and investigative practice. The article gives the author's definition of the termination of a criminal case through a comparative analysis of the opinions of scientists on the termination of a criminal case, consideration on the basis of our legislation of the concepts contained in the definitions given by them. Based on the results of the analysis, relevant conclusions, proposals, and recommendations were made regarding the concept of the institution of termination of a criminal case in criminal proceedings, its specificity, and its significance in criminal and criminal procedure legislation.*

Keywords: criminal case, termination of a criminal case, responsibility, rehabilitation, release from liability termination of a criminal case on non-rehabilitating grounds, non-rehabilitating grounds.

Kirish

Sud-huquq islohotlarini amalga oshirish jarayonida jinoyat-protsessual qonunchilikni liberallashtirish hamda takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Mazkur vazifani hayotga tatbiq etish hamda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirishning mutlaqo yangi ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasi qabul qilindi.

Mazkur Konsepsiyada jinoyat va jinoyat protsessidagi ayrim institutlarni takomillashtirish vazifasi belgilangan edi. Jinoyat ishini tugatish instituti ham shular jumlasidandir. Zero, jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikning samarali tizimini yaratish davlatning qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, inson huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini, tinchlik va xavfsizlikni ishonchli himoya qilish bo'yicha ustuvor vazifalaridan biri sanaladi.

Shunga ko'ra, jinoyat protsessida "jinoyat ishini tugatish" institutini tadqiq etish hamda uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, mazkur institutni takomillashtirish-

ning yangicha metodologik asoslarini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Material va metodlar

Jinoyat ishini tugatish masalasi qonunchilikda belgilangan bo'lsa-da, ushbu institut tushunchasi hamda amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar sababli mazkur tadqiqot ishida, asosan, qiyosiy-huquqiy tahlil metodidan foydalanildi. Shu bilan birga, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari

Amaldagi qonunchilik hujjatlarida jinoyat ishini tugatish tushunchasining normativ-huquqiy ta'rif mavjud emas. Shunday bo'lsa ham, bir qancha olimlar ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatini nazariy jihatdan tushuntirishga harakat qilishgan.

Xususan, rus olimi V.M. Kornukovning fikricha, "jinoyat ishini tugatish instituti ham moddiy, ham protsessual xarakterdagi muammolarni hal qilishga mo'ljallangan universal vositadir" [1, 88-89-b.].

Ushbu fikrni tahlil etadigan bo'lsak, avvalo, jinoyat ishini tugatish uchun moddiy huquqda asoslar bo'lishi lozim (amaldagi Jinoyat kodeksida jinoyat ishini tugatish asoslarining aksariyati belgilangan). Moddiy huquqda asoslar bo'lmasdan turib, protsessual normalarga asosan ishni tugatish ma'lum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasi birinchi qismining 8-bandida "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida shaxsning o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi tufayli yoxud belgilangan muddat ichida yetkazilgan moddiy zararining o'zni qoplanganligi va (yoki) jinoyat oqibatlarini bartaraf etilganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilinishi nazarda tutilgan bo'lsa", jinoyat ishining tugatilishi mumkinligi belgilangan.

Biroq mazkur norma Jinoyat kodeksi umumiy qismida javobgarlikdan ozod qilish

asoslaridan biri sifatida nazarda tutilmagan. Bu esa huquqni qo'llash amaliyotida jinoyat ishini mazkur asos bo'yicha tugatishda qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Sababi Jinoyat kodeksi Maxsus qismi normalari Kodeksning Umumiy qismi normalariga asosan shakllantirilgan.

Shu bilan birga, javobgarlikka tortish muddati o'tib ketganligi sababli jinoyat ishini tugatishda ushbu muammolar yaqqol ko'zga tashlanadi.

Javobgarlikka tortish muddati o'tganligi munosabati bilan jinoyat ishini tugatishda ayrim muammoli holatlar ham mavjud. Qonunchilikda davomli jinoyatlar va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlar bo'yicha javobgarlikka tortish muddatlarini hisoblash masalasi aniq belgilab qo'yilmagan [2, 100-b.].

Yana bir muammo: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasi birinchi qismining 1-3 va 8-bandlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha jinoyat ishi tugatiladigan bo'lsa, jabrlanuvchi yoki fuqaroviy da'vogarning mulkiy huquqlari buzilish holatlarini amaliyotda ko'rishimiz mumkin. Fikrimizni quyida asoslashga harakat qilamiz. Misol uchun, shaxsni javobgarlikka tortish muddati o'tgan bo'lsa, agar ayblanuvchi yoki sudlanuvchi (ayrim holatlarda ularning yaqin qarindoshlari) ariza bilan murojaat qilmas ekan, tergov yoki sud tomonidan shaxsning ayblilik masalasi hal qilinmasdan turib, jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror yoki ajrim chiqariladi [3, 113-b.].

O.V. Michurin va S.N. Peretokin [4, 26-b.] jinoyat ishining tugatilishi tergovning yakuniy bosqichi ekanligi, unda ishning natijalari chiqarilishi, tergovchining ichki ishonchi shakllantirilishi va ishning har bir holati protsessual hujjatlarda ifodalanganligi, ish bo'yicha to'plangan dalillar uchun bo'shliq va ziddiyatlar aniqlanishini qayd etishgan.

Mazkur masalani milliy qonunchiligimiz asosida tahlil qiladigan bo'lsak, yuqoridagi olimlarning fikrlariga to'liq qo'shilib bo'lmaydi. Chunki jinoyat ishining tugatilishi barcha

holatlarda surishtiruv, tergov yoki sudning yakuniy bosqichi emas.

Jinoyat ishining tugatilishi surishtiruv, tergov yoki sudning yakuniy bosqichi bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Bunda jinoyat ishini tugatish haqidagi qaror ustidan shikoyat (protest) berilgan yoki berilmaganligiga qarab, uning yakuniy yoki yakuniy bosqich emasligini farqlash mumkin.

Fikrimizni asoslashga harakat qilamiz: agarda jinoyat ishi tugatilganidan so'ng ishini yuritishdan manfaatdor bo'lgan shaxslar tomonidan shikoyat yoki protest keltirilmagan bo'lsa, jinoyat ishining tugatilishini surishtiruv, tergov yoki sudning yakuniy bosqichi sifatida qabul qilish mumkin.

Shu bilan birga, jabrlanuvchi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi bilan yarashgan hamda buning natijasida jinoyat ishi sud tomonidan ayblilik haqidagi masala hal qilinmasdan tugatilgan taqdirda ham jinoyat ishining tugatilishini surishtiruv, tergov yoki sudning yakuniy bosqichi sifatida qabul qilishimiz mumkin.

Sababi jinoyat-protsessual qonunchilikka muvofiq, yarashuv sud tomonidan tasdiqlangan taqdirda, jabrlanuvchi yoki uning qonuniy vakili yarashuv to'g'risidagi ish bo'yicha ish yuritishni qayta tiklash haqida iltimosnomalar berishi mumkin emas.

Biroq jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qaror yoki ajrim ustidan shikoyat berilgan taqdirda, shikoyat tegishli tartibda ko'rib chiqiladi va mazkur jarayon ma'lum ma'noda ish yuritishning davom ettirilishi sifatida ko'rilishi mumkin.

Jinoyat-protsessual kodeksning 27-moddasiga asosan, protsess ishtirokchilari va boshqa shaxslar, shuningdek, jinoyat ishini yuritishdan manfaatdor bo'lgan korxona, muassasa va tashkilotlarning vakillari Jinoyat-protsessual kodeksda belgilab qo'yilgan tartibda va muddatda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning protsessual haraka-

ti yoki qarori ustidan shikoyat berishga haqlidir.

Jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror chiqarilgan taqdirda, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, himoyachi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari, ish korxona, muassasa, tashkilot yoki fuqaroning bergan xabari bilan qo'zg'atilgan bo'lsa, shu korxona, muassasa, tashkilot vakili yoxud fuqaro ushbu qaror ustidan prokurorga shikoyat qilish huquqiga ega hamda ularning mazkur huquqqa ega ekanligi jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qaror chiqarilishi bilan tushuntiriladi.

Manfaatdor shaxslarning jinoyat ishini yuritishni tugatish to'g'risidagi qaror ustidan bergan shikoyati ko'rib chiqilib, qaror bekor qilingan taqdirda, ish yuritish umumiy tartibda davom ettirilishi mumkin.

Shu sababdan ham, bizningcha, jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror chiqarilishini barcha holatlarda ham ish yuritishning yakuniy bosqichi sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq emas.

Rus olimi S.A. Filimonovning fikriga ko'ra, jinoyat ishini tugatish – bu surishtiruvchi, tergovchi yoki sudning (sudyaning) jinoyat ishi yuzasidan qabul qilingan, ish bo'yicha ish yuritishni tugatish yoki shaxsning jinoyat sodir etilishiga aloqador emasligi to'g'risidagi protsessual qaroridir [5, 28-b].

Mazkur ta'rif orqali S.A. Filimonov ish yuritishni tugatishning ikkita alohida turini ko'rsatib bergan. Aniqrog'i, tegishli mansabdor shaxs tomonidan ish yuritilayotgan masala bo'yicha jinoyat ishi butunlay yoki uning bir qismi tugatilishi yoxud muayyan jinoyat ishi bir necha shaxslarga nisbatan yuritilayotgan bo'lsa, uni yuritish ayni bir shaxsga nisbatan tugatilishi mumkin.

Shuningdek, shaxsning jinoyat sodir etilishiga aloqador emaslik holati jinoyat ishini tugatishning barcha asoslariga to'g'ri kelmaydi. Chunki jinoyat ishini tugatishning aksariyat asoslarida (realibitatsiya asoslaridan tashqari) shaxs jinoyat sodir etilishida bevo-

sita ishtirok etishi orqali uning sodir etilishiga aloqador bo'ladi.

A.S. Barabash, L.M. Volodina hamda S.A. Sheyferlarning bayon etishicha, jinoyat ishini tugatish ko'p qirrali hodisa bo'lib, jinoyat-protsessual huquqi nazariyasida protsessual harakat shakllaridan biri sifatida ko'rilishi lozim.

Ushbu olimlarning fikricha, jinoyat ishini tugatish dastlabki tergovni tugatishni nazarda tutadigan yuridik fakt bo'lib, shaxslarning asossiz ravishda jinoiy javobgarlikka tortilishining protsessual kafolati hisoblanuvchi mustaqil yuridik institutdir [6, 4-5-b.].

Bizningcha, mazkur ta'rifda jinoyat ishini yuritishning dastlabki tergovni tugatish sifatida ta'riflanishi ko'rib chiqilayotgan tushuncha mazmunining tor doirada sharhlanishi hisoblanadi.

Sababi jinoyat ishini tugatish instituti na faqat dastlabki tergov, balki jinoyat ishini yuritishning barcha bosqichlarida qo'llanilishi mumkin. Bunda yagona istisno sifatida hukmni ijro etish bosqichini ko'rsatishimiz mumkin. Zero, mazkur bosqichda jinoyat ishini yuritishni tugatishga oid normalarni qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

A.Ya. Dubinskiy ham yuqorida sanab o'tilgan ayrim olimlar kabi, jinoyat ishini tugatish institutini dastlabki tergovning oxirgi bosqichi sifatida ta'riflaydi. Uning qayd etishicha, mazkur bosqichda jinoyat ishi bo'yicha olib borilgan protsessual harakatlarning natijalari sarhisob qilinadi hamda ish yuritishni tugatish bilan bog'liq bir qator yangi protsessual harakatlar amalga oshiriladi [7, 25-b.].

N.V. Jugin va F.N. Fatkullinlar jinoyat ishini tugatish institutini vakolatli mansabdor shaxsning ish yuritishni davom ettirishni rad etish to'g'risidagi qarorini ifodalovchi protsessual harakat sifatida ta'riflaydi [8, 30-b.].

Mazkur fikrni qisman qo'llab-quvvatlash mumkin. Sababi ushbu institut mazmunini tashkil etuvchi huquq normalari jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror qabul qilishning

protsessual tartibi hamda unga qo'yiladigan talablarni tartibga soladi.

S.A. Sheyfer esa jinoyat ishining tugatilishini shaxsning noqonuniy yoki asossiz ta'qib qilinishining oldini olishga qaratilgan protsessual kafolat, shuningdek, odil sudlovning umumiy protsessual kafolati deb ta'riflaydi. Uning fikricha, jinoyat ishini tugatish instituti aybsiz shaxslarni javobgarlikka tortishdan bosh tortish yoki ularni jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning protsessual tartibini tartibga soladi [9, 4-b.].

Bizningcha, S.A. Shaferning yuqoridagicha ta'rifi biz tahlil qilayotgan tushunchaga nisbatan shaxsning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish kafolati sifatida yondashuvni nazarda tutsa-da, ushbu tushunchaning mazmunini to'liq ochib bermaydi. Zero, jinoyat protsessida bu kabi kafolatlarni ko'plab uchratishimiz mumkin.

O.V. Volinskaya jinoyat ishi tugatilishini muayyan bir hayotiy masalani jinoyat-protsessual vositalar yordamida o'rganishni yakunlash hamda ish yuritishning texnik shartlarini bajarishdan iborat bo'lgan jinoyat ishini tamomlash shakllaridan biri sifatida belgilaydi [10, 57-b.].

Fikrimizcha, mazkur ta'rifda ko'rsatilganidek, jinoyat ishini tugatish institutining jinoyat-protsessual ish yuritishni tamomlash shakllaridan biri sifatida ta'riflanishi o'rinni hisoblanadi. Zero, milliy qonunchiligimizda jinoyat ishini tamomlash bir qator usullar orqali amalga oshirilib, jinoyat ishini tugatish ana shunday usullardan biridir.

G.V. Drozdov, V.I. Kachalov, O.V. Kachalovalarning fikricha, jinoyat ishini tugatish – bu dastlabki tergovni tugatishning bir shakli bo'lib, tergovchi keyinchalik sudga yubormasdan o'z qarori bilan jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishni yakunlaydi [11, 35-b.].

Ushbu ta'rifda ham, yuqorida keltirilganidek, jinoyat ishini yuritish tushunchasi tor doirada qabul qilinib, faqatgina dastlabki tergovni tugatish sifatida keltirilgan. Bundan tashqari, mazkur ta'rifda tergovchi ish

yuritishni nimaga asoslanib yakunlayotgani va nima uchun ishni sudga yubormasligi sabablari aniq asoslantirilmagan.

B.T. Bezlepkina ham yuqorida ayrim olimlarning ta'riflarida keltirib o'tilgani kabi, jinoyat ishini tugatishni kelgusida ish yuritishni istisno etuvchi holatlar yoki shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun asoslar mavjudligi sababli amalga oshiriladigan dastlabki tergovning tugashi, deb hisoblaydi [12, 140-b.].

A.V. Grinenko esa ko'rib chiqilayotgan tushunchaga kengroq ta'rif beradi. Uning fikricha, jinoyat ishini tugatish "davlatning jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishni davom ettirish va shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishni rasman rad etishi", shuningdek, mavjud barcha huquqiy munosabatlar (oqibatlar)ni tugatishdir [13, 63-71-b.].

Bizningcha, mazkur ta'rifda keltirilgan "mavjud barcha huquqiy munosabatlar (oqibatlar)ni tugatish" to'g'risidagi fikrni to'liq qo'llab-quvvatlab bo'lmaydi. Sababi jinoyat ishining tugatilishi natijasida yuzaga kelgan muayyan huquqiy oqibatlar saqlanib qoladi. Masalan, shaxsga nisbatan yuritilgan jinoyat ishining tugatilishi natijasida sudlanganlik holati kelib chiqmasa-da, mazkur holat kelgusida ushbu shaxs tomonidan sodir etilgan yangi jinoyat bo'yicha muayyan qaror qabul qilishda uning shaxsini tavsiflovchi xususiyatlardan biri sifatida inobatga olinishi mumkin.

Bir qator mualliflar jinoyat ishini tugatish tushunchasiga ta'rif berishda jinoyat ishini tugatish belgilari hamda ish yuritish jarayonida hal qilinadigan vazifalarga ko'proq e'tibor qaratadilar.

R.X. Yakupov o'z mualliflik ta'rifida jinoyat ishini tugatish uchun bir qator "protsessual harakatlar majmuyini amalga oshirish zarur"ligini qayd etadi [14, 322-b.].

Fikrimizcha, mazkur ta'rif o'ta umumiy bo'lib, jinoyat ishini tugatish tushunchasining mazmunini to'liq ochib bermaydi va uning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalamaydi.

Yu.N. Belozorovning bayon etishicha, jinoyat ishini tugatish davomida ish bo'yicha olib borilgan harakatlarning natijasi umumlashtiriladi hamda to'plangan va tekshirilgan dalillarning umumiylikini baholash asosida ish bo'yicha keyingi ish yuritishning mumkin emasligi haqida xulosa chiqariladi.

Bizningcha, mazkur ta'rif ham o'zida ma'lum darajada umumiy xususiyatlarni aks ettirgan. Zero, jinoyat ishini yuritish davomida deyarli barcha qarorlarni qabul qilishda, yuqoridagi ta'rifda keltirilganidek, "olib borilgan harakatlarning natijasi umumlashtiriladi hamda to'plangan va tekshirilgan dalillarning umumiylikini baholash asosida" tegishli qaror qabul qilinadi [15, 45-b.].

Mahalliy olimlarimizdan B.B. Murodov esa "jinoyat ishini tugatish" tushunchasiga nisbatan kengroq ta'rif beradi. Uning bayon etishicha, jinoyat ishini tugatish – bu vakolatli mansabdor shaxsning ish bo'yicha to'plangan dalillarni baholash orqali qonunda nazarda tutilgan muayyan asosni qo'llash uchun barcha asoslar o'z isbotini topganiga ishonch hosil qilib, jinoyat ishi yurituvini tugatish xususida qat'iy xulosaga kelishi va ishni protsessual qaror yoki ajrim chiqarish orqali tamomlashidir [16, 78-b.].

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqorida keltirib o'tilgan tahlillardan kelib chiqqan holda, jinoyat ishini tugatish institutining quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

birinchidan, mazkur institut jinoyat va jinoyat-protsessual normalarning yig'indisidan iborat bo'lib, jinoyat ishini tugatishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirishning asoslari va protsessual tartibi, shuningdek, jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari hamda ularni ta'minlashning protsessual kafolatlarini o'z ichiga oladi;

ikkinchidan, ko'rib chiqilayotgan faoliyat tegishli protsessual harakatning amalga oshirilishi (qaror yoki ajrim chiqarilishi) bilan o'z nihoyasiga yetadi;

uchinchidan, ish bo'yicha gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) uchun jinoiy javobgarlik to'g'risidagi masala hal etiladi;

to'rtinchidan, ushbu institut jinoyat protsessining deyarli barcha bosqichlariga taalluqli hisoblanadi (*hukmni ijro etish bundan mustasno*).

Jinoyat ishini tugatish bilan bog'liq ilmiy munozaralarda uning alohida institut hisoblanishi yoki hisoblanmasligi haqida bahslar bor. Mavzuga oid tadqiqotlar tahlili aksariyat olimlarning jinoyat ishini tugatishni alohida institut sifatida qabul qilishlarini ko'rsatadi. Mazkur qarashni qo'llab-quvvatlagan holda, jinoyat ishini tugatishning alohida institut sifatida belgilarga egaligini "institut" tushunchasini tahlil qilish orqali ko'rib chiqamiz.

Umuman olganda, huquq nazariyasida "institut" tushunchasi bir huquq sohasi doirasidagi yoki sohalar o'rtasida kesishadigan, muayyan o'xshash sifatlarga ega bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi alohida huquqiy normalar guruhini bildiradi. Shu bilan birga, huquq instituti normalari umumiy mazmunga ega bo'lishi, bir xil ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi, bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lishi hamda bir-birini to'ldirishi kerak.

Bundan tashqari, bir umumiy asosdan kelib chiquvchi ijtimoiy munosabatlarning turlicha ekanligi ularni tartibga soluvchi xilma-xil huquqiy normalarni ham nazarda tutadi.

Huquq institutining mazmuni alohida normativ-huquqiy hujjat yoki uning muayyan bir bo'limida mustahkamlangan tushunchalar, atamalar hamda boshqa normalarda o'z aksini topadi.

N.I. Matuzov, A.V. Malko hamda V.L. Kulapovlarning bayon etishicha, kamdan-kam hollarda muayyan huquq institutiga taalluqli bo'lgan normalar bir nechta normativ-huquqiy hujjatlarda aks etishi mumkin [17, 244-245-b].

Bizningcha, mazkur qarash noo'rin bo'lib, muayyan huquq institutiga oid normalarning aniq bir normativ-huquqiy hujjat yoki

uning muayyan bir qismida mustahkamlab qo'yilishi, avvalo, turli davlatlar milliy qonunchiligining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi va shunga ko'ra, turlicha ifodalanishi mumkin.

Biroq bu bilan muayyan huquq instituti, shu jumladan, jinoyat ishini tugatish institutiga oid normalar turli normativ-huquqiy hujjatlar yoki uning turli qismlarida aks etishi lozim, degan qarashdan yiroqmiz. Zero, jinoyat ishini yuritishga oid normalarning aniq bir bo'limda mustahkamlanishi mazkur institutning qo'llanilishini yanada osonlashtiradi va amaliyotchilar uchun ham, huquq fanlarini o'rganuvchilar uchun ham muayyan qulayliklar yaratishga xizmat qiladi.

Jinoyat ishini tugatishning jinoiy ta'qibni to'xtatish tushunchasi bilan bog'liqligi masalasida ham ayrim mulohazalarning guvohi bo'lishimiz mumkin.

Jinoyat-protsessual huquqi nazariyasida jinoyat ishini tugatish hamda jinoiy ta'qibni to'xtatish bir-biriga juda o'xshash, shu bilan birga, o'zaro farqli xususiyatlarga ega bo'lgan tushunchalar hisoblanadi. Mazkur ikkala tushuncha bir-biri bilan muayyan darajada bog'liq va ba'zida ulardan birining mavjud bo'lishi ikkinchisiga ta'sir qiladi.

Asosiy jihati shundaki, jinoyat ishini tugatish bilan barcha protsessual harakatlar to'liq hajmda yakunlanadi. Jinoiy ta'qibni tugatishda esa muayyan bir shaxs, ya'ni jinoyat qonuni bilan taqiqlangan biror-bir qilmishni sodir etishda gumon qilinayotgan (ayblanayotgan) shaxs yoxud jinoyat ekanligi o'rganilayotgan muayyan bir (yoki bir nechta) holatga nisbatan jinoiy ta'qib tugatiladi.

Fikrimizcha, o'rganilayotgan ikki tushuncha o'rtasidagi o'zaro farq muhim ahamiyat kasb etmaydi. Qisqacha qilib aytganda, jinoyat ishining tugatilishi bilan muayyan shaxsga nisbatan yoki muayyan holat yuzasidan jinoiy ta'qibning amalga oshirilishi ham to'xtatiladi [1, 88-89-b.]. Bunda jinoyat ishini tugatish jinoiy ta'qibni to'xtatish uchun

“asos” sifatida ko‘rilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shu o‘rinda jinoyat ishini yuritishni tugatish institutining ijtimoiy xususiyatlariga ham alohida to‘xtalib o‘tish joiz. Jinoyat ishini tugatish institutining ijtimoiy xususiyatlarini tadqiq etishda jinoiy hodisaning yuz berishi masalasiga “ijtimoiy nizo” sifatida qaralishi o‘rinli bo‘ladi.

Jinoyat-protsessual huquqi nazariyasining umumiy qoidalariga ko‘ra, sodir etilgan jinoyat yuzasidan ijtimoiy nizolarni hal qilishning bir nechta muqobil variantlari mavjud:

1) jinoiy ta‘qibdan maxsus shartlarsiz, mustaqil ravishda voz kechish;

2) ogohlantirish;

3) vositachilik (yarashuv).

Yuqorida sanab o‘tilganlardan birinchi holat quyidagilarda aks etishi mumkin:

birinchidan, jinoiy javobgarlikka tortishning huquqiy jihatdan imkonsiz ekanligi (masalan, jinoyat tarkibi yo‘qligi yoki javobgarlikka tortish muddati o‘tib ketganligi);

ikkinchidan, jinoiy javobgarlikka tortishning faktik jihatdan imkonsizligi (masalan, dalillarni to‘plashning mumkin bo‘lgan barcha usullaridan foydalanilganligiga qaramasdan, ayblash uchun dalillar yetarli emasligi);

uchinchidan, jinoyat fosh etilgan bo‘lsa-da, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishning maqsadga muvofiq emasligi. Qayd etish lozimki, mazkur holat jinoyat ishini tugatishning ogohlantirish usuli bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

Jinoyat ishini yuritishni tugatishning ogohlantirish chorasi sifatidagi xususiyatiga, ayniqsa, ingliz huquq tizimida alohida e‘tibor qaratiladi [18, 108-b.]. Bunda ogohlantirishning bir nechta turlarini ko‘rishimiz mumkin.

Ulardan birinchisi – “norasmiy ogohlantirish” bo‘lib, u voyaga yetmaganlar tomonidan ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat sodir etilgan taqdirda qo‘llanilishi mumkin. Bunday holda qo‘shimcha choralar ko‘rilmaydi.

Norasmiy ogohlantirishdan farqli ravishda “rasmiy ogohlantirish” bayonnomada qayd etiladi. Ammo u norasmiy ogohlantirishdan unchalik farq qilmaydi. Chunki bunday bayonnoma rasmiy jihatdan hech qanday huquqiy oqibatlarga olib kelmaydi.

Uchinchi variant “maxsus ogohlantirish” bo‘lib, bu norasmiy va rasmiy ogohlantirishdan farqli o‘laroq, jinoiy ta‘qibga haqiqiy alternativa sanaladi.

Rasmiy ogohlantirishning mohiyati shundaki, bunda shaxsga nisbatan muayyan ta‘sir choralari qo‘llanilib, bu holat kelgusida ushbu shaxs tomonidan qayta jinoyat sodir etilgan taqdirda inobatga olinishi mumkin [19, 108-b.].

Jinoyat ishini yuritishni tugatishning ijtimoiy xususiyatlaridan yana biri – bu yarashuv institutining qo‘llanilishidir. Bunda yuqoridagilardan farqli o‘laroq, jinoyat ishi taraflarining xohish-irodasi yuqori ahamiyatga ega bo‘ladi.

Aniqrog‘i, jinoyat ishini yuritish taraflarining – jabrlanuvchi hamda gumon qilinuvchi (ayblanuvchi, sudlanuvchi)ning o‘zaro keli-shuvi va roziligi natijasida tugatiladi.

Xulosalar

Yuqorida keltirib o‘tilgan tahlillar asosida “jinoyat ishini tugatish” tushunchasiga nisbatan quyidagicha ta‘rif berish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

“Jinoyat ishini tugatish – bu vakolatli organlar yoki mansabdor shaxslar tomonidan jinoyat ishini qo‘zg‘atish yoki qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi bo‘yicha ish yuritishni istisno etadigan asoslarga ko‘ra ish yuritishni tamomlashdir”.

Mazkur ta‘rifda keltirilgan “vakolatli organlar yoki mansabdor shaxslar” deganda, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tushuniladi.

Shuningdek, jinoyat ishini tugatishning quyidagicha o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

– jinoyat ishini tugatish jinoyat-protsessual qonunchilikda maxsus vakolat berilgan

organlar va mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladi;

- jinoyat ishini tugatish jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan maqsadlarga erishishning vositalaridan biri bo'lib xizmat qiladi;

- jinoyat ishini tugatish faqatgina qonunda belgilangan asoslar mavjud bo'lgandagina amalga oshirilishi mumkin;

- jinoyat ishini tugatish natijasida protsess ishtirokchilari uchun jinoyat ishini yuri-

tish munosabati bilan yuzaga kelgan huquqiy munosabatlarning tugatilishi bilan bog'liq huquqiy oqibatlar kelib chiqadi;

- jinoyat ishini tugatish jinoyat protsessining hukm chiqarilguniga qadar bo'lgan istalgan bosqichida, shuningdek, yuqori sudlar tomonidan quyi turuvchi sudlarning hukmlarini qayta ko'rib chiqish jarayonida ham amalga oshirilishi mumkin;

- jinoyat ishini yuritish jinoyat protsessining alohida instituti hisoblanadi.

REFERENCES

1. Kornukov V.M. Rossiyskiy ugolovnyy protsess. Voprosy Osobennoy chasti [Russian criminal process. Issues of the Special Part: a course of lectures]. Saratov, 2010, pp. 88–89.
2. Mahmudov S. Javobgarlikka tortish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat ishini tugatishning o'ziga xos xususiyatlari [Some issues of dismissal of criminal cases in connection with the expiration of the limitation period for criminal responsibility]. *Lawyer Herald*, 2022, Tashkent, no. 1, pp. 96–102.
3. Mahmudov S. Ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib, jinoyat ishini tugatishning ayrim jihatlari [Some aspects of the termination of a criminal case without solving culpability issue]. *Lawyer Herald*, 2020, Tashkent, no. 1, pp. 110–115.
4. Michurina O.V., Peretokin S.N. Obespecheniye zakonnosti i obosnovannosti prekrashheniya ugolovnogo dela [Ensuring the legality and validity of the termination of a criminal case]. *Russian investigator*, 2016, no. 7, p. 26.
5. Filimonov S.A. Prekrashheniye ugolovnogo dela i ugolovnogo presledovaniya po nereabilitiruyushhim osnovaniyam [Termination of a criminal case and criminal prosecution on non-rehabilitating grounds]. Abstract of PhD thesis. Krasnodar, 2009, p. 28.
6. Barabash A.S., Volodina L.M. Prekrashheniye ugolovnykh del po nereabilitiruyushhim osnovaniyam v stadii predvaritel'nogo rassledovaniya [Termination of criminal cases on non-rehabilitating grounds at the stage of preliminary investigation]. Tomsk, 1986, p. 37.
7. Dubinskiy A.Ya. Prekrashheniye ugolovnogo dela v stadii predvaritel'nogo rassledovaniya [Termination of a criminal case at the stage of preliminary investigation]. Kiev, 1975, p. 25.
8. Jogin N., Fatkullin F. Predvaritel'noye sledstviye v sovetskom ugolovnom protsesse [Preliminary investigation in the Soviet criminal process]. Moscow, 1965, p. 30.
9. Sheyfer S.A. Prekrashheniye dela v sovetskom ugolovnom protsesse [Termination of the case in the Soviet criminal process]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 1963, p. 4.
10. Volinskaya O.V. Prekrashheniye ugolovnogo dela i ugolovnogo presledovaniya: teoreticheskiye i organizatsionno-pravovyye problemy [Termination of a criminal case and criminal prosecution: Theoretical organizational and legal problems]. Moscow, 2007, p. 57.
11. Davidova Y.V., Kibalnik A.G., Solomonenko I.G. Primireniye s poterpevshim v ugolovnom prave [Reconciliation with the victim in criminal law]. Stavropol, 2002, p. 35.
12. Bezlepkin B.T. Ugolovnyy protsess Rossii [Criminal process in Russia]. Moscow, 2008, p. 140.
13. Grinenko A.V. Ugolovnyy protsess [Criminal process]. Moscow, 2008, pp. 63–71.
14. Yakupov R.Kh. Ugolovnyy protsess [Criminal process]. Moscow, 1998, p. 322.

15. Kussmal R. Vsyakoye prekrashheniye ugovnogo presledovaniya reabilitiruyet [Any cessation of criminal prosecution rehabilitates]. *Russian justice*, 2000, no. 9, pp. 45–47.
16. Murodov B.B. Jinoyat ishini tugatish institutini takomillashtirish. [Improving the institution of termination of criminal proceedings]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2018, p. 78.
17. Kulapov V.L. Teoriya gosudarstva i prava [Theory of state and law]. Moscow, 2014, pp. 244–245.
18. Gutsenko K.F., Golovko L.V., Filimonov B.A. Ugolovnyy protsess zapadnykh gosudarstv [The criminal process of Western states]. Moscow, 2001, p. 108.
19. Golovko L. Alternativy ugovnomu presledovaniyu v sovremennom angliyskom prave [Alternatives to criminal prosecution in modern English law]. *Jurisprudence*, 1998, no. 3, pp. 108–113.

UDC: 325(045)(575.1)

XALQARO MIGRATSIYA HUQUQI SHAKLLANISHINING NAZARIY-KONSEPTUAL JIHATLARI

Rasulov Jurabek Abdusamiyevich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrası dotsenti v. b.,

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori,

ORCID: 0000-0002-9235-5006

e-mail: rasulovjurabek1982@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqaro ommaviy huquqning kichik tarmog'i sifatida xalqaro migratsiya huquqining shakllanishi va rivojlanishi, migratsiya jarayonlarini xalqaro huquqiy tartibga solish masalalari yuzasidan mumtoz va zamonaviy xalqaro huquqiy qarashlarning nazariy-konseptual jihatlari, ushbu huquq tarmog'i doirasida amalga oshiriladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish predmetining o'ziga xos xususiyatlari ilmiy o'rganishning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tarixiylik kabi usullari orqali ochib berilgan. Shuningdek, chegaralararo odamlarning erkin harakatlanish huquqini amalga oshirishda davlatning hududiy suvereniteti, huquqiy ustuvorligi masalasining o'rni va ahamiyati, davlatlarning migratsiyani milliy darajada tartibga solish bo'yicha vakolatlari borasida ichki huquq va xalqaro huquqiy normalarning o'zaro hamohangligi va mutanosibligi, migratsiyaga oid huquqiy munosabatlarning subyekti sifatida migrantning huquqiy maqomi tahlil qilingan. Migratsiya munosabatlarini xalqaro huquqiy darajada tartibga solish masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlarning jadallik bilan rivojlanayotganiga qaramasdan, hozirda xalqaro migratsiya huquqi alohida soha sifatida ishlab chiqish jarayonida ekanligi, shu bilan birga, davlatlar o'rtasida migratsiya jarayonlarini tartibga solish masalasi xalqaro huquqning dastlabki o'rganish masalalaridan biri bo'lganligi, shuningdek, migratsiya munosabatlarini tartibga soluvchi xalqaro huquqiy normalarning tarmoqlararo xususiyatga egaligi yuzasidan ilmiy xulosalar qilingan.

Kalit so'zlar: migratsiya, xalqaro migratsiya huquqi, xalqaro huquq, hududiy suverenitet, migrant, doktrina.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ СТАНОВЛЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО МИГРАЦИОННОГО ПРАВА

Расулов Журабек Абдусамиевич,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),

и. о. доцента кафедры «Международное право и права человека»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы становления и развития международного миграционного права как подотрасли международного публичного права. Изучены теоретико-концептуальные аспекты классических и современных взглядов на международно-правовое регулирование миграционных процессов, особенности предмета регулирования общественных отношений в рамках данной правовой подотрасли. Проанализированы роль и значение территориального суверенитета, верховенства права в реализации права на свободу передвижения через границы, вопросы гармонизации и соотношения национального и международного права касательно полномочий государств по

регулированию миграции на национальном уровне, правовой статус мигранта как субъекта правоотношений, связанных с миграцией. Автором сделаны следующие основные выводы: несмотря на бурное развитие научных исследований по регулированию миграционных отношений на международно-правовом уровне, международное миграционное право в настоящее время находится в процессе становления в качестве самостоятельной подотрасли международного публичного права. В то же время вопрос регулирования миграционных процессов между государствами является одним из актуальных направлений международного права и носит межотраслевой характер.

Ключевые слова: миграция, международное миграционное право, международное право, территориальный суверенитет, мигрант, доктрина.

THEORETICAL AND CONCEPTUAL ASPECTS OF FORMATION OF INTERNATIONAL MIGRATION LAW

Rasulov Jurabek Abdusamievich,

Acting Associate Professor of the
Department of International Law and Human Rights,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. This article discusses the formation and development of international migration law as a sub-branch of public international law. Theoretical and conceptual aspects of classical and modern international legal views on the international legal regulation of migration processes and features of the subject of regulation of public relations within the framework of this legal sub-sector are studied. Also, the roles and meanings of the issue of territorial sovereignty, the rule of law in the implementation of the right to freedom of movement across borders, issues of harmonization and correlation of national and international law regarding the powers of states to regulate migration at the national level, the legal status of a migrant as a subject of legal relations related to migration are analyzed. The author made the following main conclusions: despite the rapid development of scientific research on the regulation of migration relations at the international legal level, international migration law is currently in the process of becoming an independent sub-branch of public international law. At the same time, the issue of regulating migration processes between states is one of the first issues of study in international law and is of an interdisciplinary nature.

Keywords: migration, international migration law, international law, territorial sovereignty, migrant, doctrine.

Kirish

Xalqaro huquq sohalari xalqaro aloqalarining muayyan jabhasidagi huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi obyektiv kategoriyalar sifatida mavjud. Ijtimoiy munosabatlarning rivojlani sh dinamikasi xalqaro huquq tizimining rivojlanishi, xususan, xalqaro huquqning yangi tarmoqlari, kichik tarmoqlari va institutlari shakllanishiga yordam beradi. Xalqaro miqyosda tashqi migratsiya jarayonlarini tartibga soluvchi migratsiya huquqining

o'rganish predmeti aholining tashqi migratsiya sohasiga ta'sir etuvchi ommaviy-huquqiy munosabatlar hamda uni inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilish sohasiga oid xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida huquqiy tartibga solish hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, migratsiya huquqi institutlarini nafaqat muayyan vaziyatda migratsiya munosabatlari ishtirokchilarining xulq-atvorini belgilovchi omil, balki xalqaro migratsiya munosabatlari sohasida yuzaga keladigan nizolarni hal qilishning xalqaro tar-

tibi (mexanizmi) sifatida ham ko'rib chiqish mumkin. Agar ushbu institutlarni aynan shu nuqtayi nazardan ko'rib chiqsak, ularni inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq sohasi bilan eng ko'p darajada bog'liqligi yanada ko'proq va aniqroq namoyon bo'ladi.

Aholining tashqi migratsiyasini xalqaro huquqiy tartibga soluvchi normalar, tamoyillar, manbalar, shuningdek, mexanizmlarni tizimli tahlil qilish zamonaviy xalqaro huquqning yangi kichik tarmog'i – xalqaro migratsiya huquqining shakllanayotganligi to'g'risida xulosa qilish imkonini beradi. Zamonaviy sharoitlarda biz faqat tarmoqlararo institutsional xususiyatga ega yangi huquqiy tuzilmaning shakllanayotganligi haqida so'z yuritishimiz mumkin. Bu ko'p jihatdan ham migratsiya munosabatlarining tabiati, ham subyektiv omilga, ya'ni xalqaro huquqning ushbu sohasida maxsus mavzuli-metodologik tadqiqotlarning yo'qligi bilan bog'liq.

Material va metodlar

Rossiyalik olim Y.Kiseleva migratsiyani xalqaro huquqiy tartibga solishning zamonaviy xalqaro huquq tizimidagi o'rni masalasida turlicha: xalqaro migratsiya huquqini huquqning mustaqil tarmog'i sifatida mavjudligini tan olishdan tortib migratsiyani xalqaro huquqiy tartibga solishni kompleks huquqiy birikma sifatida e'tirof etishgacha bo'lgan qarashlar mavjudligini [1, 72-b.] qayd etadi.

Agar ichki huquqda tarmoqlar huquqiy tartibga solishning predmeti va usuli (metodi)ning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra ajratilgan bo'lsa, usul (metod) doimo muvofiqlashtiruvchi xususiyatga ega bo'lgan xalqaro huquqda esa tarmoqlarni ajratish qiyinroq kechadi. U yoki bu munosabatlarga oid normalar to'plamini tarmoqqa ajratish uchun *alohida huquqiy munosabatlar majmuyining* (huquqiy tartibga solish predmeti) *mavjudligi*, huquqiy tartibga solish maxsus tamoyillarini ajratishni nazarda tutuvchi *manbalarining sifat jihatdan o'ziga xosligi*

va ehtimol, kodifikatsiyalovchi hujjatning mavjudligi, shuningdek, *bunday ajratishning zarurligiga davlatlarning subyektiv ishonchi* talab qilinadi.

Ko'rinib turibdiki, u yoki bu sohani alohida huquq tarmog'iga ajratish o'z-o'zidan maqsad emas, balki amaliy ahamiyatga ega: tarmoq normalari muayyan aniq holatda umumiy me'yorlardan ustuvor mavqega ega bo'lishi kerak bo'lgan maxsus normalarga aylanishi mumkin.

Tadqiqot natijalari

Migratsiyani xalqaro huquqiy tartibga solishning predmetini eng umumiy shaklda davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyekt-lari o'rtasidagi xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan, odamlarning davlat chegaralarini kesib o'tishlari bilan bog'liq (shu jumladan, ba'zi hollarda davlat ichidagi harakatlar), masalan, erkin harakatlanish huquqini mustahkamlash, shaxslarning davlatlar hududiga kirish shartlarini belgilash va amalga oshirish, o'zi fuqarosi bo'lmagan davlat hududida shaxslarning huquqiy maqomi yuzasidan, mamlakatda qonuniy bo'lish huquqini yo'qotgan shaxslarni chiqarib yuborishga oid bo'lgan munosabatlar tashkil qiladi.

"Xalqaro migratsiya huquqi" atamasi nisbatan yangi bo'lsa-da, ammo uning mazmuni xalqaro huquqning o'zi kabi eskidir. Odamlarning chegaradan o'tishi o'z mohiyatiga ko'ra xalqaro xususiyatga ega va har doim xalqaro huquq masalasi bo'lib kelgan. Xalqaro huquq fanining asoschilari va mumtoz namoyandalari hisoblangan Fransisko de Vitorioning muloqot qilish huquqi (*ius communicationis*), xalqlar huquqi (*ius gentium*) [2, 331–341 b.], Gugo Grotsiyning tinch o'tish huquqi, erkin harakatlanish huquqi [3, 34–36 b.], Samuel Pufendorf va Kristian Vulflarning davlat suvereniteti ustuvorligiga [4] asoslangan konsepsiyalari, Emerix de Vattelning "emigratsiya erkinligi" g'oyasi [5, 176–178-b.] (ushbu g'oya zamirida har bir shaxsning o'z mamlakatini tark etishi va unga qaytib kela olish huquqiga ega

ekanligi yotadi – muallif izohi) xalqaro migratsiya huquqining mohiyatini tashkil qiluvchi qoidalarining shakllanishida tamal toshini qoʻygan.

Migratsiyani xalqaro huquqiy nuqtayi nazardan koʻrib chiqish davlatlarning oʻzaro manfaatlari hamda alohida shaxslarning huquqlariga asoslangan global yondashuvning mohiyatini ochib beradi. Xalqaro huquq, avvalambor, davlatlar tomonidan yaratiladi hamda hamkorlik, suverenitet va huquq ustuvorligiga asoslanib qurilgan xalqaro huquq tizimiga tayanadi. Qayd etish kerakki, xalqaro migratsiya huquqi globallashgan dunyoning yangi utopiyasi ham, suveren davlatning urfdan qolgan muhofaza obyekti ham emas. Xalqaro migratsiya huquqi davlatlar uchun majburiy yuridik kuchga ega boʻlgan amaldagi qoida va tamoyillarga asoslanadi. Shunday qilib, u zamonaviy xalqaro huquq tizimining imkoniyatlari va kamchiliklarini oʻzida aks ettiradi.

Migratsiya sohasida xalqaro huquqning roli murakkab boʻlib, u koʻpincha notoʻgʻri tushuniladi. Bu murakkablik migratsiyaning ichki va xalqaro muammolarga taʼsir qiluvchi masala sifatidagi ikki tomonlamalik tabiatiga xosdir.

Bir tomondan, migratsiya toʻgʻrisidagi har qanday muhokama muqarrar ravishda hududiy suverenitetning markaziy roli hamda davlatlarning oʻz chegaralari orqali odamlarning harakatini nazorat qilish va tartibga solish huquqini tan olishdan boshlanadi.

Biror-bir fundamental ahamiyatga ega tushuncha hududiy suverenitet konsepsiyasi singari ziddiyatli boʻlmagan boʻlsa-da, uning anʼanaviy vazifasi, xalqaro huquqshunos M. Shouning taʼbiri bilan aytganda, “boshqa hududlarda yurisdiksiyani amalga oshiradigan boshqa xalqlardan farqli ravishda maʼlum bir hudud doirasida davlat orqali oʻz yurisdiksiyasini amalga oshirishi mumkin boʻlgan maʼlum bir xalq va maʼlum bir hudud oʻrtasidagi aloqani belgilashdan iborat edi”

[6, 490-491 b.]. Bu Vestfal tartiboti natijasida shakllangan birliklar sifatida milliy davlatlar asosida qurilgan klassik xalqaro huquqning asosiy aksiomasini aks ettiradi.

Boshqa tomondan, odamlarning davlatlar chegarasini kesib oʻtishi, oʻz mohiyatiga koʻra, xalqaro xarakterga ega: u migrant, kelib chiquvchi davlat va qabul qiluvchi davlat oʻrtasidagi uchburchak munosabatlarni oʻz ichiga oladi. Shunday qilib, migratsiya umumiy manfaatli masala boʻlib, uni faqat bir tomonlama hal qilib boʻlmaydi.

Xususan, 2016-yil BMT tomonidan qabul qilingan “Qochoqlar va migrantlar toʻgʻrisida”gi Nyu-York deklaratsiyasida eʼtirof etilganidek, odamlarning chegaralar orqali harakatlanishi “global yondashuvlar va global yechimlarni talab qiladigan global hodisadir. Hech bir davlat bunday harakatlarni yakka oʻzi boshqara olmaydi” [7].

2018-yil 19-dekabrda BMT tomonidan qabul qilingan “Xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiya toʻgʻrisida”gi global shartnoma (Migratsiya toʻgʻrisidagi Marakkesh shartnomasi deb ham ataladi)da qayd etilganidek, “xalqaro migratsiyaning muammolari va imkoniyatlari bizni ajratish emas, balki birlashtirishi lozim”. Migratsiya barcha davlatlarning umumiy masʼuliyati hisoblanishi sababli “kelib chiquvchi, tranzit va qabul qiluvchi mamlakatlardagi shaxslar va jamoalar uchun xavf va muammolarni bir vaqtning oʻzida bartaraf etishda migratsiyaning umumiy afzalliklarini maqbullashtirish uchun kompleks yondashuv zarur” [8].

Ushbu nuqtayi nazardan qaraganda, bugungi kunda hududiy suverenitetning mutlaq emas, balki nisbiy xususiyatga ega ekanligi borasidagi fikrlar ommalashib bormoqda. Hududiy suverenitet birgalikda mavjud boʻlish qonuniyatidan oʻzaro bogʻliqlik qonuniyatiga aylangan xalqaro huquqiy tartibotning nisbatan kengroq transformatsiyasini oʻzida aks ettiradi. Xalqaro huquqning tizimli tadriji natijasida hududiy suverenitet ham kompetensiya (huquqiy layoqatlilik, qobili-

yat, vakolat), ham majburiyat hisoblanadi. Shunga ko'ra, davlatlarning migratsiyani milliy darajada tartibga solish bo'yicha vakolatlari xalqaro huquqning majburiy qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Odamlarning chegarani kesib o'tishi xalqaro ommaviy huquq manbalarida mustahkam belgilangan keng ko'lamli huquqiy normalar bilan xalqaro ahamiyatga ega bo'ldi. Hatto eng ehtiyotkor pozitivistlar ham migratsiyani tartibga soluvchi va davlatlar suverenitetini cheklovchi xalqaro qoidalarining sezilarli to'plamini tan olishadi. Biroq bunday rivojlanishga uzoq davom etgan bosqichma-bosqich konsolidatsiya jarayonida erishildi. Natijada xalqaro migratsiya huquqining zamonaviy xususiyati, professor Vinsent Chiteylning ta'biricha, "migratsiyani tartibga soluvchi zamonaviy xalqaro huquqiy baza bir-biriga tutashgan juda ko'p sohalar (inson huquqlari, tijorat huquqi, gumanitar huquq, mehnat huquqi, qochoqlar huquqi, dengiz huquqi, havo huquqi, konsullik huquqi, jinoyat huquqi va boshqa) bo'ylab tarqalgan qoidalar to'plamidan iborat" [9, 1-b.] ekanligida namoyon bo'ldi.

Xalqaro huquqshunos, professor Richard Lillichning so'zlariga ko'ra, xalqaro migratsiya huquqining umumiy tuzilmasi "bo'laklari soni noma'lum, umumiy o'ylangan g'oyasi hali ishlab chiqish bosqichida bo'lgan "yig'il-magan yirik huquqiy jumboq"qa [10, 122-b.] o'xshaydi. Qo'llaniladigan normalarning xilma-xilligi va ularning keng doirada tarqalib ketganligi xalqaro huquqni tushunishga ham, uni qo'llashga ham raxna soladi. Bu esa ushbu sohada xalqaro huquqni tushunish va qo'llashga intilayotgan olim va amaliyotchilar uchun jiddiy muammo hisoblanadi.

Huquqiy normalarning turfa xilligi migratsiyani xalqaro huquqning alohida sohasi sifatida ajratib ko'rsatish uchun qat'iy va global yondashuvni talab qiladi. BMT Xalqaro huquq komissiyasi a'zosi, professor Martti Koskeniemi qayd etganidek, "huquqning yangi "tarmoqlari" paydo bo'lishi... globallashtirayot-

gan dunyo ijtimoiy murakkabligining o'ziga xos xususiyatidir. Agar huquqshunoslar bu murakkablikni yengishga qodir emasligini his qilsalar, bu ularning "sozlamalar qutisida"gi muammolarning aksi emas, balki undan qanday foydalanish haqidagi tasavvuridir" [11, 50-b.].

Tadqiqot natijalari tahlili

Garchi xalqaro huquqiy normalarning bo'linishi aynan shu sohaga xos bo'lmasa-da, migratsiyani tartibga soluvchi umumiy doiralar avvalgidek biroz tasavvur qilishni talab qiladi, chunki qo'llaniladigan qoidalarining keng doirasi va ularning xalqaro huquqning boshqa sohalar bilan o'xshashligi ba'zan chalkashlikni keltirib chiqarishi mumkin. Bu xilma-xillik muqarrar va o'ziga xosdir: u migratsiyaning ko'p qirrali xususiyati va xalqaro huquqning amaldagi tarqoq normalari doirasidan tashqariga chiqadigan o'zaro bog'liqligini aks ettiradi.

"Xalqaro migratsiya huquqi" tushunchasi doirasida qo'llaniladigan turli xil qoidalar va tamoyillarni konseptuallashtirish ushbu "jumboq"ning turli qismlarini birlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Bunday qayta tiklash uchta maqsadni ko'zlaydi: *keng qamrovlilik, izchillik va kontekstdan kelib chiquvchi tahlil*.

Birinchidan, keng kamrovlilikka, aslida, xalqaro huquqning ushbu alohida sohasining tuzilishi orqali erishiladi, chunki uning asosiy maqsadi yetarli darajada muhim bo'lgan huquqiy qoidalarini to'plashdan iborat. Shunday qilib, xalqaro migratsiya huquqi odamlarning chegaralar orqali harakatlantirishini tartibga soluvchi keng qamrovli qoidalarini qamrab oluvchi global tasavvurni namoyon qiladi.

Ikkinchidan, ushbu qoidalarining ayni bir xil normativ tizim doirasida uyg'unlashuvi turli xil huquqiy normalarni o'zaro ifodalash maqsadida yanada izchil yondashuvga ko'maklashadi. Qo'llanilishi mumkin bo'lgan qoidalar xalqaro huquqning bir nechta sohalarini kesishmasida joylashgan bo'lsa-da, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib

qolaveradi. Ularning hech birini alohida, o'z-o'zicha baholab bo'lmaydi. Ular faqat bir-biri bilan aloqadorlikda tushunilganda mazmunga ega bo'ladi.

Uchinchidan, va ehtimol, muhimrog'i, ushbu qoidalarni xalqaro migratsiya huquqi ostida birlashtirish migratsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini yaxshiroq hisobga olish uchun ularni kontekstdan kelib chiqib qo'llashga imkon beradi. Shunday qilib, xalqaro migratsiya huquqining asosiy qiymati uning metodologik xususiyatida namoyon bo'ladi: u migratsiyani mustaqil tahlil mavzusi sifatida tushunishda yanada tizimli va ishonchli yondashuvni rag'batlantiradi.

Shu nuqtayi nazardan *xalqaro migratsiya huquqini* shaxslarning davlatlar o'rtasida harakatlanishi hamda qabul qiluvchi mamlakatlardagi migrantlarning huquqiy maqomini tartibga soluvchi xalqaro qoidalar va tamoyillar majmuyi sifatida ta'riflash mumkin.

Xalqaro migratsiya huquqi o'z mamlakatini tark etuvchi, boshqa mamlakatga kiruvchi va unda qoluvchi shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan barcha tegishli xalqaro huquqiy normalarni to'plashga qaratilgan. Yuqorida keltirilgan ta'rif migratsiya jarayonining butun davomiyligini o'z ichiga oladi: o'zi kelib chiqqan mamlakatni tark etish, boshqa davlatga kirish va u yerda qolish, shuningdek, o'z mamlakatiga qaytib ketish. Shunga muvofiq, u migratsiya jarayonining ikki tarafi sifatida emigratsiya va immigratsiyani qamrab oladi. Bundan tashqari, muayyan huquqiy rejimlar bir guruh shaxslar toifasidan boshqasiga o'zgarganda farq qilishi mumkin bo'lsa-da, xalqaro migratsiya huquqining ta'sir doirasi keng qamrovli. U migrantlarni qabul qilish maqsadi va asosi (ishlash, oilalarning qayta qo'shilishi, boshpana olish, o'qish), migrantlarning huquqiy maqomi (hujjatli yoki hujjatsiz) va mamlakatda bo'lish davomiyligidan (tranzit, vaqtincha bo'lish, uzoq muddatli qolish) qat'i nazar, barcha toifadagi migrantlarga taalluqlidir.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, "migrant" atamasini inklyuziv va faktik tushunish xalqaro huquq qamrovi, shuningdek, odamlarning chegaralarni kesib o'tishini tartibga solishda uning birligi va xilma-xilligini yaxshiroq aks ettiradi. Umum e'tirofga ko'ra, "migrant – bu o'zi fuqarosi bo'lgan davlatdan boshqa davlatda yashash uchun xalqaro chegarani kesib o'tgan shaxs". Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha departamenti bu borada quyidagicha yondashuvni ta'kidlaydi: "Xalqaro migrant tushunchasining rasmiy yuridik ta'rifi mavjud bo'lmasa-da, ko'pchilik ekspertlarning fikriga ko'ra, xalqaro migrant ko'chishining sababi yoki o'zining huquqiy maqomidan qat'i nazar, odatdagi yashash joyini o'zgartiruvchi shaxs hisoblanadi" [12].

Ushbu ta'rif Xalqaro migratsiya tashkiloti (XMT) tomonidan quyidagi tushuncha bilan ma'qullangan: migrant – bu o'zining huquqiy maqomi, harakatlanishning ixtiyoriy yoki majburiy ekanligi, ko'chish sabablari yoki mamlakatda bo'lishning davomiyligidan qat'i nazar, xalqaro chegara orqali ko'chib o'tayotgan yoki o'tgan yoxud davlat ichida odatdagi yashash joyidan boshqa joyga ko'chib o'tayotgan yoki o'tgan har qanday shaxs deb ta'riflanadi [13].

Umuman olganda, xalqaro huquq, ayniqsa, inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq barcha migrantlarga nisbatan qo'llaniladigan umumiy huquqiy asosni ta'minlaydi. Bunday umumiy huquqiy qoidalar ma'lum toifadagi shaxslar (masalan, mehnat migrantlari, qochoqlar, noqonuniy olib kirilgan migrantlar va odam savdosi jabrdiydalari)ga qaratilgan maxsus konvensiyaviy rejimlar bilan to'ldiriladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, xalqaro migratsiya huquqi shaxslarning chegarani kesib o'tishiga nisbatan qo'llaniladigan ham umumiy, ham maxsus huquqiy normalarni o'z ichiga oladigan umumlashtiruvchi atama hisoblanadi. Bu esa faqatgina migratsiyaga emas, balki xalqaro huquqqa ham tegishli

bo'lgan xususiyatdir. Bu borada BMT Xalqaro huquq komissiyasining quyidagi munosabati e'tiborga molik: "Barcha huquqiy tizimlar ularning predmeti va qo'llanilish sohasiga nisbatan u yoki bu darajada umumiylik va o'ziga xoslikka ega bo'lgan qoidalar va tamoyillardan tashkil topadi. Ba'zan ular turli yo'nalishlarga diqqat-e'tiborni qaratadi va agar shunday bo'lsa, yuridik asoslashning vazifasi qoidalar va tamoyillar bir-birini to'ldirgan holda qo'llanila oladimi yoki biri boshqasiga nisbatan ustuvorlikka ega bo'ladimi, degan savolga javob topish uchun ular o'rtasida mazmunli munosabatlarni o'rnatish hisoblanadi. Bu [...] "tizimli integratsiya" deb ataladi" [11, 49-b.].

Xalqaro migratsiya huquqi odamlarning chegaralar orqali harakatlanishini tartibga soluvchi turli xildagi va ko'p sonli normalarning tizimli integratsiyasini ta'minlashga urinishni o'zida namoyon qiladi. U xalqaro huquqning boshqa tarmoqlari o'rnini egallamaydi va "muqobil rejim" deb ataladigan alohidalikka da'vo qilmaydi. Aksincha, u xalqaro huquqqa kompleks yondashish orqali turli huquqiy sohalarida mavjud normalarni ravon va izchil ifodalash maqsadida mazkur normalarga asoslanadi.

Ko'pgina boshqa huquqiy fanlar (masalan, atrof-muhit huquqi yoki tijorat huquqi) singari xalqaro migratsiya huquqi, birinchi navbatda, xalqaro huquqning an'anaviy manbalari va subyektlaridan kelib chiqadigan doktrinal qurilmadir. "Xalqaro migratsiya huquqi" iborasining o'zi yuridik fanda yangi atama hisoblanmaydi. U birinchi marta 1927-yilda Lui Varle (Louis Varlez) tomonidan ishlatilgan. U o'zining Gaaga xalqaro huquq akademiyasidagi kurslarida migratsiyani tartibga soluvchi xalqaro huquq normalarini o'rganish "o'ta jonli va samarali qonun ijodkorlik faoliyatini namoyon qiladi, bu esa, ehtimol, boshqa har qanday hodisaga qaraganda yaxshiroq huquq hayotini doimiy rivojlanishda kuzatish imkonini beradi", deb tushuntiradi [14, 85-b.]. L.Varle qat'iyat bilan

ta'kidlaganidek, xalqaro migratsiya huquqi "mavhum qonun emas, balki tirik huquq bo'lib, tartibga solinishi lozim bo'lgan hodisalarga muntazam ravishda ta'sir qiladi va munosabat bildiradi" [14, 85-b.].

1972-yilda Richard Plender "Xalqaro migratsiya huquqi" deb nomlangan fundamental kitobini nashr ettirdi. Kitob 1988-yilda qayta nashr etildi [15]. Garchi bu jadal rivojlanayotgan soha olimlarning keng ko'lamli ilmiy e'tiborida bo'lgan xalqaro qochoqlar huquqiga nisbatan soyada qolgan bo'lsa-da, XXI asr boshidan buyon yaratilgan ko'plab asarlar aynan xalqaro migratsiya huquqiga bag'ishlangan edi. Ular orasida T.Aleynikoff va V.Chiteylning 2003-yilgi "Migratsiya va xalqaro huquq normalari" (Migration and International Legal Norms) [16], R.Cholvinski, R.Perruchud va E.Macdonaldning 2007-yilgi "Xalqaro migratsiya huquqi: rivojlanayotgan paradigmalar va asosiy chaqiriqlar" (International Migration Law: Developing Paradigms and Key Challenges) [17], V.Chiteylning 2007-yilgi "Globallashuv, migratsiya va inson huquqlari: xalqaro huquq ko'rib chiqilmoqda" (Globalization, Migration and Human Rights: International Law Under Review) [18] va 2016-yilgi "Xalqaro huquq va migratsiya" (International Law and Migration) [19], G.S. Goodwin-Gill va P. Weckelning 2015-yilgi "XXI asrda Migratsiya va qochoqlarni himoya qilish: xalqaro-huquqiy jihatlari" (Migration and Refugee Protection in the 21st Century: International Legal Aspects) [20] asarlari muhim ahamiyatga ega.

Xulosalar

Xoh u o'zining asosiy xususiyatlarini umumiy xalqaro huquq bilan solishtirsin, xoh e'tiborini yanada maxsus bo'lgan masalalarga (migrantlarning inson huquqlari, tartibsiz migratsiya yoki dengizda qo'lga olish kabi) qaratsin, bundan qat'i nazar, xalqaro migratsiya huquqi masalalari bo'yicha ilmiy hamjamiyat nisbatan tezlik bilan rivojlanmoqda.

Biroq huquqiy doktrinaning misli ko‘rilgan qiziqishiga qaramay, xalqaro migratsiya huquqi hali ham ishlab chiqish jarayonidagi masala bo‘lib, har doim ham alohida soha sifatida tan olinmaydi.

Xalqaro migratsiya huquqi deb nomlanishidan qat’i nazar, xalqaro huquqqa tizimli va tarmoqli yondashish migratsiyani tartibga soluvchi keng ko‘lamli qoidalarini aniqlash hamda ularning kuchli va kuchsiz jihatlari baholash uchun muhim ahamiyatga ega. Vinsent Chiteylning ta’biri bilan aytganda, “xalqaro migratsiya huquqini nuqtali rasimga (rassomchilikdagi *pointillism* yo‘nalishi – muallif izohi) qiyoslash mumkin, uning ravshanligi faqat uzoqdan ko‘rinadi. Yaqindan razm solinsa, rasm xalqaro huquqning xilma-xilligini ochib beruvchi rangli nuqtalarning taqqoslanishiga aylanadi” [14, 86-b.].

Xalqaro huquqning moslashuvchanligi migratsiyani jamoaviy harakatlarni talab

qiluvchi global hodisa sifatida qayta ko‘rib chiqish uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. O‘z navbatida, mavjud qoidalarini baholash uchun pozitivizm muqarrar bo‘lsa-da, xalqaro huquq tizimi tanqidiy o‘rganishlar, huquqiy plyuralizm, gender va mintaqaviy yondashuvlarni o‘z ichiga olgan turli nuqtayi nazarlardan kelib chiqib, qaytadan shakllanishi mumkin.

Xalqaro migratsiya huquqi nomukammal davlatlar dunyosi uchun nomukammal huquq ekanligi shubhasizdir. Unda mustaqil va, o‘z navbatida, bir-biriga chambarchas bog‘liq davlatlardan tashkil topgan dunyoning qarama-qarshiliklari o‘z aksini topgan. Biroq mavjud kamchiliklariga qaramasdan, xalqaro huquq odamlarning chegaralar orqali harakatlanishi yuzasidan davlatlarning xatti-harakatlarini cheklaydigan va ularni yo‘naltiradigan yuridik majburiy bo‘lgan qoidalarining o‘ta muhim manbayidir.

REFERENCES

1. Kiseleva Y.V. Mezhdunarodno-pravovoye regulirovaniye migratsii [International legal regulation of migration]. Moscow, RUDN, 2012.
2. Salas V.M., de Vitoria Jr.F. On the Ius gentium and the American indios. Ave Maria Law Review, 20212, Spring, vol. 10 (2).
3. Grotius G. O prave voyny i mira [On the Law of War and Peace]. 2nd Book. Available at: <http://www.civisbook.ru/files/File/Groziy.Kn2.pdf/>.
4. Kari S. Pufendorf on the Law of Sociality and the Law of Nations. 2019. DOI: 10.1163/9789004384200_007/.
5. De Vattel E. The Law of nations or the principles of natural law in four books. Lonang Institute, 2005.
6. Shaw M.N. International Law. 6th ed. Cambridge University Press, 2008.
7. UN General Assembly Resolution A/RES/71/1. Available at: <https://documents-dds-ny.un.org/doc/UNDOC/GEN/N16/292/00/PDF/N1629200.pdf?OpenElement/>.
8. UN General Assembly Resolution A/RES/73/195. Available at: <https://documents-dds-ny.un.org/doc/UNDOC/GEN/N18/452/02/PDF/N1845202.pdf?OpenElement/>.
9. Research Handbook on International Law and Migration. V. Chetail, C. Bauloz, eds. Cheltenham, Edward Elgar Publ., 2014.
10. Lillich R. The Human Rights of Aliens in Contemporary International Law. Manchester University Press, 1984.
11. International Law Commission. Fragmentation of International Law: Difficulties Arising from the Diversification and Expansion of International Law. Report of the Study Group of the International Law Commission, 2006, April 13. UN Doc A/CN.4/L.682.

12. Refugees and Migrants. Available at: <https://refugeesmigrants.un.org/definitions/>.
13. IOM. Key Migration Terms. Available at: <https://www.iom.int/key-migration-terms/>.
14. Chetail V. International Migration Law. Oxford University Press, 2019.
15. Plender R. International migration law. Leiden, Sijthoff. 1972. Available at: <http://catalog.hathitrust.org/api/volumes/oclc/595402.html/>.
16. Aleinikoff T.A., Chetail V. Migration and International Legal Norms. TMC Asser Press, 2003.
17. Cholewinski R., Perruchoud R., MacDonald E. International Migration Law: Developing Paradigms and Key Challenges. TMC Asser Press, 2007.
18. Chetail V. Globalization, Migration and Human Rights. *International Law Under Review*, Bruylant, 2007.
19. Chetail V. International Law and Migration. Edward Elgar Publ., 2016.
20. Goodwin-Gill G.S., Weckel P. Migration and Refugee Protection in the 21st Century: International Legal Aspects. Hague Academy of International Law. Martinus Nijhoff, 2015.

UDC: 34(045)(575.1)

“HAMLET” TRAGEDIYASI VA VILYAM SHEKSPIRNING HUQUQIY QARASHLARI

Bozorova Nasiba Po'latjonovna,

Toshkent davlat yuridik universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi
ORCID: 0000-0001-9605-0384
e-mail: n.bozorova@tsul.uz

Annotatsiya. Ta'lim jarayonida kishilik jamiyatidagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy muammolarni yagona bir manba orqali o'rganish, tahlil qilish va xulosalar chiqarish imkonini mavjud. Bu manba hayot haqiqatidan bahs etuvchi badiiy asarlardir. Badiiy ijod namunalari tafakkur va tasavvurga qanot bag'ishlab, jamiyatdagi ko'plab muammolarni o'nglab, ularni hayotga tatbiq etishga xizmat qiladi. Shu ma'noda huquqiy ta'limda badiiy asarlarni huquqiy muammoning obyekt sifatida o'rganish va o'rgatish muhimdir. Shunday asarlardan biri ingliz dramaturgi Vilyam Shekspirning “Hamlet” tragediyasidir. Hamlet obrazi, taqdiri, kechinmalari, harakatlari nafaqat adabiyotshunoslar, balki huquqshunoslar o'rtasida ham qizg'in bahs-munozaralar, keskin mulohazalar uchun maydon ochib bergan. Jahon huquqshunosligida Yevropa huquq tizimi Shekspir asarlarida, xususan, “Hamlet” tragediyasidagi huquqiy muammolar asosida ko'rib chiqiladi. Maqolada Shekspirning huquqiy qarashlari Hamlet tahlili asosida bayon etilgan. Xususan, amaldagi qonunlari insoniyat uchun yaratilgan va asl me'yorlarga to'g'ri kelmaydigan jamiyat, xudbinlik, ikkiyuzlamachilik va qo'rqqoqlik hukm surayotgan davlat, jinoiy hokimiyat, ya'ni shaxs, davlat va jamiyat tanazzulga uchrashining asosiy sabablari tahlil qilinadi. Shekspirning o'z davri huquq tizimiga munosabati shahzoda Hamletning o'z haq-huquqlarini himoya qilish harakatlariga baho berish orqali o'rganildi.

Kalit so'zlar: Vilyam Shekspir, “Hamlet” tragediyasi, huquq, qonun, axloq, jamiyat, shaxs, jinoyat, tarix, badiiy adabiyot, dramaturg, Sharq falsafasi.

ТРАГЕДИЯ «ГАМЛЕТ» И ЮРИДИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ УИЛЬЯМА ШЕКСПИРА

Бозорова Насиба Пулотжоновна,

кандидат филологических наук, доцент
кафедры «Узбекский язык и литература»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В процессе образования есть возможность изучать, анализировать и делать выводы по экономическим, социальным, политическим и правовым проблемам в человеческом обществе через единый источник. Этим источником может служить произведение искусства, в котором обсуждаются реалии жизни. Образцы художественного творчества, наделяя крыльями мышление и воображение, служат корректировке многих проблем общества и применению их в действительности. В этом смысле важно в юридическом образовании изучать и преподавать произведения искусства как объект правовой проблемы. Одним из таких произведений является трагедия «Гамлет» английского драматурга Уильяма Шекспира. Образ, судьба, переживания и поступки Гамлета открыли поле для жарких споров и острых размышлений не только у литературоведов, но и среди правоведов. В мировой юриспруденции

европейская правовая система рассматривается на основе правовых проблем в произведениях Шекспира, в частности в трагедии «Гамлет». В статье описываются правовые воззрения Шекспира на основе гамлетовского анализа. В частности, проанализированы основные причины упадка общества, действующие законы которого не соответствуют изначальным нормам, созданным для человечества, т. е. личность, государство и общество, где правит эгоизм, лицемерие и трусость преступного правительства. Отношение Шекспира к правовой системе своего времени было изучено путем оценки усилий принца Гамлета по защите своих прав.

Ключевые слова: Уильям Шекспир, трагедия «Гамлет», закон, право, мораль, общество, личность, преступление, история, художественная литература, драматург, философия Востока.

THE TRAGEDY "HAMLET" AND THE LEGAL VIEWS OF WILLIAM SHAKESPEARE

Bozorova Nasiba Pulotjonovna,

Associate Professor of the
Department of the Uzbek Language and
Literature,
Tashkent State University of Law,
Candidate of Philological Sciences

Abstract. In education, there is an opportunity to study, analyze and draw conclusions on economic, social, political, and legal problems in human society through a single source. This source can be a work of art that discusses the realities of life. Giving wings to thinking and imagination, models of artistic creativity serve to correct many problems of society. In this sense, it is essential in legal education to study and teach works of art as an object of a legal issue. One such work is the tragedy "Hamlet" by the English playwright William Shakespeare. The image, fate, experiences, and actions of Hamlet opened the field for heated debates and sharp reflections not only among literary critics but also among lawyers. The European legal system in world jurisprudence is analyzed based on legal problems in the works of Shakespeare, in particular, in the tragedy "Hamlet". The article describes Shakespeare's legal views on the basis of "Hamlet"'s analysis. In particular, the main reasons for the decline of a society whose current laws do not correspond to the original norms created for humanity, a state ruled by selfishness, hypocrisy, and cowardice, and a criminal government, i.e. an individual, state, and society, are analyzed. Shakespeare's attitude to the legal system of his day has been examined by evaluating Prince Hamlet's efforts to defend his rights.

Keywords: William Shakespeare, tragedy "Hamlet", law, morality, society, personality, crime, history, fiction, playwright, Eastern philosophy.

Kirish

Vilyam Shekspir asarlari o'z davrida u qadar shuhrat topmagan bo'lsa-da, bugun Shekspir nomi yoxud qahramonlarini bilmaydigan xalq, Shekspir so'zlari yangramagan sahna yo'q. U an'anaviy syujet va mavzuga yangi nafas, toza ruh kiritgan, qadimdan shakllanib, o'z davriga qadar amalda bo'lgan adabiy drama janrini yangi ufqqa olib chiqqan novator, shuningdek, asarlarida insonning ichki kurashi fonida o'zni taftish etish, o'z mohi-

yatiga yetish sirlarini tadqiq etgan faylasuf ijodkordir. U o'z dramalarida shaxs tanazzuli tashqi emas, ichki – botiniy mayl, xohish-istaklar sabab yuz berishi; qabohat va razolatga qarshi kurash, adolat va haqiqat yo'lida yurish – chin insoniylik matlabi ekanini mahorat bilan yoritgan. Shekspir asarlaridagi fikr, tuyg'u, so'z va ohang obraz (*shu orqali muallif* – N.B.)ni anglash, voqelik zamiridagi maqsadni bilish, tarix orqali bugunni kashf etish va ma'lum bir xulosaga kelish imkonini beradi.

Shekspir asarlari millat tanlamagani-dek soha ham tanlamaydi. Ulardan adabiyotshunoslik, tarix, huquqshunoslik, falsafa, psixologiyada bimalol foydalanish mumkin. Shu bois jahon shekspirshunosligida Shekspir asarlari turli nuqtayi nazardan o'rganilgan, munosabat bildirilgan va yangi fan tarmoqlari shakllangan. Shulardan biri – Shekspir asarlaridagi huquqiy muammolar tadqiqi yo'nalishidir.

Yuridik fanlari doktori, professor A.Saidov Shekspir nafaqat ingliz, balki o'zi yashagan davrdagi Yevropa xalqlari huquqini ham yaxshi bilgani va asarlarida unga munosabat bildirganini aytib, "Shekspir asarlarida tarixiy taqqoslash imkoniyatini beradigan beqiyos yuridik material jamlangan" [6: 130], – deydi. Olim o'zining "Shekspir va yurisprudensiya" kitobida Shekspir asarlarini huquqshunoslik nuqtayi nazaridan o'rgangan olimlarning ishlariga munosabat bildirgan va Shekspirning huquqiy qarashlarini ijodkor asarlari misolida tahlil qilgan. Buyuk dramaturg asarlarini ayni shu jihatdan o'rganish foydadan xoli bo'lmaydi, albatta. Bunda qonun va axloq degan jamiyatni tutib turuvchi ikki kategoriya e'tibor markazida turadi va Shekspirning o'z davri huquq tizimiga munosabati, jamiyat va shaxs, hokimiyat va boshqaruv haqidagi e'tiborli qarashlarining asoslari oydinlashadi.

Material va metodlar

"Hamlet" Shekspir tragediyalari orasida eng ko'p bahslarga sabab bo'lgan asardir. Ko'pchilik "Hamlet"ni Shekspirning shoh asari, ijodkor adabiy merosining cho'qqisi, deya e'tirof etgan. Asar bosh qahramoni Hamlet jahon adabiyoti qahramoniga aylangan obraz. Hamlet obrazi, taqdiri, kechinmalari, harakatlari nafaqat adabiyotshunoslar, balki huquqshunoslarga ham qizg'in munozara, keskin fikrlar maydonini ochib bergan. Jahon yurisprudensiyasida Y.Koler [3], R.Iering [2], M.A. Oks [4], A.E. Shtreyfinkel [10], N.A. Poleyev [5] kabi huquqshunoslar Shekspirning "Hamlet" tragediyasi, xususan, yosh shahzodaning kuch bilan tortib olingan haq-huquqi-

ni tiklashga qaratilgan harakatlarini chuqur tadqiq etgan. Shekspir asarlaridagi yuridik masalalar borasida akademik A.Saidovning amalga oshirgan tadqiqotlari ham e'tiborga loyiq [6].

Maqolada mazkur olimlarning ishlari metodologik asos sifatida olinib, unda qiyosiy-tipologik, tarixiy-qiyosiy, huquqiy va adabiy tahlil metodlaridan foydalanilgan, shuningdek, "Hamlet" asarida tasvirlangan voqealar asosida qonunlarning axloqqa muvofiqlik prinsipi yoritib berilgan.

Tadqiqot natijalari

Buyuk dramaturg Vilyam Shekspir qirq yoshga yaqinlashganda, ijodida fojiaiylik pafosi ustunlik qilgan. "Hamlet" ijodkorning ayni ijodiy kuchga to'lgan, fikr-qarashlari tiniqlashib-teranlashgan, ruhoniya haddi a'losiga ko'tarilgan ayni shu fasl mahsulidir [7:79]. Haqiqatda, "Hamlet"da foje ruh ustuvor. Unda Daniya misolida zamon, odamlar, axloq va qonunning tragik holga kelish sabablari, Koinot va Zamin uyg'unligiga zid harakat zamonni izdan chiqarishi badiiy bo'yoqlarda aks ettirilgan.

Tarixdan bilamizki, ilohiy muvozanat, intizom buzilganda, bu oliy yo'riqni qayta tiklash, uni barqarorlashtirish, haqiqat uchun kurashish vazifasi kimningdir chekiga (albatta, u tanlanganlardan bo'ladi) tushadi. Jamiyat, insoniyat uchun qayg'uruvchi bunday shaxslar ko'pincha yolg'iz bo'ladi (Ba'zan yonida yordamchisi yoki do'sti bo'ladi). Favqulodda tabiat va tafakkur sohibi, qalbi muruvvat, mehr, odamiylik bilan to'lib-toshgan bunday shaxslar go'yo izdan chiqqan zamonni izga solmoq uchun tug'ilgan bo'ladi. Hamlet ham shunday vazifa uchun tanlangan, u "chinakam inson, muruvvatga shay" otaning o'g'li edi. Unda otameros tozalik, adolatparvarlik bor. Hamlet zindon Daniyadagi birgina nur, haqiqatning mayog'i edi. Qarashlari oliy mezonga uyg'un va zimmasiga ulkan vazifani ado etmoq – zamonni izga solmoq yuki ortilgan edi.

Jinoyatchilik psixologiyasida jinoyatlarining aksari ichki norozilik, alam, nafrat sa-

babli yuzaga kelishi aytiladi. “Hamlet” tragediyasida otasining vafotiga ikki oy to'lmay turib, onasining o'z qaynisiga turmushga chiqqani shahzoda Hamlet yuragiga nafrat urug'ini qadaydi. Aslida, Malika Gertrudaning, shahzoda Hamlet aytganidek, “muqaddas nikoh ahd-u paymonalarini qimorbozning savdosiga aylantirgani, shariatning rasm-rusumini bir ermak qilgani” axloqsizlik, tuban bir harakat edi. Negaki nikoh – muqaddas ahd. Bu o'sha davr cherkov qonunlarida ham aks etgan. Ruhoniy guvohlar ishtirokida kelin va kuyovni Yaratgan nomi bilan nikohlar ekan, ularga yaxshi va yomon kunlarda ham birga bo'lishi, mehr-muhabbat, sadoqat bilan umr o'tkazishga qasamyod qilishlarini aytadi. Shu tarzda nikoh taraflarda ixtiyoriy javobgarlik huquqini yuzaga keltirgan. Gertruda mana shu javobgarlik huquqini unutadi, yolg'on va'daga uchib, “oxiri xayrli bo'lmagan ish”ga qo'l uradi. Malikaning qirol Hamlet tirikligida qilgan ayni shu ishi (xiyoni) natijasida Daniya xavf ostiga qoladi.

Tragediyada Klavdiyning Gertrudaga uylanishi, aslida, qonuniy bo'lgan. Buni Klavdiyning:

*Biz bu ishga ehtiyot-la qo'yarkan qadam,
Oqil, dono kengashlarni tingladik har dam.
Ular bizning tadbirimiz ko'rishdi ma'qul,
Yaxshi gaplar, maslahatlar uchun tashakkur [9: 218], –*

degan so'zlaridan bilib olamiz. Bu bizga Daniya qadimgi qonunlarga ko'ra idora etilayotganini ochib beradi. Chunki qadimgi qonunlarga ko'ra, birovni o'ldirgan qotil uning bevasiga uylanishi va bolalarini asrab olishi kerak bo'lgan. Bu jinoyatchining sodir etgan gunohi uchun kafforat hisoblangan [12] (Sofoklning “Shoh Edip” tragediyasida shu huquqiy muammo talqin etilgan). Qolaversa, Eski Ahdning nikoh qonunida nasl va mulk huquqi nuqtayi nazaridan vafot etgan shaxsning bevasi uka (qayni yoki boshqa qarindosh)ga turmushga chiqishi shart bo'lgan

[13]. Diqqat qilsak, Shekspir qadimdan amal qilib kelayotgan bu qonunni rad etgan va undan voz kechish masalasini ko'targan. Bu bir o'rinda Arvoh tilidan “Daniyaning podshohlari uxlagan to'shak, Fahsh-u razolatga xizmat etmasin, qo'yma” [9.242], deya oshkor ifodalangan bo'lsa, boshqa bir o'rinda Hamletning so'zlari orqali shunday bayon etilgan:

*Yo Xudoyim! Yo Rabbano! Yo Parvardigor!
Qanday ayanch, qanday jirkanch va to'mtoq bo'lib*

*Ko'rinadi butun olam, butun kor-u bor.
Qarab-qarab ko'ngling aynab ketadi! Xuddi
G'ovlab ketgan tashlandiq bir boqqa o'xshaydi.*

Qadam bosish mahol, axlat, hammayoq axlat... [9: 222-223] –

Badiiy ijodda mamlakatning boqqa o'xshatilishi an'anaviy hodisa. Suv (adolatli qonun, boshqaruv) bilan bog' (mamlakat) qancha ma'mur bo'lsa, zulm, adolatsizlikdan u shu qadar xarobazorga aylanishi haqiqat. Shahzodaning bu iztirobli nidolari o'quvchini tashlandiq boqqa aylanib qolgan Daniya tanazzuli haqida mushohada yuritishga undaydi, tuban va jirkanch oqibatni keltirib chiqaruvchi har qanday qonun jamiyatni izdan chiqarishi muqarrarligiga ishoniradi.

Asarda jamiyatda ma'naviy qadriyatlarining oyoqosti qilinishi, ko'ngil istagiga ko'ra, yangi urf-odat va an'analarni joriy etishdan yangi bir jinoyatlar yuzaga kelishi ham bir ishora bilan bayon etilgan. Bu yarim tunda chalingan karnay ovozi-yu otilgan zambarak o'qi sababini bilolmagan Horatsio (chunki u Vittenbergdan kelgan edi)ning: “Shahzodam, bu ne bo'ldiykin?” – degan savoliga javob orqali ayonlashadi. Horatsio Hamletdan qirol uxlamay yiqilguncha raqs tushib, javlon urishi, har safar qadahni bo'shatganda, karnaylar va nog'oralar bilan suron solinib, buning yer-u ko'kka ovoza qilinishini bilgach, hayronlik bilan “Bu nimadi – taomilmi?” – deb so'raydi. Hamlet obro' va nufuzni tushiruvchi

bu manfur odatni yo'q qilish lozimligini aytib, uning huquqiy oqibatlariga e'tibor qaratadi:

*Ba'zan shunday bo'ladiki, biror-bir inson
Tug'iladi ma'lum tug'ma asorat bilan.
Xo'sh, bu nima, uning gunoh aybimidir bu –
Axir ota-onasini tanlamagan u.
Yoki fe'li-atvorida g'arib bir holat,
Yoki xatti-harakatda noqis bir jihat...*

Hammasiga o'sha iflos tomchi sababkor
[9:235-236].

Bunda ichkilik tufayli nogiron go'daklar-ning tug'ilishi kabi dolzarb huquqiy muam-moga e'tibor qaratilgan. Hamletning bu fikrlari orqali Shekspir kelajak avlod uchun qayg'urish, farzandlarning ruhiy-jismoniy sa-lomatligiga mas'ul bo'lish har bir davr uchun muhimligini eslatib, Tangri ne'matini shaffof fazilatlar (tug'ilajak bolani sog'lom yashash huquqi)dan mahrum etish mudhish jinoyat ekanligini ta'kidlagan. Demak, insoniyatning o'z xursandchiligi, maishati, ko'ngilxushligi uchun qabul qilgan va turmushning ajral-mas odat-taomiliga aylangan bu kabi holatlar jamiyatning o'z kelajagiga bolta urishdir.

Tragediyada Hamlet dinamik – o'sib boruvchi obraz sifatida tasvirlangan. Dast-lab sust, ko'proq o'zini ayblovchi Hamlet Ar-vohdan otasining Klavdiy (shohning ukasi, shahzodaning amakisi, ayni damda uning onasiga uylangan va shahzoda unga ji-yan-o'g'il (!)) tomonidan zaharlanib o'ldi-rilgani haqidagi xabarni eshitgach, dunyo-si ostin-ustun bo'lib ketadi. Ichki norozilik, alamzadalik hissi, ayniqsa, otasi arvohining:

Ha, qotillik o'zi – qabohat,

Ammo mash'um qabohatning qabohati bu!
[9:240] –

deya Hamletni shum qotillik uchun qasos olishga chorlashi qahramon tabiatida man-fiy qutbni ochadi. Shu nuqtadan uning ruhiy dunyosida keskin o'zgarish bo'ladi. U ham shahzoda sifatida noqonuniy tortib olingan

taxt uchun, ham zaharlanib o'ldirilgan ota-si uchun, ham onasi – nomus-or uchun ku-rashmoqni maqsad qiladi. Huquqshunos-lar shahzodaning bu harakatini jahondagi ko'pgina xalqlarda mavjud bo'lgan ko'hna odat – qonli o'ch olish huquqi va Hamletning harakatlari o'z huquqini tiklashga qaratilgan, deb baholashgan [6].

Jamiyatda aksar tasodifiy yoxud qasd-dan sodir etilgan qotillik jinoyatlari ko'pin-cha belgilangan axloq normasi buzilishidan kelib chiqadi. Ayniqsa, erkak kishi (xususan, Sharqda) o'ziga tegishli ayolning axloq chega-rasidan chiqishini aslo kechirmaydi. Bunday harakat uning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'r-satadi, harakatlarini idrok etolmay, o'zdan chiqish holatida yo o'zini, yo o'sha yaqinini o'ldirish darajasiga yetadi. Hamlet ham ona-si malika Gertrudaning amakisiga turmush-ga chiqqanini hazm qilolmaydi, uning ichi-da isyon olovi paydo bo'ladi. Bu olovni ar-vohning:

Kim bo'larding, agar shunday tug'yon ur-masang?

O'lik daryo suvlarida bujmayib o'sgan,

Baqa to'ni, sassiq alaf bo'larding, balkim
[9:240], –

degan so'zlari yanada olovlantiradi. Iz-tirob, dard, alam yosh shahzodani tafakkur, mushohada va mulohazaning oliy nuqtasi-ga ko'taradi. Hamlet haqiqatni bilgach, raqib kabi ayyorlik niqobini taqadi, "shirin-shirin tabassum bilan, kulib-kulib ablah bo'lish"ni ma'qul ko'radi. Nomus va or kurashiga ot-langan shahzoda uchun bu niqob himoya quroli edi. Chunki huquqshunoslikda ham adabiyotdagi kabi "tentakdan so'rov yo'q" taomiliga rioya etiladi va Hamletning ruhiy "nosog'lom"ligi uni harakatlari, sodir etgan ji-noyatiga javobgarlikdan ozod etishini yaxshi biladi. Biroq shahzodaning bu holati amaki-si Klavdiy niyatlariga qo'l keladi. Shahzoda Hamletni xalq juda yaxshi ko'rardi. Klavdiy akasi sobiq qiroidan so'ng o'ziga raqib yosh

shahzoda ekanini yaxshi bilardi. Shu bois shahzodaning “telba” bo'lishi ayni muddao edi. Biroq qirol kuzatishlardan, Hamletning gap-so'zlaridan uni “qayg'uning tim qorong'i burchaklarida halokatli bir qarorga kelmoqda”ligini anglaydi. Asar davomida qirol “falokatni raddi badal aylamoq uchun... jinnilarni nazoratda saqlamoq kerak” [9: 286], degan mudhish (shahzoda Hamletni o'limga hukm etish) qaror chiqaradi. Bu bilan Shekspir bir jinoyat ikkinchi bir jinoyatni boshlab kelishi haqidagi huquqiy mulohazalarini bildirgan.

Shu o'rinda Hamlet tabiatiga e'tibor qaratsak. U juda kuchli shaxs. O'zi aytganidek, hech kim uni maqomiga solib chalolmaydi, cholg'u deb atashi, buzishi mumkin, lekin chalolmaydi. U har bir holatda yurak va aql amriga tayanib ish tutadi. Faqat yurakka yo faqat aqlga ergashib ketmaydi. Ishni yurak va aql tarozisi bilan baholaydi va bu bilan tom ma'nodagi inson ekanini ko'rsatadi. Ya'ni yurakdagi to'fon-g'azab, nafrat uning aqlini xiralashtirmaydi. Ayni shu jihatdan Hamlet jasur va mard Laertdan farqlanadi. Laert ham jabrlanuvchi edi. Laert otasi Poloniy hamda singlisi Ofeliya o'limida kim aybdorligini tekshirmay, qirolning fitnasiga oson aldanadi. Hamlet esa har qanday fikrga ko'r-ko'rona ergashmaydi, adolat mezoniga muvofiq ish tutadi. U:

*Ehtimolki, o'sha arvoh iblisdir, ya'ni
Atay kirib olib otam qiyofasiga.
Istifoda etib charchoq, ma'yusligimdan,
Meni halokatga duchor etmadimikin?!
[9: 278] –*

deya Arvohning jinoyat haqidagi xabarini tekshirib ko'radi. Bu o'sha davr yurisprudensiyasida ham bugungi kabi biror harakat us-tidan jinoiy ish qo'zg'atilishi uchun, avvalo, jinoyat elementlari tasdiqlanishi lozim, degan qoidaning mavjudligini dalillaydi.

Aktyorlar o'ynagan mudhish qotillik sahnasidan so'ng haqiqat oydinlashadi. “Qopqon” Klavdiyni qopqonga tushiradi. Bu

qopqon uning vijdoni edi. Odam ming turli tusga kirishi, ming xil tovlanishi mumkin, lekin tabiatidagi nur bir orada yalt etib yuzaga chiqib qolsa, hamma yolg'onlar chekinadi va ixtiyorsiz tarzda til haqiqatni so'zlay boshlaydi.

Tragediyadagi yana bir tragik holatni ayni shu nuqtada ko'ramiz. Qiyomatda qilgan gunohi uchun javob berishni bilish, tan olish – ulug' iztirob. Shekspir qo'li akasining qoni bilan bulg'angan Klavdiyga bir zum shu iztirobni tottiradi va uning monologik nutqida botin dialogini yoritadi:

*– Meni bo'g'ar qabohatning qo'lansa dudi...
– O'ksinishga hali erta, boshingni ko'tar.
– Men yiqildim, turmoq uchun yiqildim,
ammo
– Xo'sh, bu yerda joiz turur nechuk tavallo.
– “Qotilligim ma'zur ayla...” desammi ekan,
– Yo'q, bu sira mumkin emas, sira, mutlaqo.
– Deydilarki, ijobatdir tavbaning kuchi,
– Lekin tavba yo'li tamom yopiq bo'lsa-chi?
[9:307]*

Bu o'rinda Klavdiy monologining dialog shaklida berilishidan maqsad qahramon botinida kechayotgan qarama-qarshilikni ko'rsatishdir. Zero, dialog nazariyasiga ko'ra, “men” “o'zga” bilan muloqotga kirishar ekan, botinidagi g'ayriqutbni tasdiqlashi, inkor qilishi, aldashi, avrashi, unga munojot qilishi, tazarru etishi mumkin [1:77]. Klavdiy nutqida buning barchasini ko'rish mumkin. Qahramon botinidagi “men” gunohga iqrar bo'lib, tavba qilishni qancha xohlasa, uning g'ayriqutbi – “o'zga” mahorat bilan uni inkor etadi. Oq va qora, nur va zulmat aro kechgan bu kurash oxir-oqibat “tizzalar tiz bukilishi va yurakdagi qo'rg'oshin chaqaloqning paylaridek mayin tortishi” [9:308] bilan yakunlanadi. Bu orqali Ezgulik va Yovuzlik – ikki qarama-qarshi qutb kurashi oqibatida Ezgulik doim g'alaba qozonishiga ishora etilgan. Klavdiy tabiatidagi yovuzlik garchi keyin yana o'z hukmini o'tkazsa-da, bir necha lahzalik botin

kurashida Yovuzlik Haqiqat oldida ojizlanadi, chekinadi.

Klavdiyning ayni shu nutqida jamiyatda yana aksar jinoyatlar ko'proq kim tomonidan sodir etilishi haqidagi haqiqat ramziy bayon etilganini ko'ramiz:

*Oz emasdir bizda rosti shum jinoyatchi,
Oltin taqqan barmog'i-la dag'dag'a qilar.
Uning qonlar to'kib, yiqqan mol-u davlati,
Jazoga chap bermoqqa bir vosita bo'lar*
[9:307].

E'tibor qilinsa, monologda jinoyatni yuqori tabaqa vakillari (barmog'ida oltin taqqan) qilishi, uning zulm va zo'ravonlik – gunoh bilan topgan boyligi yana jazoga vosita bo'lishi aytilgan. Jazodan pul vositasida qutulmoq esa korrupsiya. Demak, Shekspir ishorat etgan bu haqiqat bilan o'sha davr huquq tizimi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Dramaning beshinchi pardasida qabris- tonda ikki masxaraboz-go'rkov orasida bo'lib o'tgan suhbat ham ulkan ma'rifiy ahamiyatga ega. Unda insoniyat tarixi, turmush tarzi, kasb-kori va odamzodning so'ng manzili xususida chuqur falsafiy mushohadalar bayon etilgan. Shuningdek, go'rkovlarning "O'z joniga qasd qilish bilan abadiy rohat ixtiyor etganni xristiancha ko'mish" [9: 348] masalasi-dagi suhbat keltirilgan. Bu suhbat jamiyatda o'rnatilgan tartib-qoida, qonunlar oddiy fuqarolar uchun chiqarilgani va ular bu qonunlardan tashqari chiqsa, javobgar bo'lishi; tartibni buzgan aslzoda-amaldorlarga esa qonun boshqacha, ularning manfaatiga mos talqin qilinishini oydinlashtiradi. Shekspir bu bilan ikki xil talqin etiluvchi qonunlarni tanqid qilib, jamiyat tartib-qoidalari hamma uchun bir xil kuchga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlagan.

Tadqiqot natijalari tahlili

Umuman, tragediyadagi qiroli Hamletning zaharlanib o'ldirilishi, shahzoda Hamletning mazkur jinoyatdan ogoh bo'lishi, malika Ger-

trudaning xiyonati, yolg'on qurboni bo'lishi, Ofeliyaning fojiali o'limi, Hamletning haqiqatga yetish uchun "telba" bo'lishi, Poloniy, Rozenkrans, Gildensternning o'limi, Laertning fitna qurboni bo'lishi kabi qator holatlar asarni yuridik nuqtayi nazardan o'rganish, bahs etish mumkinligini dalillaydi. Bu aniq, isbotlarsiz ko'rinib turgan, voqelik bayoni asosida anglanadigan fojia-jinoyatlar. Biroq "Hamlet"da jinoyat, qonunning buzilishi na faqat voqealar, balki qahramonlar ruhiyati, botinini tasvirlash orqali jamiyat, boshqaruv, odat va an'ana, din va e'tiqod, dunyoqarashdagi o'zgarishlarni yoritish bilan ham ko'rsatilgan. Asar matni diqqat bilan o'qilsa, ko'hna Daniyaning halokati nimada ekani, "Island sagalari" to'plami, "Daniyaliklar tarixi" asarlarida yozib qoldirilgan shahzodaning qasosi haqidagi xronikani Shekspir badiiy qayta yaratishdan ko'zlagan asl muddaosi nima ekani oydinlashadi. Shunda Shekspir uchun Hamletning ruhiy iztiroblari, qalb tug'yoni, fojiasini ko'rsatish tarozi pallasining bir tomonida, jamiyat tanazzulining bosh sabablari ko'rsatish esa ikkinchi tomonda turgani bilinadi.

Xulosalar

Umuman, Shekspirning "Hamlet" tragediyasida tarixiy-qiyosiy aspektda o'rganish mumkin bo'lgan bir qator dolzarb huquqiy muammolar yoritilgan. Aytish mumkinki, "Hamlet" – o'zgartirilgan qonunlar fojiasini aks ettirgan asar. Unda shaxs fojiasi fonida davlat, davlat misolida jamiyat, jamiyat tasviri bilan G'arb inqirozining asl sabablari o'ziga xos uslubda bayon etilgan. Tragediya orqali buyuk dramaturg quyidagi huquqiy qarashlarni ilgari surgan:

1. Jinoyatlar yomon xulqlardan tug'ildi. Inson boshiga yetadigan barcha falokatlar tuban xulq natijasi va uning oqibati muqarrar halokatdir.

2. Har qanday jinoyat izzsiz ketmaydi, er-tami-kechmi u fosh etiladi.

3. O'z manfaati yo'lida qonunlarni o'zgartirish – jinoyat.

4. Qonun barcha uchun bir xil. U insonlarning ijtimoiy mavqeyi, hayotda tutgan o'rniga qarab ishlamasligi kerak.

5. Axloq normasiga zid odat-taomil – ke-lajak kushandasi.

6. Amaldagi qonunlar insoniyat uchun yaratilgan asl qonunlar bilan muvofiq bo'l-masa, ayniqsa, qonun axloqqa mos bo'lmasa, jamiyat ichdan yemiriladi, tanazzulga yuz tu-tadi.

REFERENCES

1. Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari. Janr. Muallif. Xronotop [Problems of theoretical poetics. Genre. Author. Chronotop]. Tashkent, Gafur Gulom Publ., 2015.
2. Iyering R. Borba za pravo [Fight for the right]. Moscow, 1908.
3. Koler Y. Shekspir s tochki zreniya prava [Shakespeare in terms of law]. St. Petersburg, 1895.
4. Oks M.A. Pravoviye idei v khudozhestvenno-politicheskikh proizvedeniyah, v chastnosti u Shekspira [Legal ideas in artistic and political works, in particular in Shakespeare]. Odessa, 1886.
5. Poletayev N.A. Shekspir i Iyering, ili chto takoye bor'ba za pravo [Shakespeare and Iering, or what is the struggle for the right]. St. Petersburg, 1900.
6. Saidov A. Shekspir va yurisprudensiya [Shakespeare and jurisprudence]. Tashkent, Uzbekistan Publ., 2011.
7. Haqqul I. Shekspir mash'ali. Ijod iqlimi [Shakespeare's torch. Climate of creativity]. Tashkent, Fan Publ., 2009.
8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Olam va odam. Din va ilm [The universe and man. Religion and science]. Tashkent, Hilol nashr Publ., 2021.
9. Shekspir V. Hamlet. Translated from English by J. Kemal. Selected Works. Tashkent, Fan Publ., 2011, vol. 3.
10. Shtreyfinkel A.E. Yuristi o Sheyloke [Lawyers on Shylock]. *Voshod*, 1887, no. 11, pp. 104–124.
11. Bozorova N.P. Badiiy asar qahramoni taqdirida hujjatlar o'rne [The role of documents in the destiny of a hero of art]. *Obrazovaniye i innovatsionniye issledovaniya Mejdunarodniy nauchno-metodicheskiy jurnal – Education and innovative research. International scientific and methodological journal*, Tashkent, 2020, no. 2, pp. 71–75.
12. Pochemu mat' Gamleta vyshla zamuzh za ubiytsu muzha? [Why did Hamlet's mother marry her husband's murderer?]. Mail.ru Project Answers. Available at: <https://otvet.mail.ru/question/174136087/>.
13. Chto Bibliya govorit o brake [What the Bible Says About Marriage]. Project Bible Center. Available at: <https://www.bible-center.ru/ru/topic/marriage/>.

UDC: 811.111(045)(575.1)

THE IMPORTANCE OF ACADEMIC YEAR IN TEACHING LEGAL ENGLISH FOR LAW MAJORS

Rasulova Mahbuba Ravshan qizi,

Teacher at Foreign Languages Department,

Tashkent State University of Law

ORCID: 0000-0002-4376-3302

e-mail: m.rasulova@tsul.uz

Abstract. This article seeks to provide a detailed overview focusing on the significance of an academic year in teaching legal English for law majors at tertiary level. Case study is used to analyze observation data as it is an empirical investigation of contemporary phenomena within real-life contexts. The study is within Tashkent State University of Law (TSUL). One group of first-year students and one group of second-year students of TSUL participated in the study. Two groups were chosen and their classes were observed. After classroom observations, some volunteers were invited to the interview. The data was analyzed based on the Grounded theory as it preserves the holistic nature of the data. The study suggested that starting teaching Legal English from the second academic year would be more useful and practical as the students are likely to have less knowledge on the legal topic when they are freshmen.

Keywords: legal English, ESP, legal slang, legal terms of art, case study.

HUQUQSHUNOS TALABALAR UCHUN YURIDIK INGLIZ TILINI O'QITISHNI BOSHLASHDA O'QUV YILINING AHAMIYATI

Rasulova Mahbuba Ravshan qizi,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada huquqshunoslik yo'nalishidagi talabalar uchun yuridik ingliz tilini o'rgatishda o'quv yilining ahamiyati haqida umumiy ma'lumotlar berish ko'zda tutilgan. Ma'lumotlar real kontekstga oid zamonaviy hodisalarning empirik tadqiqi hisoblangan case study metodidan foydalangan holda tahlil qilingan. Tadqiqot Toshkent davlat yuridik universiteti (TDYU)da aynan tanlab olingan ikki guruh: birinchi va ikkinchi kurslarda olib borildi. Tanlangan guruhlar darslari kuzatildi, kerakli ma'lumotlar yig'ildi va yakunda ko'ngilli talabalar intervyuga taklif etildi. Ma'lumotlar ularning yaxlit xususiyatini saqlaydigan asosli nazariyaga tayangan holda tahlil qilingan. Tadqiqot natijasi shuni ko'rsatdiki, talabalar bir yil mobaynida huquqiy bilimlarini oshirgani uchun ikkinchi o'quv yili, ya'ni ikkinchi kursdan boshlab yuridik ingliz tilini o'qitish foydali va samarali bo'ladi.

Kalit so'zlar: yuridik ingliz tili, ESP, yuridik sleng, yuridik terminlar, keys tahlil qilish metodi.

ЗНАЧЕНИЕ АКАДЕМИЧЕСКОГО ГОДА В ПРЕПОДАВАНИИ ЮРИДИЧЕСКОГО АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА ДЛЯ ЮРИДИЧЕСКИХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ

Расулова Махбуба Равшан кизи,

преподаватель кафедры «Иностранные языки»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В этой статье делается попытка предоставить подробный обзор, посвященный значению академического года в преподавании юридического английского языка для юридических специальностей на уровне высшего образования. Тематическое исследование используется для анализа данных наблюдений, поскольку это является эмпирическим исследованием современных явлений в контексте реальной жизни. Обучение проводится в Ташкентском государственном юридическом университете. В исследовании приняли участие две группы студентов первого и второго курса Ташкентского государственного юридического университета. Наблюдение проводили на занятиях этих двух групп. После наблюдений на занятиях некоторые добровольцы из числа студентов были приглашены на интервью. Данные были проанализированы на основе теории обоснованной методологии, поскольку она сохраняет целостный характер данных. Исследование показало, что было бы более полезно и продуктивно начинать преподавание юридического английского языка со второго академического года обучения, поскольку студенты-первокурсники чаще всего не имеют достаточных знаний по юриспруденции.

Ключевые слова: юридический английский язык, ESP, юридический сленг, юридические термины, тематическое исследование.

Introduction

The necessity of English for Specific Purposes (ESP) has been prevalent these days. This article focuses on teaching legal English for law majors and the importance of academic year to start teaching at Tashkent State University of Law. In order to be successful in their fields, more and more law major students are being eager to learn legal English so that they can open up more doors of future opportunities. However, having good knowledge in General English is not enough for ambitious students, as they do not have enough chance to learn legal language well. Therefore, the need of being good at legal language has become more prominent than ever before among law students and lawyers who are willing to improve their language for job purposes. Teaching legal English professionally might not be a serious problem with appropriate methods and techniques, but the academic year to commence to teach legal English is supposed to be a challenging case for teachers and instructors. The aim of this article is to investigate the significance of an academic year in teaching legal English for law majors at tertiary level and provide

some suggestions based on the analysis of the data.

In most non-English major Uzbek universities, English for Specific Purposes is a compulsory subject. Students are required to attend the classes, be active, participate in different debates, deal with different assignments etc. In these classes students are given a chance to master their knowledge in English for Specific Purposes. Students of Law Faculties study Legal English. In this faculty students know the importance of Legal English. Therefore, they try to make a lot of efforts to acquire specific terminology as the process of learning this specific language requires time, hard work, practice and persistence as well. Their primary aim is to become successful lawyers, judges or prosecutors.

Law students encounter several obstacles during the learning process of Legal English. The first challenge is related to understanding the content of the subject and expressing this understanding in a manner accepted by the teacher. The reason behind this issue might be connected with the lack of experience as they do not use legal English before [1]. Therefore, this

task can be very challenging for students to study legal terms and understand the deep meaning of them with limited knowledge in General English. They tend to make grammatical or spelling mistakes and in most of the cases they lack vocabulary to express their ideas. Students face many unknown words [2]. In a similar way, Inesa claims that they do not have knowledge regarding legalese which are terms of art used in legal profession, that are not known by people who are specialized in other professions [3]

What makes Legal English so difficult?

In some cases, understanding legal language is difficult, because it is very different from ordinary English. Rupert Haigh postulates [4] [5]two issues:

1. Sentences often have peculiar structures, punctuation is used insufficiently, foreign phrases are sometimes used instead of English phrases, unusual pronouns are employed (for example the aforesaid) and unusual set of phrases are to be found (null and void).

2. A large number of difficult words and phrases are used. These are main categories:

- A. Legal terms of art

Legal terms of art are technical words and phrases that have precise and fixed meanings which cannot usually be replaced by other words. These terms of art in the legal profession are known as legalese. It is easy to use legalized words and phrases among lawyers and law specialists. If a reader is trained in law, using legal terms or phrases is much easier than providing a definition or explanation [6] & [7]. Communicating with other people whose majors are not law related might bring about some failures in understanding the utterances. Therefore, the use of these terms should be avoided. These terms must be defined when communicating with non-lawyers if the meaning of the term is not obvious [8].

- B. Legal jargon

Legal jargons are the words used by lawyers, which are difficult for others to understand. They might be certain obscure words which have complicated meanings and are therefore not often encountered in legal documents. They also include several archaic words which are no longer in use of ordinary English. Some of these are aforesaid, hereinbefore, hereinafter, henceforth, the said party [7].

Meaterials and methodology

1. Research methodology

Case study is used to analyze observation data as it is an empirical investigation of contemporary phenomena within real-life contexts. Qualitative case studies are typically longitudinal which enables researchers to collect large amounts of data over a long period of time. Data collection and analysis are done simultaneously and recursively [9]. The study is within Tashkent State University of Law (TSUL). All students except those whose major is Public Administration study legal English. Both legal English and general English classes are delivered by the teachers of Foreign languages department. The students have those types of classes three times a week. The aim of the course is to prepare students to use English for their professional studies and consequently for their professional needs in real life and work. This course will further give the students the opportunity to improve their speaking on general topics and communicate in legal environment and to understand texts on basic legal aspects. In this course, three main coursebooks which are The Lawyer's English Language Coursebook (C. Mason & R. Atkins), International Legal English (A. K. Lindner), and Navigate Intermediate level.

First, the researcher observed several classes to see the whole process of the classes; how the classes are organized and

conducted by the teachers and how the students participate in them. By doing so, all necessary data were collected to create interview questions to ask for volunteer students during the interview. All collected data were analyzed based on discourse analysis as it is a tool for understanding authentic spoken interaction.

2. Research participants

One group of first-year students and one group of second-year students of TSUL participated in the study. Both groups were controlled groups and they were taught legal topics throughout the whole academic year. First-year students were given legal topics with simple explanations of the words and phrases, with simple tasks and activities, while the second-year students were taught more complicated topics as they had studied the course before. The language proficiency levels of the participants are nearly similar, they only had foundation of English grammar as they were required to take the test in university entrance exams. Only one teacher's classes for both groups were the research focus.

Research findings

Observation data provided insights into understanding what was happening in the classes. Although the topic and the language were quite easy, it became a bit difficult for the teacher to explain the topic in first group. Then, I observed the lesson of the second group, that is second-year students, with the same teacher. Based on my observations I assumed that the main obstacle that the first group had is the lack of knowledge related to the topic, one example the language of Employment law. As they were freshmen, they were not aware of the some of the topics which were included into the syllabus of the legal English course. However, the second group showed their active participation and understanding the given topics by

translating the terminology in the topics into their native language (Uzbek). It led me to assume that having the basic knowledge about the topic that is being discussed is crucial in ESP learning. In order to find out if my hypothesis was true or not, I invited only volunteer participants to the individual interviews so that I could get much deeper and fuller understanding of the case. 7 students, 4 from the first group and 3 from the second, had an interview with me and I asked very few questions such as "Has the topic been easy or difficult to understand for you? Why?". Below I will present their answers. The name of the participants have been coded.

Participants from the first group

Participant 1

"Today we talked about Contract law. It was a bit difficult to understand for me, because we did not study this topic in our main subjects"

Participant 2

"Today's topic has been difficult for me, because I did not understand the words well like hereinafter, therein...I have never seen these words before".

Participant 3

"not so difficult, because I watched some videos about contracts a week ago, if I'm not mistaken".

Participant 4

"I can say I understood the topic, but not so deeply. Our teacher explained four main elements of a contract, but I didn't understand well the last two elements although my teacher explained it twice. I think I don't have enough knowledge".

Participants from the second group

Participant 5

"Our topic was Real property law, and I understood well. Because we talked about this topic in our major subject a month ago and I have some basic knowledge about it, that's why, maybe I understood well".

Participant 6

"Today we talked about Real property law. It is one of the familiar topics that we had discussed before. It has been very easy to remember the words because I saw the translations of some words in our main subject".

Participant 7

"Topic is easy to understand, I think we need to learn the words and remember them. We learned them by doing some activities in the class. It will be useful if I use them a lot".

Review of research findings

Based on the participants' answers, I can assume that having a basic knowledge about a new topic in legal context is very important as it helps to grasp what the students are learning and what they are talking about. It gets them to be engaged with topic and activities well and they can participate actively in the classes. Moreover, it helps students to give their opinions and prove them with articles or precedents, and elaborate on their answers for the given questions. It also gives an opportunity to work collaboratively. Through collaborative learning, students participate more. They learn how to compromise and how to encourage one another. Therefore, students should make use of other students' help as language resources. Sometimes giving students' responsibilities by assigning them roles is the best solution [10]. By having roles, students become more responsible and aware of their purpose by staying concentrated most of the time.

Conclusions

The need for English for Specific Purposes has become a necessity nowadays. Many people are eager to become successful in different fields. English has become a key component in helping them achieve professional and career development. Law

students encounter many challenges during the learning process of Legal English. They face difficulties understanding the content of the subject and they lack vocabulary to express their ideas. Some students have limited knowledge in General English [11]. Teachers as well face many challenges while teaching Legal English. Teaching Legal English is a huge challenge for teachers who are not experts in law. Teachers face problems since they have to teach content in an area of study about which they have little knowledge, [12]; [13]. Team-teaching proves to be very helpful for ESP teachers. In this case the ESP teacher collaborates with a subject specialist. Legal English teachers can effectively cooperate with Law teachers. Legal English is characterized by a special language, which included legal terms of art, legal jargon, word with and different meaning in General English in Legal English, words that are used in a peculiar context, lack of punctuation and the use of doublets and triplets [14]; [15]. The suggestions from this study can be that starting teaching Legal English from the second academic year would be more useful and practical as the students are likely to have less knowledge on the legal topic when they are freshmen. Then, the teachers will not need to explain the topic from the legal side which is not their duty. Conversely, language teachers will teach only the language of the legal topic and encourage the students to use legal vocabulary in real-life contexts. Finally, Legal English teachers can be effective in multilevel classes by showing enthusiasm, managing the classroom, involving all the students in the lesson, using a variety of teaching styles and methodologies, paying attention to individual needs, providing frequent feedback to students and motivating students to keep improving their knowledge.

REFERENCES

1. Halima S.Q. The perceptions and Practices of First Year Students: Academic Writing at the Colleges of Applied Sciences in Oman. The University of Leeds, 2011.
2. Codruta Badea E. Teaching Legal English as a Second Language. *Splaiul Uniri, Anale. Seria Stiinte Economice, Timisoara*, 2012, vol. XVIII, pp. 829-833
3. Toska I. Teaching legal English in multilevel classes. *European Journal of Education and Applied Psychology*, 2019.
4. Haigh R. Legal English. London, Cavendish, 2004.
5. Haigh R. Legal English. London, Routledge Cavendish, 2009.
6. Hanson S. Legal Method. London, Cavendish, 1999.
7. Putman W. Legal Analysis and Writing. 2nd ed., Thomson Delmar Learning, 2003.
8. Mellinkoff D. The language of law. Boston, Little Brown and Company, 1963, pp. 386–406.
9. Juanita H., Croker R. Qualitative Research Methods in Linguistics. Macmillan, 2009.
10. Hess N. Teaching Large Multilevel Classes. Oxford University Press, 2001.
11. Gonzales M.U., Vyushkina E.G. International cooperation in designing effective methods to prepare non-native EFL teachers for training and assessing legal English skills. Proceedings of the Georgetown Law Global Legal Skills Conference IV, Washington, DC, 2009, June 4–6.
12. Westwood P. Effective Teaching. *Australian Journal of Teacher Education*, 2006, vol. 21, iss. 1.
13. Tavakoli M., Nasri N., Rezazadeh M. Applying strategies for dealing with lack of subject knowledge: Can language teachers be effective ESP teachers? *English for Specific Purposes World*, 2013, vol. 13, iss. 37. ISSN 1682–3257. Available at: <http://www.esp-world.info/>.
14. Johns T., Dudley-Evans A. An experiment in team-teaching of overseas postgraduate students of transportation and plant biology. *ITeam teaching in ESP, British Council*, 1980, pp. 6–23.
15. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes: A learning-Centred Approach. Cambridge University Press, 1987.
16. Shpresa D., Buza L. Legal English. Tiranë, Doruntina, 2006, vol. 1.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

4 / 2022

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,
y.f.d., dotsent

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha
falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Yarmolik,

F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

E-mail: tn.tdyu@mail.ru

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 30.08.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 16,50 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 97.

TDYU tipografiyasida chop etildi.